3. Logarifmning xossalardan foydalanib murakkabroq logarifmik tengsizliklarni yechish.

Dars tashkil qilingandan so'ng o'qituvchi o'quvchilarni bir nechta kichik guruhlariga ajratadi.

1-bosqich, ya'ni "Logarifmik tengsizliklar" mavzusiga tayyorgarlik yuzasidan o'quvchilar bilimni test savol – topshiriqlari yordamida aniqlanadi va har bir guruh to'plagan ballar hisoblanib e'lon qilinadi.

2-bosqich, "Logarifmik tengsizliklar" mavzusining bayoni bo'yicha:

a) mavzu bo'yicha tuzilgan modul dasturi tarqatiladi va o'quvchilarni modulning didaktik maqsadi bilan tanishtiriladi;

Modulning didaktik maqsadi:

Modul dasturi yordamida siz logarifmik tengsizliklar va ularning logarifmning xossalardan foydalanib yechish yo'llarini bilishingiz, mustaqil va ijodiy ishlash ko'nikmalari, nutq va muloqat madaniyatingizni rivojlantirishingiz zarur.

b) o'quvchilar faoliyatini modul dasturidagi o'quv topshiriqlarini mustaqil bajarishga yo'llanadi;

v) har bir o'quv faoliyati elementi topshiriqlarining to'liq bajarilishini nazorat qilinadi;

g) har bir o'quv faoliyati elementi yakunida savol – javob yoki munazara o'tkaziladi. 2- bosqich bo'yicha har bir guruh to'plagan ballar hisoblanib e'lon qilinadi.

3- bosqich, "Logarifmik tengsizliklar" mavzusi yuzasidan test savol – topshiriqlari tarqatiladi va o'quvchilarning yangi mavzu bo'yicha bilimlari nazorat qilinadi.

3-bosqich yakunida o'quvchilarning barcha bosqichlari bo'yicha to'plagan ballari hisoblanadi va g'olib guruh aniqlanadi. So'ngra o'qituvchi tomonidan dars yakunlanadi.

Ta'lim jarayonini modulli dasturlar asosida rejalashtirish o'quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga, darslik bilan ishlashga, matematika faniga bo'lgan qiziqishini uyg'otishga va dars samaradorligini oshirishga imkoniyat yaratadi.

Shunday qilib modulli o'qitishdan foydalanib, malakali mutaxassisni tayyorlash, quyidagilar asosida ta'minlanadi:

- o'qitishning uzluksizligi (bunda fanlarni o'zlashtirish samaradorligi oshadi);
- o'qitishni jadallashtirish (buning natijasida informatsiyaning ko'p qismi, individual va mustaqil ishlash paytida, kompyuter tarmoqlari orqali o'zlashtiriladi);
- o'qitishni individuallashtirish (o'quvchi o'z qobiliyatiga ko'ra bilim olish imkoniyatiga ega bo'ladi).

REFERENCES

1. Умарова У.У. (2020). Использование педагогических технологий в дистанционном обучении Moodle. Проблемы педагогики **51:6**, С. 31-34
2. Mardanova F.Ya., Rasulov T.H. (2020). Advantages and disadvantages of the method of working in small group in teaching higher mathematics. Academy, **55:4**, pp. 65-68.
3. Умарова У.У. (2020). Роль современных интерактивных методов в изучении темы «Множества и операции над ними». Вестник науки и образования. **94:16**, часть 2, С. 21-24.
4. Умарова У.У. (2020). Применение триз технологии к теме «Нормальные формы для формул алгебры высказываний». Наука, техника и образование. **73:9**, С. 32-35.
5. Расулов Т.Х., Расулов Х.Р. (2021). Ўзгариши чегараланган функциялар бўлимини ўқитишга доир методик тавсиялар. Scientific progress, 2:1, 559-567 б.
6. Boboeva M.N., Rasulov T.H. (2020). The method of using problematic equation in teaching theory of matrix to students. Academy, **55:4**, pp. 68-71.
7. Бахронов Б.И. (2021). Функциянинг узлуксизлиги ва текис узлуксизлиги мавзусини ўқитишга доир баъзи методик тавсиялар. Scientific progress. 2:1, 13551363 б.
8. Марданова Ф.Я. (2020). Использование научного наследия великих предков на уроках математики. Проблемы педагогики, **51:6**, С. 40-43.

ZARAFSHON DARYOSI SUVIDAN FOYDALANISH MASALALARI

Yoshiyeva D.Y
TIQXMMI MTU

Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti satjyor-o'qituvchisi

Suyunov J
TIQXMMI MTU

Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish institute talabasi

ANNOTATSIYA

Zarafshon daryosi havzasining tabiiy sharoiti va geografik tavsifi deb nomlanib, unda daryo havzasining geografik o'rni, geologik tuzilishi va relyefi, iqlim sharoiti, tuproq va o'simlik qoplami tabiiy va antropogen gidrografik tarmoqlari o'rganilgan. Zarafshon daryosining Navoiy viloyati hududidagi irmoqlari va suv resurslaridan foydalanish masalalariga bag'ishlangan. Zarafshon daryosi suvining Navoiy viloyati tumanlari bo'yicha taqsimoti ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: *Zarafshon daryosi, geograrif o'rin, irmoq, sug'orish, suv omborlar, daryo, tezlik, suv sarfiva sathi, tuproq, allyuvial, proillyuvial.*

ISSUES OF USING THE WATER OF THE ZARAFSHAN RIVER

ABSTRACT

It is called the natural conditions and geographical description of the Zarafshan river basin, in which the geographical location, geological structure and relief, climatic conditions, soil and vegetation cover, natural and anthropogenic hydrographic networks of the river basin are studied. It is dedicated to the tributaries of the Zarafshan River in the territory of Navoi Region and the issues of using water resources.

Key words: *Zarafshan River, geographic location, tributary, irrigation, reservoirs, river, speed, water consumption level, soil, alluvial, prolluvial.*

KIRISH. Zarafshon daryosi o'zining yuqori qismida Zarafshon muzligidan Maschoh nomi bilan boshlanadi. U Ayniy qishlog'i yonida chap irmog'i Fandaryo bilan qo'shilgach, Zarafshon nomini oladi. Zarafshon daryosi tog'li qismida ko'pirib, toshlarga urilib, sekundiga 15-17 m tezlikda oqadi. Bu qismida Zarafshon 200 ga yaqin irmoqlarni qo'shib oladi. Bu irmoqlar ichida eng muhimlari chapdan qo'shilovchi Fandaryo, Qishtutdaryo va Mag'iyondaryodir. Qolgan irmoqlari kichik. Zarafshon daryosini Panjikent shahridan o'tgandan keyin, hududda bironta ham doimiy oqadigan irmog'i yo'q. Lekin sug'orish natijasida suvi kamayib, Zarafshon daryosiga quyilmaydigan 120 ta soy bor. Shu soylarning 50 tasi Nurotaoqtog'dan, qolgani Qoratepa, Zirabuloq va Ziyoviddin tog'laridan boshlanadi. Bu soylarning eng muhimlari Zarafshon tizmasidan boshlanuvchi Urgutsoy, Omonqo'tonsoy, Kamangaransoy, Og'alisoy, Sazangansoy, Oqsoy va Nurota Oqtog'dan boshlanuvchi Tursunsoy, Oqtepasoy, Tasmachisoy, Langarsoy, Ko'karasoy va boshqalar. Zarafshon daryosi hududida sekin oqib, kengligi 3-4 km keladigan qayirlar hosil qilgan. Orolning uzunligi 100 km, kengligi 15 km, maydoni esa 1200 kv.km dir.

ASOSIY QISM. Zarafshon daryosi Xatirchi qishlog'idan o'tgach g'arbdan Xazar yo'lagidan oqadi. Bu qismda uning o'zani yana torayadi, oqimi esa xoro vohasida sekin, ilonizi shaklida oqib, kengayib, bir nechta tarmoqlarga ajraladi va Buxoro deltasini hosil qiladi. Zarafshon daryosi sersuv bo'lib, Zarafshon, Turkiston va Hisor tog'larida joylashgan umumiy maydoni 556.7 kv km bo'lgach 424 ga yaqin muzliklardan va doimiy qorlardan suv oladi. Zarafshon daryosining yillik oqimini 100 foiz desak, shuning 65 foizi muz va qorlarning erishidan, 34 foizi qor suvlaridan va atiga bir foizi yomg'ir suvlaridan iborat. Demak, Zarafshon daryosining suvi ayni kun isigan yoz faslida (iyun-sentabr oylari), qishloq xo'jalik ekinlari uchun suv kerak bo'lgan davrda ko'payadi. Bu oylarda Zarafshon daryosi yillik oqimining 61,1 foizini o'tkazadi. Eng kam suv sarfi (30-35) m³/sek) esa qish fasliga to'g'ri keladi. Aksincha, suvi eng ko'paygan davr yozga to'g'ri kelib, iyulda ba'zan sekundiga 165 kub metrni tashkil etadi. Zarafshon daryosi yozda loyqalanib oqqanligi sababli hududning sug'oriladigan har gektar yeriga 10-20 tonnagacha loyqa keltiriladi. Keltirilgan loyqa

tarkibida fosfor va kaliy Amudaryo va Sirdaryoga nisbatan 1,5-2 marta ko'p bo'ladi. Zarafshon daryosining suvi dekabr oyining oxirlaridan fevral oyining o'rtalarigacha muzlashi mumkin. O'rta Zarafshon hududidagi soylar past tog'lardan boshlanib, erta bahorda erigan qor va yomg'ir suvlaridan to'yinadi. Yozda esa ularning suvi juda kamayib, ba'zilar qurib ham qoladi. Soylarda ko'pincha yillik oqimning qariyb 50 foizidan ortig'i bahorga to'g'ri keladi. Natijada xalq xo'jaligiga ziyon yetkazuvchi sellarni ham vujudga keltiradi. Ma'lumotlarga ko'ra, Zarafshon vodiysining o'rta qismida so'nggi yuz yil ichida 500 ga yaqin sel bo'lgan. Sel bulganda soylarning suvi(bahorda) bir necha marotaba ko'payib ketib, soy tulib oqadi. Agar Tusinsoyning yillik o'rtacha suv sarfi sekundiga $1,5 \text{ m}^3$ bo'lsa, Kattasoyniki sekundiga $0,268 \text{ m}^3$ ni tashkil etadi. Lekin sel bo'lganda Tusun daryosi sekundiga 200 m^3 gacha, Kattasoy esa hatto sekundiga 609 m^3 gacha suv oqizadi. Bunday katta oqim o'z yo'lida uchragan qishloqlarni, ekin dalalarini, ko'prik va yo'llarni buzib, vayron qilib, tuproqni yuvib, jarlarni vujudga keltiradi. Mutaxassislarning ma'lumotlariga qaraganda hududdagi o'sha 120 soyning 50 foizigacha o'rtacha 25 mil.m^3 suv sig'adigan hovuzlar qurilsa, 1 mlrd. 600 mil.m^3 sel suvlarini to'plab qolish imkoniyati tug'iladi. Hududda suvdan oqilona foydalanish maqsadida Kattaqo'rg'on suv ombor qurilgan. Zarafshon daryosi havzasi O'zbekiston va Tojikiston respublikalari hududida joylashgan. Uni shartli ravishda ikki qismga ajratish mumkin. Havzaning tog'li qismi qo'shni Tojikiston respublikasi hududida joylashgan. Zarafshon daryosi oqimining asosiy qismi shu hududda shakllanadi. Zarafshon havzasi deyarli kenglik bo'yicha sharqdan g'arbga 766 km masofaga cho'zilgan. Uning g'arb tomoni ochiq va tekisliklarga tutashib ketadi. Lekin, biz magistrlik dissertatsiya ishida, Zarafshon havzasi deganda, faqat O'zbekiston hududidagi Samarqand botig'i deb ataluvchi qisminigina tadqiq etamiz. Bu qismida hudud aniq tabiiy chegaralar bilan o'ralgan bo'lib, g'arbda quyi Zarafshon hududi, shimol tomondan Chumqartog', Qaroqchitog', Oqtog', janubdan Qoratepa, Ziyovuddin va Zirabuloq tog'lari bilan o'ralgan. Havzaning sharqiy chegarasi esa shartli ravishda O'zbekistonning Tojikiston respublikasi bilan bo'lgan

davlat chegaralari orqali o'tadi (1.1-rasm). Geologik tuzilishiga ko'ra respublikamizning biz o'rganayotgan Zarafshon havzasi yuzasi poleogen, neogen va antropogen cho'kindi jinslaridan tarkib topgan. Bu jinslarning ustki qismini esa Zarafshon daryosi va uning irmoqlari olib kelgan yotqiziqlar bilan qoplangan. Zarafshon daryosining havzasi Turkiston va Hisor tog' tizmalari bilan Turkiston tog' tizmalarining g'arbiy tarmoqlari oralig'ida joylashgan bo'lib, u O'rta Osiyoning eng yirik daryolari- Amudaryo bilan Sirdaryo havzalarini birbiridan ajratib turadi. Turkiston va Zarafshon tizmalarining ayrim tepalari 500 m dan ham baland, Hisor tizmasining ba'zi cho'qqilari esa deyarli 5000 m ga yetadi. Shuning uchun ham bu tizmalarning tepalari uzoq vaqt davomida doimo qor bilan qoplanib yotadi, mangu qorlik va muzliklarga juda boy.



1.1-rasm. Zarafshon havzasi tog'li qismining orografik kartasi

Zarafshon havzasini oqim hosil bo'lishi nuqtayi-nazardan bir-biridan keskin farq qiladigan ikki qismga ajratish mumkin. Ularning birinchi, ya'ni yuqori qismida Zarafshon daryosi oqimining asosiy qismi (95%) shakllanadi. Ushbu bo'limga xulosa qilib aytganda, uzoq geologik davrlarda O'rta Zarafshonda kechgan orogenetik jarayonlar natijasida shimolda Nurota, Qo'ytosh, Oqtov, Qaroqchitog', janubda Zirabuloq, Qoratepa, Ziyovuddin tog'lari shakllandi. Zarafshon havzasi O'zbekiston qismining iqlim sharoiti Turkistonning tekislik qismidagiga o'xshashdir. Hududning yozi jazirama issiq va quruq, qishi sovuq, yog'in kam

bo'ladi. Lekin, hudud shimoliy kengliklarda joylashganligidan va qisman bo'lsada, shimol, shimoliy-sharqiy tomonda tog'lar bilan o'ralgan, biroq g'arbdan ochiqligi tufayli qishda havo haddan tashqari sovib ketmaydi. Zarafshon havzasining biz o'rganayotgan O'zbekiston qismida 20 ga yaqin meteorologik kuzatish punktlari bo'lib, ularning qo'pchiligi o'z faoliyatini tuxtatgan, qolganlari kuzatishlarni hozirgi kunda ham davom ettirmoqda. Hududda yanvar oyining o'rtacha harorati $-1,3^{\circ}\text{S}$ gacha tushadi. Ba'zan Arktika sovuq havo massalari kirib kelganda havo harorati $24-35^{\circ}\text{S}$ gacha pasayib ketadi. Yozda esa, aksincha, havo ochiq bo'lib, juda isib ketadi. Natijada iyulning o'rtacha harorati $+26-28^{\circ}\text{S}$ gacha ko'tariladi. Hududda bahor va ko'zda ba'zan Arktika sovuq havo massalari bostirib kelib, havoni sovitib yuboradi. Bahorda bo'ladigan oxirgi sovuqlar taxminan mart oyining uchinchi o'n kunligi, kuzgi birinchi sovuqlar esa, oktabr oyining uchinchi o'n kunligiga to'g'ri keladi. Hududda bir yilda 213-215 kun sovuq bo'ladi. Harorat $+10^{\circ}\text{S}$ dan yuqori bo'lgankunlar soni 212-215, vegetatsiya davridagi musbat haroratlarning yig'indisi esa $4300-5050^{\circ}\text{S}$ ga teng. Zarafshon havzasining biz o'rganayotgan qismida yog'in kam yog'adi. Uning miqdori g'arbdan sharqqa tomon ortib boradi. Zarafshon daryosi havzasining O'zbekiston qismidagi daryolar va soylar 2064 tani tashkil eadi. Shundan 1941 tasi 10 km dan kichik bo'lib, ularning umumiy soniga nisbatan 94 % ni tashkil etadi. Havzada 10-15 km oraliqdagi soylarning soni 60 ta, 16-20 km oraliqda -20 ta, 21-30 km oraliqda -20 ta, 31-50 km oraliqda -19 ta, 51-75 km oraliqda -1 ta va uzunligi 75 km dan katta bo'lgan soylar 3 tani tashkil etadi. Navoiy viloyat hududidan utuvchi Zarafshon daryosining muhofaza mintaqasi 6966,1 ga qirg'oq oldi yerlari 1131,1 ga bo'lib, tumanlar bo'yicha quyidagicha taqsimlangan. Navoiy viloyatini asosan ichimlik va texnik suv bilan Zarafshon daryosi ta'minlab, qisman Amudaryo suvidan foydaniladi. Qiziltepa va Karmana tumanini 4/3 qismi ya'ni Malikcho'l zonasini Amu-Buxoro kanali suv bilan ta'minlaydi, shu bilan bir qatorda Uchquduq va Zarafshon shahar aholisiga va tabiatini gullab yashnashiga Amudaryo suvidan olinadi. Viloyatda 2012-yil davomida jami bo'lib, 2335614,1 ming m^3 (2176647,1 ming m^3 2011-y) shundan Zarafshon


daryosi suvidan 1623400,1 ming m^3 (1517448,1 ming m^3 2009-y) Amudaryo yani Amu-Buxoro mashina kanali orqali.640594 ming m^3 (590983,5 ming m^3 2009-y), yer osti suvidan 71620 ming m^3 .(68215,5 ming m^3 .2009-y) foydanilgan. Viloyatda yer osti soy va buloqlar suvdan Nurota tumani 40300,0 ming m^3 .100%, Xatirchi tumani 6%, Konimex va Tomdi tumanlari 18% foydanilanadi.

-ishlab chiqarishga 889785,5 ming m^3 .(884791,5 ming 2023-y)

- ichimlikka 85221,4 ming m^3 .(83718,3 ming m^3 .(2023-y)

- sug'orishga 1335926,8 ming m^3 .(1185562,1 ming m^3 2023-y)

- yo'qotilgan 24680,4 ming m^3 .(22585,2 ming m^3 2023-y)



XULOSA

O'zbekiston daryolarida doimiy gidrologik kuzatishlar XIX asrning oxirlarida boshlangan. Masalan, Qoradaryoda Kuyganyor ko'prigida 1883-yildan, Sirdaryoda, Xo'jand yaqinida, 1895-yildan, Norin daryosida, Uchqo'rg'on yaqinida, 1896-yildan, Chiqchiq daryosida, Chimboyliq yaqinida, 1900-yildan, Chinoz yaqinida, 1902-yildan

boshlangan. Mamlakatimiz hududida gidrologik kuzatish tarmoqlari o'tgan asrning birinchi choragidan boshlab, yanada jadal suratlarda rivojlana boshladi. Zarafshon daryosi sersuv bo'lib, Zarafshon, Turkiston va Hisor tog'larida joylashgan umumiy maydoni 556.7 kv km bo'lgach 424 ga yaqin muzliklardan va doimiy qorlardan suv oladi. Zarafshon daryosining yillik oqimini 100 foiz desak, shuning 65 foizi muz va qorlarning erishidan, 34 foizi qor suvlaridan va atiga 1 foizi yomg'ir suvlaridan iborat. Demak, Zarafshon daryosining suvi ayni kun isigan yoz faslida (iyun-sentabr oylari), qishloq xo'jalik ekinlari uchun suv kerak bo'lgan davrda ko'payadi. Bu oylarda Zarafshon daryosi yillik oqimining 61,1 foizini o'tkazadi. Eng kam suv sarfi (30-35 m³/sek) esa qish fasliga to'g'ri keladi. Aksincha, suvi eng ko'paygan davr yozga to'g'ri kelib, iyulda ba'zan sekundiga 165 kub metrni tashkil etadi. Zarafshon daryosi yozda loyqalanib oqqanligi sababli hududning sug'oriladigan har gektar yeriga 10-20 tonnagacha loyqa keltiriladi. Keltirilgan loyqa tarkibida fosfor va kaliy Amudaryo va Sirdaryoga nisbatan 1,5-2 marta ko'p bo'ladi. Zarafshon daryosining suvi dekabr oyining oxirlaridan fevral oyining o'rtalarigacha muzlashi mumkin. Zarafshon daryosi suv resurslaridan keng miqyosda foydalanish XX asrning 2 yarmidan sezilarli darajada kuchaya boshladi. Buning sababi shu davrda daryoning quyi oqimida sug'oriladigan yerlar maydonining keskin kengaytirilishi, Samarqand, Navoiy kabi yirik shaharlarda sanoat korxonalarini sonining ortib borishi, hududda aholi sonining tez sur'atlarda o'sishi bilan bog'liqdir. Shu omillar ta'siri natijasida Zarafshon vohasida daryo suvi uning quyi oqimi tomon ham miqdor, ham sifat jihatdan o'zgara bordi. Bu jarayon hozirgi kunda yanada jadallashmoqda. Navoiy viloyatini asosan ichimlik va texnik suv bilan Zarafshon daryosi ta'minlab, qisman Amudaryo suvidan foydaniladi. Qiziltepa va Karmana tumanini 4/3 qismi ya'ni Malikcho'l zonasini Amu-Buxoro kanali suv bilan ta'minlaydi, shu bilan bir qatorda Uchquduq va Zarafshon shahar aholisi Amudaryo suvidan suv ichadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi „Ta’lim to‘g‘risida“gi qonuni. T.: - 1997.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T.: - 2008.
3. Rasulov A.R., Hikmatov F. H., Aytbayev D.P. Hidrologiya asoslari. – Toshkent: Universitet, 2003. -327 b.
4. Hikmatov F.X., Aytbayev D.P., Xaitov Ye.Q. “Umumiy gidrologiyadan amaliy mashg‘ulotlar”. Toshkent: Universitet. 2004 y. -162 b.
5. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Toshkent, 2006.
6. Soliyev A.S., Ahmedov E.A., Maxamadaliyev R.Y. va b. Mintaqaviy iqtisodiyot. T.: 2003 – 304 b.
7. Pirimova, Sarafroz Kamolovna, and Husan Ravshan o‘g‘li Shodiyorov. "JIZZAX SUV OMBORI KIRIM SUVLARI HAJMINING YIL ICHIDA OYLIK, FASLIY VA YILLARARO TAQSIMLANISHI." *Educational Research in Universal Sciences* 2.18 (2023): 360-364.
8. Pirimova S. K. Distribution of Atmospheric Precipitation During the Year by Months and Seasons (Example of Bukhara Region) //Texas Journal of Multidisciplinary Studies. – 2023. – T. 19. – C. 44-49.
9. G‘affarova, M. F., Sh Yaxshiyev, and D. Yoshiyeva. "TO‘DAKO‘L SUV OMBORIDA KIMYOVIY REJIMNING O‘ZGARISHI." *AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI* 2.2 (2023): 4-7.

ОСНОВНЫЕ ПОНЯТИЯ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ КАК ТЕОРИСТИЧЕСКАЯ ОСНОВА ИССЛЕДОВАНИЯ

Бахромова Дилсуз

студентка Кокандского государственного педагогического института

АННОТАЦИЯ

В статье представлены некоторые вопросы основные понятия лингвокультурологии как теористическая основа исследования.

***Ключевые слова:** лингвокультурология, языкознание, культурология, этнолингвистика, лингвострановедение.*

Самая актуальная тенденция развития науки второй половины XX-начала XXI века – это интеграция. Даже полярно противоположные области знаний находят свои «точки пересечения», из которых возникают принципиально новые научные направления. Подобный путь прошла и лингвокультурология, которая не просто возникла на грани двух фундаментальных гуманитарных дисциплин, культурологии и языкознания, она возникла из результатов взаимодействия и взаимопроникновения языка и культуры.

Одними из первых лингвокультурологических исследований были труды В. фон Гумбольдта и А.А. Потебни, которые еще в середине XIX века заложили теоретические основы и дали направление развития современной лингвокультурологии. В XX веке идеи ученых развивали Л. Витгенштейн, Л. Вайсгербер, Ж. Деррида, Ш. Балли, Ж. Вандриес, Ф. Боас, М. Гайдеггер и др.

На современном этапе проблемами лингвокультурологии занимаются российские и зарубежные исследователи, наиболее выдающимися из которых являются Н.И. Толстой, Ю.С. Степанов, Н.Д. Арутюнова, В.Н. Телия, В.В.

Красных, В.И. Карасик, Е.М. Верещагин, В.Г. Костомаров, В.А. Маслова, А. Вежбицкая и др.

Сегодня разные аспекты взаимодействия языка и культуры составляют поле исследования для ученых-лингвокультурологов. Следует отметить, что в трудах российских, европейских и американских исследователей проблематика лингвокультурологии понимается различными способами, но существование и постоянное развитие этой науки как таковой неоспоримо.

Тезис о том, что «язык одновременно является и орудием создания, развития, хранения (в виде текстов) культуры, и ее частью, потому что с помощью языка создаются реальные, объективно существующие произведения материальной и духовной культуры» (Маслова, 2001: 27), стал основой новой науки, возникшей на рубеже тысячелетий – лингвокультурологии.

В понимании В.В. Воробьева, «лингвокультурология изучает определенным образом отобранную и организованную совокупность культурных ценностей, исследует живые коммуникативные процессы порождения и восприятия речи, опыт языковой личности и национальный менталитет, представляет системное описание языковой картины мира и обеспечивает выполнение образовательных, воспитательных и интеллектуальных задач обучения» (Воробьев, 1997: 125).

На сегодняшний день в научном мире распространено несколько дефиниций понятия «лингвокультурология». Мы будем пользоваться определением В.В. Красных, которое характеризует лингвокультурологию как «дисциплину, изучающую проявление, отражение и фиксацию культуры в языке и дискурсе. Она непосредственно связана с изучением национальной картины мира, языкового сознания, особенностей ментально-лингвального комплекса» (Красных, 2002: 12).

Определить и исследовать основные проблемы взаимодействия языка и культуры ученые пытались с начала XIX века (работы Якоба Гримма, Иоганна Гердера, Вильгельма фон Гумбольдта). Например, И. Гердер утверждал, что

конструктивная способность языка влияет на формирование народной культуры, психологии и творчества.

Но наибольшее распространение получили взгляды В. фон Гумбольдта (первая половина XIX века), которого считают отцом этнолингвистики. Немецкий языковед высказывал мнение, что «культура проявляет себя прежде всего в языке, и именно язык способен ввести человека в определенную культуру» (Маслова, 2001: 26). Язык также имеет индивидуальную форму, непосредственно влияющую на характер сознания ее носителей. Сам исследователь определял язык как мир, находящийся «между миром внешних явлений и внутренним миром человека» (Маслова, 2001: 60).

Концепция В. фон Гумбольдта позже также нашла свое отражение в работах европейских ученых Антуана Мейе («предшественник» социоллингвистики), Жозефа Вандриеса (развил социоллингвистические идеи Ф. де Соссюра и А. Мейе, разработал понятия социолекта и идиолекта), Эмиля Бенвениста (исследование языка в контексте духовной культуры и культурных концептов) и других.

Идею В. фон Гумбольдта о языке как деятельности духа развил А.А. Потебня, который отстаивал право национальных языков и культур на самостоятельное развитие, подчеркивал их связь с историей народа эволюцией человеческой мысли в целом. По мнению А.А. Потебни, язык составляет историческую форму народного духа, средство кодирования в структурах, созданного ею обшира национального мировоззрения.

Позже тезис о неразрывности и синергии языка и культуры стал основой концепции неогумбольдтианства и известной американской лингвистической школы Сепира-Уорфа, для которых язык был неотделим от когнитивных процессов. Именно язык (точнее, его структура), по мнению сторонников гипотезы Сепира-Уорфа, определял мышление и способ познания реальности человеком. Один из представителей течения неогумбольдтианства Л. Вайсгербер

даже утверждал, что язык является «промежуточным миром» между мышлением и реальностью.

В начале XXI века в существующей научной парадигме произошли существенные изменения, в результате чего возник ряд новых идей и подходов к изучению языка, среди которых следует отметить три основных принципа, которые были реализованы в дальнейших научных исследованиях: «антропоцентризм, предполагающий системное освоение языка, его единиц, текста, дискурса сквозь призму человеческого фактора, рассмотрение пребывания человека в языке и языка в человеке; когнитивизм (язык – результат когнитивной деятельности, способ организации и хранение человеческого знания о мире, пространство мысли и духа); лингвокультурологизм (тесная связь языка и культуры народа, понимание развития языка как результата творческой деятельности человека)» (Богданович, 2004: 65). Безусловно, лингвокультурология опирается на три названные принципа и рассматривается как один из «продуктов» становления антропоцентрической парадигмы, которая сформировалась в XX веке и сегодня является основной в лингвистике. Ведущая идея антропоцентрической парадигмы – изучение субъекта познания (вместо объекта), то есть «исследование человека в языке и языка в человеке» (Маслова, 2001: 8).

Язык в контексте антропоцентрической парадигмы понимается как многомерное явление, возникающее только в человеческом обществе, и может быть охарактеризовано как «продукт культуры», ее важную составляющую и условие существования. В центре антропоцентрической парадигмы в лингвистике есть не человек как таковой, а языковая личность. Следовательно, лингвокультурология, как одно из основных направлений современной лингвистики и один из «продуктов антропоцентрической парадигмы в языкознании, ориентирована на изучение культурного фактора в языке и языкового фактора в человеке» (Маслова, 2001: 8).

Лингвокультурология изучает язык как феномен культуры, как выразитель особой национальной ментальности. Сегодня фундаментальные исследования в области лингвокультурологии связаны с именами Юрия Степанова, Юрия Лотмана, Нины Арутюновой, Анны Вежбицкой, Владимира Воробьева, Вероники Телии, Евгения Верещагина, Виталия Костомарова, Валентины Масловой и др.

Как отмечает В.А. Маслова, на современном этапе в лингвокультурологических студиях условно можно выделить следующие направления исследования:

1) «Лингвокультурология отдельной социальной группы, этноса в какой-то яркий в культурном отношении период, т.е. исследование конкретной лингвокультурной ситуации.

2) Диахроническая лингвокультурология, т.е. изучение изменений лингвокультурного состояния этноса за определенный период времени.

3) Сравнительная лингвокультурология, исследующая лингво-культурные проявления разных, но взаимосвязанных этносов.

4) Сопоставительная лингвокультурология ...

5) Лингвокультурная лексикография, занимающаяся составлением лингвострановедческих словарей» (Маслова, 2001: 28-29).

Значительное повышение интереса к проблемам лингвокультурологии в наше время может быть обусловлено следующими причинами (по В.И. Карасику). «Во-первых, это стремительная глобализация мировых проблем, необходимость учитывать универсальные и специфические характеристики поведения и общения различных народов в решении самых разнообразных вопросов, потребность знать заранее те ситуации, в которых велика вероятность межкультурного непонимания, важность определения и точного обозначения тех культурных ценностей, которые лежат в основе коммуникативной деятельности. Во-вторых, это объективная интегративная тенденция развития гуманитарных наук, необходимость освоения лингвистами результатов, добытых

представителями смежных отраслей знания... В-третьих, это прикладная сторона лингвистического знания, понимание языка как средства концентрированного осмысления коллективного опыта, который закодирован во всем богатстве значений слов, фразеологических единиц, общеизвестных текстов, формульных этикетных ситуаций и т.д., а этот опыт составляет суть изучаемого иностранного языка, находит прямые выходы в практику рекламного и политического воздействия, пронизывает коммуникативную среду массовой информации» (Карасик, 2001: 3).

Лингвокультурология является относительно новой областью знаний, лежащей на грани нескольких гуманитарных дисциплин, таких как культурология, языкознание, психолингвистика, лингвострановедение и т.д. Актуальность лингвокультурологических студий сегодня обусловлена несколькими факторами, основным из которых является тотальность мировых глобализационных процессов, пронизывающих все сферы человеческой жизнедеятельности. Начиная с XIX века ученые начинают рассматривать язык не только как средство общения и познания окружающего мира, но и как определенный культурный код нации. Такой подход к изучению языка впервые появился в трудах В. фон Гумбольдта и А.А. Потебни. Именно по теории немецкого филолога грани мировоззрения отдельного человека и всей нации определяет язык. В трудах А.А. Потебни особое внимание уделено связи языка с историей народа и культурно-языковому аспекту национальной жизни в целом.

Основным предметом исследования лингвокультурологии являются специфические языковые единицы, содержащие культурный компонент значения. В нашем понимании такими единицами есть лингвокультурные концепты, лингвокультуремы, символы, стереотипы, мифологемы, фразеологизмы и т.д. Все они являются национально- и культурно-специфическими, поэтому исследование их даст, на наш взгляд, наиболее четкое и адекватное представление о языковой картине мира этноса, этнической ментальности и национальном типе культуры.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Асадов, З.В. (2012). Этноэидемы как способ преодоления лакунизации древних текстов (на материале памятников письменности древнерусского языка). Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. Москва. №10 (45). С. 196-200.
2. Бацевич, Ф.С. (2004). Основы коммуникативной лингвистики. Киев: Академия. 344 с.
3. Богданович, Г.Ю. (2004). О некоторых терминах современной лингвокультурологии. Культура народов Причерноморья. Симферополь: Межвузовский центр «Крым». № 53. С. 65-69.
4. Вепрева, И.Т., Шадрина, Т.А. (2006). Идеологема и мифологема: интерпретация терминов. Научные труды профессоров Уральского института экономики, управления и права. Екатеринбург. Вып. 3. С. 120-131.
5. Воробьев, В.В. (1997). Лингвокультурология: теория и методы. Москва: Изд-во РУДН. 331 с.
6. Давтян, А.А. (2007). Актуализация архетипического содержания в персонифицированных рекламных образах. Вестник ВГУ. Серия: Филология. Журналистика. №2. С. 178-182.

CHET TILLARNI O‘QITISH NAZARIYASI VA UNING MAQSADI

Jumanazarova Aziza Sayfiddin qizi

Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax Davlat

Pedagogika Universiteti talabasi

Email: jumanazarovaaziza51@gmail.com

ANNOTATSIYA

Chet tillarni o‘qitish metodikasi” kursida bo‘lajak o‘qituvchi ushbu fanni o‘qitish metodini o‘rganishi mumkin. O‘qituvchi chet tili darsini o‘qitish metodidan to‘g‘ri foydalanish orqaligina darsni to‘g‘ri tashkil qilishi mumkin. “Chet tilini o‘qitish metodikasi” maktablarda o‘tiladigan chet tili darslarining ta‘lim me‘yorlarini o‘quvchilarga darsda va darsdan tashqari materiallarni qanday o‘tkazishni belgilab beradi, chet tilidan dars beradigan bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy jihatdan tayyorlaydi.

Kalit so‘zlar: metod, chet tillarini o‘qitish, ilmiy uslubiy adabiyotlar, individual usuli, **METODOLOGIYA**

THE THEORY OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES AND ITS PURPOSE

Jumanazarova Aziza

A student of Jizzakh State Pedagogical

University named after Abdulla Qadiri

Email: jumanazarovaaziza51@gmail.com

ABSTRACT

In the course "Methodology of teaching foreign languages", a future teacher can learn the method of teaching this subject.. A teacher can organize a lesson correctly only by using the method of teaching a foreign language lesson correctly. "Methodology of foreign language teaching" determines the educational standards of foreign language classes held in schools, how to transfer materials to students in class and outside of class, prepares future foreign language teachers professionally.

Key words: method, teaching foreign languages, scientific methodical literature, Individual method, **METHODOLOGY**

Kirish (introduction)

Chet tilini o‘qitish metodikasi – o‘qitishning maqsadi, mazmuni, metod va vositalarini o‘rganuvchi fan bo‘lib, chet tilini o‘qitishga oid adabiyotlardan foydalangan holda talabalarga bilim berish va o‘qitishning yagona yo‘lidir.

Aslida metod nima? Tizimli ta‘limning tamal toshi bo‘lgan metod lug‘atda “maqsadga erishish uchun qo‘llanilgan yo‘l, usul, tizim, tartib, siyosat” va “bir maqsadni amalga oshirish uchun reja asosida olib boriladigan, fanda ma‘lum bir natijaga erishish” degan ma‘nolarni anglatadi. Metodologiya yangi fan bo‘lsa-da, uning rivojlanish jarayoni jadal rivojlanib borayotganini ko‘rishimiz mumkin. Uslubiy kontseptsiya evolyutsiyasida barcha chet tillarini o‘qitish usuli yoki ma‘lum bir chet tilini o‘qitish usulini hisobga oladigan tendentsiyalar mavjud. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash hozirgi kunda juda muhim. Zero, o‘qituvchi o‘z fanini nazariy va amaliy jihatdan puxta o‘zlashtirgandagina yuqori saviyali professional o‘qituvchi bo‘la oladi. “Chet tillarni o‘qitish metodikasi” kursida bo‘lajak o‘qituvchi ushbu fanni o‘qitish metodini o‘rganishi mumkin. Uslubiy tamoyilga ko‘ra, maktablarda chet tili darslari tartibsiz va tasodifiy bo‘lmagan holda tizimlashtirilib, oddiydan murakkabgacha o‘tiladi. O‘qituvchi chet tili darsini o‘qitish metodidan to‘g‘ri foydalanish orqaligina darsni to‘g‘ri tashkil qilishi mumkin. “Chet tilini o‘qitish metodikasi” maktablarda o‘tiladigan chet tili darslarining ta‘lim me‘yorlarini, o‘quvchilarga darsda va darsdan tashqari materiallarni qanday o‘tkazishni belgilab beradi, chet tilidan dars beradigan bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy jihatdan tayyorlaydi. Chet tili maktablarda tegishli darajada o‘qitilishi va bugungi jamiyat talablariga javob berishi uchun bo‘lajak o‘qituvchi “Chet tillarni o‘qitish metodikasi” fanining nazariy kursini juda yaxshi o‘zlashtirishi zarur.

Shuningdek, talaba o‘z bilimidan pedagogik amaliyot jarayonida, diplom yoki kurs ishlarini bajarishda, maktab hayotida yuzaga keladigan turli qiyinchiliklarni yengib o‘tishda foydalana olishi zarur. Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlashda “Chet tillarni o‘qitish metodikasi” nazariy kursi asosiy o‘rinni egallaydi. Har bir

fanning o‘z maqsadi bo‘lganidek, “Chet tillarni o‘qitish metodikasi” kursining ham bir qancha maqsadlari bor. Ular quyidagilar:

1. Maktabda chet tilini o‘qitishning asosiy xususiyatlarini ochib berish va o‘quvchilarni nazariy bilimlarini amaliyotda duch keladigan muammolarni hal qilishda qo‘llashga o‘rgatish;
2. Talabalarni mamlakatimizda va xorijda xorijiy tillarni o‘qitishning asosiy yo‘nalishlari bilan tanishtirish;
3. Metodikani fan sifatida ko‘rib, uning qismlarini o‘rgatish.
Shuningdek, chet tilini o‘qitish jarayonida talabalarni ijodiy mehnat qilishga yo‘naltirish;
4. Talabalarni ilg‘or o‘qituvchilarning tajribalari va pedagogik ishlari bilan tanishtirish va amaliyot davomida o‘sha tajribalardan foydalanishni o‘rgatish;
5. Seminar va amaliy mashg‘ulotlarda maktab ishida va chet tilidan dars berishda o‘qituvchi uchun zarur bo‘lgan malakalarni talabalarga o‘rgatish;
6. Bo‘ljak o‘qituvchini ilmiy uslubiy adabiyotlarni o‘qishga, ular bilan hamqadam bo‘lishga o‘rgatish Ularning kasbiy saviyasini, bilimini oshirish uchun tinmay mehnat qilishga tarbiyalash;

Metodologiya. O‘qitish metodikasi - bu o‘qituvchi va talabalarning o‘zaro tartibli bog‘langan faoliyatlari orqali metodlarni o‘rganadigan fanlar majmuasidir. Metodologiya- ta’lim muammolarini hal qilishga qaratilgan, hamda o‘qituvchining maqsadli harakatlar tizimi asosida o‘quvchilarni maqsadlariga erishishga yetaklaydigan ta’lim faoliyati hisoblanadi. Metodika bir qancha o‘qitish usullarini o‘z ichiga oladi, ular quyidagilar: an’anaviy, innovatsion va boshqalar. Chet tilini o‘rgatish metodologiyasi biron bir fanga bir tomonlama yo‘naltirishdan qochgan holda, o‘qitishning nazariy va amaliy masalalarini hal qilishda asosiy va tegishli fanlar ma’lumotlarini o‘z ichiga oladi . Metodologiya fan sifatida ta’lim jarayoniga asoslanganxolda, tarkibiy qismlarga bo‘linadi, bular: o‘qituvchining o‘quv faoliyati, mashg‘ulotlarni tashkil etish (maqsadlari, mazmuni, texnikalari, usullari va vositalari), talabalarning ta’lim faoliyati. Ta’lim nazariyasi - pedagogikaning bilim, ko‘nikma va

malakalarni o'zlashtirish qonuniyatlarini o'rganuvchi, shaxsni turli faoliyat turlariga, o'qitishning mazmuni, usullari va tashkiliy shakllariga, ta'lim jarayonining uning ishtirokchilariga ta'sirini o'rganuvchi pedagogika sohasi hisoblanadi. Nazariya ikki jihatda ko'rib chiqiladi: o'qitishning yondashuvlari va prinsplari. Prinsip - faoliyat turlarida pedagogik tushunchaning, idrok etilgan qonun va qonuniyatlarning, o'qitishning maqsadlari, mohiyati, mazmuni, tuzilishi haqidagi bilimlar, uni amaliyotning tartibga soluvchi normasi sifatida ishlatishga imkon beradigan instrumental ifodasidir. O'qitishga yondashuv - bu metodikaning asosiy kategoriyasi bo'lib, til tadqiqotchisi va til o'qituvchisining tilning o'zi va uni o'zlashtirish yo'llari haqidagi qarashlari haqida tushuncha beradi. U tilni o'rganish tizimining tarkibiy qismi bo'lib, tilni o'zlashtirishning eng umumiy lingvodidaktik asosi bo'lib xizmat qiladi va tanlangan bilim strategiyasi haqida tushuncha beradi, bu o'qitish usullari va turlarini tanlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. "Chet tillarni o'qitish metodikasi" kursi o'qitish jarayonida uchta asosiy komponentdan iborat. Komponent - o'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'quv jarayonida maqsadni amalga oshirishga qaratilgan harakatlar majmui bo'lib, o'quv jarayonining uchta asosiy komponenti bor. Ular quyidagilar:

1. O'qituvchining faoliyati.
2. Ta'lim olish shartlari.
3. Talabalarning faolligi.

O'qituvchi faoliyati o'z navbatida o'qituvchining shaxsiyati, o'quvchilarga munosabati, psixologik holatini o'z ichiga oladi. Ta'lim muhiti haqiqiy ta'lim sharoitlarini o'z ichiga oladi. Bunga o'qitishning uslubiy ishlari, o'qitish vositalari kiradi. Talaba faoliyati o'quvchining shaxsiyati, uning o'qish qobiliyati va boshqalarni o'z ichiga oladi. Ushbu uchta komponent birlashtirilishi va bir-birini to'ldirishi kerak. Qachonki, bu yagona yoki birlashtirilgan faoliyat bo'lsa chet tilini o'rgatish jarayoni shunchalik samarali bo'ladi. Shuning uchun bo'lajak o'qituvchi bu uch komponentni hech qachon unutmasligi kerak. Binobarin, «Chet tillarni o'qitish metodikasi» o'qitishning maqsadi, mazmuni, vositalarini o'rganuvchi fan bo'lib, chet tilini o'qitishda qo'llaniladigan vositalar yordamida o'quvchilarni tarbiyalashni ham

o'rgatadi. Agar metodikaning evolyutsiyasiga nazar tashlasak, o'qitishning o'ziga xos tendentsiyalari boshidanoq kuzatilgan. Shunga asoslanib, ikki xil usul paydo bo'ldi.

1. Umumiy usul
2. Individual usul.

Umumiy metod umumiy chet tilini o'qitish jarayonidagi qonuniyat va xususiyatlarni o'rganadi. Qaysi chet tilini tanlash, o'rganish yoki o'rgatish muhim emas, hohlagan chet tilini hisobga olish mumkin. Boshqacha aytganda, barcha chet tillari bo'yicha o'quv materiallarini tanlash, darsning turli bosqichlarida og'zaki va yozma ishlarning bog'lanishiga teng munosabatda bo'ladi. Masalan: Mamlakatimizda o'qitiladigan barcha G'arbiy Evropa tillari (ingliz, frantsuz, nemis) umumiy chet tillarini o'rganish jarayoni qoidalariga bo'ysunadi. Biroq o'qituvchi ma'lum bir tilning o'ziga xos xususiyatlariga tayansa, barcha chet tillarini o'qitishning umumiy qonuniyligi etarli emas. Shuning uchun u shaxsiy ta'lim usulidan foydalanadi. Individual metod - ma'lum bir tilga oid lingvistik va nutq hodisalarini o'rganadi. Misol uchun, faqat ingliz tilida uzluksiz fe'l shakli mavjud, faqat nemischa ot va sifatlarni moslashtiradi va faqat frantsuzcha diakritiklardan foydalanadi va artikllarni qisqartiradi. Bundan tashqari, bu tillarning fonetikasida ham farqlar mavjud. Bularga ingliz tilidagi triftonglar, nemis tilidagi qattiq diftonglar, frantsuzcha oldingi unlilar kiradi. U yoki bu chet tilining ritmlari va usullarida juda katta farqni ko'rish mumkin. Yuqorida sanab o'tilgan barcha hollarda har bir tilning o'ziga xos metodikasining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, o'quvchilarga chet tilini o'rgatish usullari, shakl va turlarini tezkorlik bilan ishlab chiqish davr talabidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR, (REFERENCES)

1. Shamahmudova, A. F. (2020). Interrogative Forms as an agent of Politeness Strategy. *JournalNX*, 6(06), 170-175.
2. Furkatovna, S. A., Jurabekovna, T. M., & Mamurjonovna, T. P. (2021). Gender aspects of politeness strategy in speech acts. *Linguistics and Culture Review*, 5(S2), 1488-1496.
3. Dilmurodovich, A. D., Bahodirovich, G. Y., Dustqobilovich, A. K., & Uchqun o'g'li, B. S. (2021). Comparative Features of Breast Cancer in Patients with and Non Suffering with Type 2 Diabetes Mellitus. *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630), 12, 68-70.
4. Furkatovna, S. A., & Gazanfarovna, B. D. (2022). VERBAL POLITENESS AS A STRATEGY OF APPROACH. *Journal of Positive School Psychology*, 1593-1599.
5. Dilmurodovich, A. D., Bahodirovich, G. Y., Dustqobilovich, A. K., & Uchqun o'g'li, B. S. (2021). Comparative Features of Breast Cancer in Patients with and Non Suffering with Type 2 Diabetes Mellitus. *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630), 12, 68-70.

I.A.KARIMOV ASARLARIDA MA'NAVIYATLI SHAXS QIYOFASINING YORITILISHI

Mamanazarov Solijon Sherzodbek o'g'li

A.Navoiy nomli davlat stipendiyasi sohibi (2023-2024-yy)

Muxammadiyev Jamshid Ilxom o'g'li

Nizomiy nomidagi TDPU Tarix fakulteti Milliy g'oya,
manaviyat asoslari va huquq talimi yo'nalishi talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada I.A.Karimov asarlarida ma'naviyatli shaxs qiyofasining yoritilishi haqida so'z yuritiladi. Asarlardagi komil inson, ma'naviyatli shaxs obrazi atroflicha taxlil etib o'rganiladi.

***Kalit so'zlar:** ma'naviyatli shaxs, demokratik huquqiy davlat, huquqiy madaniyat, ma'naviyat, tarbiya.*

2016-yilga qadar davlatimiz va Prezidentimizning ma'naviyat sohasidagi siyosatining amaliy ifodasi sifatida turli yo'nalishlarda qator ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda. Bu yo'nalishlardan eng diqqatga sazovor natijalarga erishayotgani milliy ta'lim-tarbiya tizimidir. "Ma'naviyat tarbiyaning eng ta'sirchan quroli ekan, undan oqilona foydalanish, bolalarimizning vatanparvarlik, rostguylik, haqsevarlikka o'rgatish kerak bo'ladi. Aslini olganda axloq – ma'naviyatning o'zagi", – deya saboq beradi birinchi prezidentimiz. Bu ma'naviy fazilatlarni shakllantiruvchi asosiy omillardan biri esa ta'lim-tarbiyadir. Oldimizga qo'ygan yuksak maqsadlarga erishish uchun bugungi O'zbekistonga erkin va ravon fikrlay oladigan, uning hayotida faol ishtirok eta biladigan, o'z so'zini aytishga qodir, o'z vazifa va burchlarini to'g'ri anglab

yetgan fuqarolar zarur. Bunday fuqaroni tarbiyalash zamon, taraqqiyotimiz talabi. Bunga qanday erishish mumkin?

Demokratik huquqiy davlatning bunyodkorlari huquqiy madaniyati, tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yish bilan maqsadimizga erisha olamiz. Mamlakatimizning har bir fuqarosi, talabalarimiz kabi yoshlar qomusimiz va boshqa qonunlarni o'rganib olishlari zarur. Konstitutsiyani bilmagan, puxta o'rganmagan kishi o'z haq-huquqlarini bilmaydi. Huquqini bilmagan odamning hayoti oxir oqibatda fojiali tus olishi mumkin. Buning yaqqol misoli birinchi Prezidentimizning har bir asarida ko'rishimiz mumkin: «Madomiki maqsadimiz aniq ekan, inson huquqlari umumxalq muhokamasida qabul qilingan Konstitutsiya himoyasida ekan, yurtboshimiz, – avlodlarimiz, farzandlarimiz kelajagiga xavf soladigan, millat sha'niga dog' tushiradigan xatti-harakatlar qaerdan paydo bo'layapti?» Bu o'rinda Prezidentimiz bunday qaltis xatti-harakatlarga qo'lgan kimsalarning qonunni bilmasligi, bilsa ham unga mensimasdan qarashi, hurmat qilmasligida ekanini, ularda huquqiy madaniyatning yo'qligi, yetishmasligini –bir necha marta o'z nutqida ham ta'kidlagan edi.

Ko'pincha kishilar huquq, qonun, burch, adliya kabi atamalarni, ba'zan tasodifan qonunbuzarlik qilib qonun oldida javobgarlik holatiga tushib qolganlaridagina eslaydilar. Nega qonunga ro'para bo'lding, deb so'ralganda «Bunday bo'lishidan xabarim yo'q edi» -deb ko'zini miltillatib, advokatdan najot kutib turadilar. Shuni yaxshi anglashimiz kerakki, qonunni bilmaslik hech qachon aybni yengillashtirmaydi. Biz qonunga mensimaslik bilan qarasaq, uni o'rganmasak, hurmat qilmasak shunday noqulay ahvolga tushib qolamiz. Qonunni bilish, hurmat qilish jinoyatdan, jinoiy olamdan yiroq yurishning birdan-bir yo'lidir. Qonunga hurmat inson madaniyati va ma'naviyati bo'lib qolganda, bunday jamiyatni boshqarish ham, adolatni qaror toptirish ham oson bo'ladi. Mana shuning uchun ham huquqiy savodxonlikni yuqori darajaga ko'tarish tarbiya borasidagi asosiy ishlarimizdan biri bo'lib qolmog'i kerak. Huquqiy madaniyatni, savodxonlikni rivojlantirmay turib qonunni mensimaydigan buzg'inchilar, o'g'ri va yulg'ichlar, tovlamachilar, laganbardorlar, axloq-odobsizliklar, qo'rqoqlar, qotilliklar kabi salbiy holatlarning oldini olish, tugatish anchayin mushkul

ish. Bunday qonunbuzarlardan avvalo odamlarni, jamiyatni himoya qilish zarur. Yurtboshimiz Islom Karimov soʻzlari bilan aytganda: «...davlat davlatligini qilmoqchi boʻlsa, fuqaroni oʻz panohiga olishi zarur...Boshqacha aytganda, davlat har bir fuqarosini himoya etishi, unga huquqiy yordam berishi kerak. Qonun oldida barcha barobar. Mamlakat qonunlariga jaʼmi fuqaro - yoshidan, millatidan, irqi, dinidan qatʼi nazar – barcha barobar boʻysunmogʻi farz». Yana Islom Karimov soʻzlari bilan aytganda, qonun qogʻozda kelib ketsa, jamiyat aslo ravnaq topmaydi, qonun amalda boʻlishi lozim. Yurtboshimizning “Biz dunyoda hech kimdan kam boʻlmagan jamiyat quramiz” mavzusidagi mahalliy va xorijiy muxbirlarning savollariga bergan javobida shunday deydi: “Shuni aytib oʻtishim kerakki, dunyoda bozor iqtisodiyoti qanday qonunlarga asosan rivoj topayotgan boʻlsa, bizlar ham ulardan kam boʻlmagan huquqiy poydevorni qurdik. Endi ana shu qonunlarni hayotga izchil tadbiiq qilishimiz kerak. Bu masalada hali qiladigan ishlarimiz koʻp”.

Endi demokratiyani qanday tushunish kerakligini bayon etish vaqti yetdi. Demokratiya - ongli fikrlash, har qanday ehtirolardan holi, aql-idrokka tayangan munosabat. Demokratiya - yuksak maʼnaviyat va ichki madaniyatni oshkor etish imkoniyati; demokratiyani anglash shaxsning barcha uchun birday zarur boʻlgan qonunlarga toʻla rioya etish; aniq tartib-intizomlarga tayanib yashash salohiyati; demokratiya bizga inson haq-xuquqlarini himoya qiladigan, umumxalq va umumdavlat manfaatlarini himoya qiladigan barchaning qonunlarga boʻysunib yashashini oʻrgatadi va talab etadi. Aksincha boʻlgan jamiyatda boshboshdoqlik, parokandalik avj oladi va oqibatda bunday jamiyat halokatga uchraydi. Shuning uchun ham Prezidentimiz mamlakatimizning siyosiy va davlat qurilishi sohasidagi xususiyatlarini koʻrsatib berar ekan, «siyosiy hayotning barcha sohalarini erkinlashtirish, jamiyatda demokratiya, fikr va vijdon erkinligi tamoyillarini, gumanizm gʻoyalari va umuminsoniy qadriyatlarini qaror toptirish» ni muhim vazifa sifatida belgilab berdi.

Bugungi kunda maʼnaviyat masalasi ijtimoiy hayotimizning asosiy masalalaridan biriga aylanib qoldi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq bu masalaga katta va uzluksiz eʼtibor berib kelinmoqda. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning har bir nutqi va maʼruzalari, maqola va asarlarida yuksak maʼnaviyat

kelajak poydevori ekanligi qayta-qayta ta'kidlanmoqda. «Tan olish kerakki, - deb uqtiradi Islom Karimov, - yuksak ma'naviy tushunchalar bilan yashashga harakat qiladigan odamning bugun ham ko'p mashaqqatlarni, og'ir sinov va to'siqlar, muammolarni yengib o'tishiga to'g'ri keladi»

Erksevar xalqimiz mustaqillik tufayli o'z yeri, o'z tili, o'z diniga ega bo'ldi; milliy g'ururi, izzat obro'si tiklanib, endilikda qadriyatlarimiz, ma'naviy merosimizdan bahramand bo'lmoqdamiz. Qudratli kelajagi buyuk davlat, buyuk ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar qudratli ma'naviyat zamirida vujudga keladi. Har bir alohida shaxsning va butun millatning ma'naviy kamoloti orqali demokratik huquqiy davlat barpo etiladi. Davlatimiz rahbari shu bois ham ma'naviyat va ma'rifatga doimo katta e'tibor berib kelmoqda. Shu oqilona siyosat tufayli xalqimiz o'zligini tanib, o'z shajarasini idrok etmoqda, tarix oldidagi vazifasini anglab olmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov.I.A. "Istiqlol va ma'naviyat"- T.: "O'zbekiston",1994
2. Karimov.I.A "Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari"-T. "O'zbekiston"-1998
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T.: "O'zbekiston", 1999
4. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. // Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. Asarlar, 8-jild. T.: " O'zbekiston", 2000
5. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. Asarlar, 10 –jild. – T.: "O'zbekiston", 2002.
6. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: "Ma'naviyat", 2008
7. Nigmanova Umida Baxramovnaning "Uzluksiz ta'lim tizimida shaxs ma'naviyatini shakllantirishning o'ziga xos jihatlari" mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi – TDPU-2013
8. Mamanazarov.S.Sh Yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalash mexanizmlari, uslublari, shakl va vositalari ERUS jurnali-17-maxsus son 229-232

НАПИСАНИЕ И ПРАВОПИСАНИЕ В СТАРОФРАНЦУЗКОМ ЯЗЫКЕ

Турсунова Мадина

магистрант ФерГУ

2-курс лингвистики французского языка

АННОТАЦИЯ

В этой научной статье выражено написание и правописание в старофранцузском языке и его употребление в старофранцузках письменных источниках. В статье представлено употребление написание и правописание старофранцузского языка с примерами.

Ключевые слова: орфография, звук, аббревиатура, диакритические знаки, графема, иероглифы, каллиграфические шрифты.

ABSTRACT

This scientific article expresses the spelling in the Old French language and its use in Old French written sources. The article presents the use of writing and spelling of Old French with examples.

Key words: spelling, sound, abbreviation, diacritics, grapheme, hieroglyphs, calligraphic fonts.

ВВЕДЕНИЕ

Было бы преувеличением сказать, что в старофранцузском нет «орфографии». Каждое слово не имеет фиксированного написания, и от региона к региону, от писца к писцу, даже от строки к строке одно и то же слово пишется по-разному. Однако средневековые варианты написания не случайны.

Писцы использовали, казалось бы, простой принцип: записывали все, что слышали, как можно более прямо, используя латинский алфавит, который был совершенно неподходящим, потому что он не был очень богат графемами. Действительно, переходя от вульгарной латыни к старофранцузскому, многие фонемы эволюционировали, порождая новые звуки, для которых не было предусмотрено никакой буквы.

ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ

damaged, IL-1 β causes activation of all cell types, participating in the formation of a local inflammatory reaction (fibroblasts, macrophages and blood leukocytes). IL-1 β has stimulating effect on connective tissue metabolism by stimulating fibroblast proliferation. Cytokine genes have a high degree of polymorphism. Since cytokines are mediators of inflammation, the study of genes that control their activity is a promising task in studying the mechanisms of development, the course of many diseases, and identifying predisposition to them. It is known that the 511C/T polymorphism of the IL-1 β gene (rs16944) plays an important role in the functioning of immune system and may be one of the main genetically due to the causes of pronounced dysregulation of inflammation, it has a significant impact on the general features of the course of the inflammatory response in periodontal tissues in patients [10].

CONCLUSION. The problem of studying molecular genetic criteria leading to gum recession in children as a multifactorial pathology is a very urgent task. In this regard, the study of gene polymorphism would make it possible to clarify the predisposition to gum recession, establish a connection between genetic factors and the causes of its occurrence, and also, in the future, develop individual programs for diagnosis, prevention and improvement of methods for complex treatment of this disease.

REFERENCES

1. Баранов В.С., Баранова Е.В., Иващенко Т.Э. Научные основы предиктивной медицины. Молекулярно-биологические технологии в медицинской практике // Сборник научных трудов / Под ред. А.Б.Масленникова. Вып. 4. Новосибирск: Альфа Виста, 2003. 252 с
2. Пузырев В.П., Степанов В.А., Фрейдин М.Б. Молекулярные основы распространенных мультифакториальных заболеваний. М.:Академкнига, 2005. [Puzyrev V.P., Stepanov V.A., Freydin M.B. Molekulyarnye osnovy rasprostranennykh mul'tifaktorial'nykh zabolevaniy. Moscow: Akademkniga; 2005. (In Russ.)]

3. Пузырев В.П., Фрейдин М.Б, Кучер А.Н. Генетическое разнообразие народонаселения и болезни человека. М.: Печ. мануфактура, 2007. 319 с. [Puzyrev V.P., Frejdin M.B, Kucher A.N. Geneticheskoe raznoobrazie narodonaseleniya i bolezni cheloveka. Moscow: Pech. Manufaktura; 2007. 319 p. (In Russ.)]
4. Сабиров Э.Э., Боймурадов Ш.А. Современный взгляд этиопатогенеза и лечения рецессии десны // *Stomatologiya*, 2021. – №2. – С. 25-28
5. Сабиров Э.Э., Боймурадов Ш.А. Механизмы возникновения рецессии десны при табак курении // *Ўзбекистон врачлар ассоциациясининг бюллетени*, 2020. – №3. – С.96-100
6. Sabirov E.E., Boymuradov Sh.A., Sultanova R.K. Modern view of the etiopathogenesis and treatment gum recession // *International journal of psychosocial rehabilitation*. – London, 2020. – Vol. 24. – Issue 06. – P. 18058-18068.
7. Боймурадов Ш.А., Сабиров Э.Э. Причины возникновения рецессии десны при табакокурении // *Матеріали IV Міжнародної науково-практичної конференції Харків 12/13.03.2020*. – С. 521
8. Кулаков А.А., Зорина О.А., Борискина О.А. Генетические факторы в развитии заболеваний пародонта // *Российский стоматологический журнал*. 2011. № 1. С. 48–51. [Kulakov A.A., Zorina O.A., Boriskina O.A. Genetic factors in the development of periodontal diseases. *Rossiiskii stomatologicheskii zhurnal*. 2011; 1: 48–51. (In Russ.)]
9. Wings TY Loo., Chang-bin., Lan Jun Bai., Yuan Yu., Y-din Dou., Min Wang., Hao Liang., Mary NB Chung., Ching-le Li., Ye Tian., Liu Qing. Gene polymorphism and protein of human pro- and antiinflammatory cytokines in Chinese healthy subjects and chronic periodontitis patients. *J. Transl Med*. 2012; 10 (Suppl. 1): 1–8.
10. Jankovic S., Aleksic Zoran M, Dimitrijevic B., Camargo P. Impact of interleukin 1 gene polymorphism and smoking on long-term stability following gingival recession treatment. *Int J Periodontics Restorative Dent*. 2013; 33 (1): 16–23.

YAPONIYADA TA'LIM TIZIMIGA IXTISOSLASHTIRILGAN GAZETALAR

Nuridinova Toxiraxon Shokirxonovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti magistranti

ANNOTATSIYA

Maqolada Yaponiyadagi ta'lim tizimiga ixtisoslashgan ayrim ommaviy axborot vositalari, xususan, gazetalarda nashr etilgan materillar, nashrlarning o'ziga xosligi ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim, fanlar majmuasi, ota-onalar, o'qituvchilar, rubrika, ommaviy axborot vositalari, gazeta, maqola, muallif.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются некоторые средства массовой информации, в частности материалы, публикуемые в газетах, специализирующихся на системе образования Японии.

Ключевые слова: образования, комплекс наук, родители, учителя, рубрика, средства массовой информации, газета, статья, автор.

ANNOTATION

This article will discuss the Japanese mass media which are specialized in educational purposes especially, newspapers and their features

Key words: education, subjects comlexicity, parents, teachers, rubrics, mass media, newspaper, article, author.

Bugunga qadar Yaponiya ta'lim tizimi o'zining samaraliligi va samaradorligi bilan dunyoning boshqa hududlaridagi ta'lim jarayonidan farq qiladi, boisi aniq rejalashtirilgan, bolaning yosh va psixologik imkoniyatlari asosida tashkillashtirilgan hamda inson omili asosida shakllantirilganligi o'zining samarasini bermoqda. Juda ko'p davlatlarning ta'lim tizimi aynan yapon modeli asosida yo'lga qo'yilgan.

Yaponiyada ta'limga, o'quvchining aqliy va jismoniy sog'lom voya yetishi davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi sababli, barcha resurslar shu maqsadga yo'naltirilgan. Aynan, Yaponiya ommaviy axborot vositalari qatorida ta'lim tizimi va uning ichki hayoti bilan bog'liq gazeta, jurnal va teleradioko'rsatuvlar, internet saytlari muntazam faoliyat olib boradi. Eng yirik korporatsiyalardan biri, NHKning alohida bo'limi ta'limga bag'ishlangan hamda ushbu tizimning ichki hayoti, o'qituvchi va o'quvchilarning samaradorligi, ota-onalarning ta'lim hayotidagi ishtiroki muntazam kuzatiladi va xulosalar ta'lim vazirligiga yuboriladi. 1950 yildan beri NHK (Yaponiya davlat teleradio uzatish kompaniyasi) muntazam ravishda maktab o'quvchilar ga mo'ljallangan turkum ko'rsatuv va radioeshittirishlarni alohida yosh toifasiga moslashtirilgan holda tayyorlab uzatib keladi.

Bundan tashqari, alohida maktab hayotini yorituvchi ixtisoslashgan gazeta va jurnallar mavjudki, bir necha yillardan beri ta'lim islohotlari, o'quvchi va o'qituvchilarning faoliyati, muammolar va ekspertlarning izohi, ota-onalarning fikrini faol yoritib boradi. NHK news, "The Japan times" (English)Shulardan bittasi, "The Kyoiku Shimbun English" gazetasi aynan ta'lim tizimini yoritish uchun mo'ljallanga davriy nashr bo'lib, 1961 yil mart oyidan buyon faoliyatini olib boradi. Dastlab, "The Bell News" nomi bilan nashr etilgan gazeta, keyinchalik milliy ruhni aks ettirish maqsadida yuqorida keltirilgan nom bilan oradan bir yil o'tgandan keyin faoliyatini davom etadi. Gazeta 1976 yilga qadar uch kunda nashr etilgan, biroq ta'limdagi islohotlarning ortishi, fan va texnika imkoniyatining ortishi gazeta sahifasini kamaytirish va tiraj, davriylikini tezlashtirishga yo'l ochdi va shu yildan boshlab gazeta avval kunora keyinchalik har kuni ertalab nashr etilib, gazetxonlar qo'lga yetib boradigan bo'ldi. Gazetaning alohida xususiyati shundan iborat ediki, o'qituvchilar va ota-onalarning doimiy ta'lim tizimi haqidagi fikrlari va takliflari chop etilar, kamchiliklar va o'quvchilar duch kelayotgan muammolar, fanlarning o'qitilishi, ta'lim muassasasidagi jarayonlar hech bir bosimsiz to'g'ridan to'g'ri chop etilar, ta'lim tizimi mas'ullariga yetkazilar edi. Ushbu an'ana bugunga qadar saqlangan bo'lib, ayni vaqtda nafaqat an'anaviy shakl balki onlayn sahifa orqali biror to'siqsiz gazeta

o'quvchilarining, ayniqsa, ota-onalarning munosabatiga alohida sahifa yaratilgan. Balki, shu bois farzandlari ta'lim muassasasiga qatnaydiga ota-onalar ushbu gazetani sotib olishga qiziqadilar.

Gazeta sahifalarida keltirilayotgan maqolalar, tahlillar va ota-onalar, o'qituvchilarning munosabatini asosiy yirik planda beriladi. Gazeta ikki tilda chop etilishi bois biz asosiy e'tiborni ingliz tilidagi maqolalar tahliliga qaratdik, chunki gazeta har kuni ertalab yuz ming nusxadan ziyod 8 betdan toki 24 betgacha chop etiladi. Eng ko'p rubrikalar turkumiga "General studies" ("Umumiy ta'lim") va "Subject" ("Fanlar") bo'limlarini oladigan bo'lsak eng ko'p tanqidiy, tahliliy va fanlar majmuasining tizimli tahlili berilgan bo'lim, biror fan o'qitilishi yoki sinf hayotidagi muammo olib chiqiladi va mutaxassis, ota-ona va jamoat fikri beriladi. Ushbu rubrikalar gazeta xodimlarining nuqtayi nazaridan kelib chiqib, o'zgartirib boriladi. Masalan, 2021-yilda bir necha marotaba gazetaning "Do we need more subjects?" tahliliy chiqishlardan keyin, ota-onalarning taklifi bilan o'tilayotgan dunyo qadimiy tarixi fani zamonaviy dunyo qiyofasi faniga o'zgartirildi. Albatta, bu ko'pgina sho-shuvlarga sabab bo'lib, boshqa yetakchi "The Yomiuri Kodomo Shimbun" gazetasida tahlil etildi, chunki ushbu nashr ham ta'lim yo'nalishidagi eng kata nashr hisoblanadi.

Yaponiya ta'lim tizimining o'ziga xosligi shundaki, bolalar elementary (boshlang'ich) sinflardan oq gazeta o'qishni boshlaydilar. Ular asosan bolalar uchun mo'ljallangan gazetalarni o'qiydilar hamda mediasavodxonlik darslarida tahlil qiladilar. Muallif Uka Tamaning fikriga ko'ra, maktab o'quvchilari bufunji kunda Kanji dasturida o'qishga qiynalmoqda. Ushbu fikr gazeta sahifasida berilishi bilan birinchi kunning o'zida ellik mingdan ziyod maktab oqituvchilari va ota-onalar fikrlarini bildirib, albatta ushbu alifboda oqishi shartligi, bolalar milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganishi lozimligi haqidagi mulohazalari chop etildi.

Keyingi gazeta "The Yomiuri KODOMO Shimbun" har payshanba nashr etiladigan gazeta bo'lib, asosiy yo'nalishi boshlang'ich ta'lim o'quvchilari uchun mo'ljallangan. Ushbu gazeta 2011-yili yirik yapon mediakorporatsiyasi "Yomiuri

Shimbun” ta’sisligida vujudga kelgan ko‘ngilochar rangli, 20-bet hajmida, yapon bolalarining o‘qish savodxonligini oshirish uchun qaratilgan. Gazeta turli rubrikalardan iborat, ularning ichiga o‘quvchilar uchun fanlarni oson o‘rganishlari uchun qaratilgan qiziqarli metodlar, o‘yinlar va ijodkorlikka asoslangan ta’limiy texnikalar kiradi. Shuningdek, gazetada fanlarning imtihonida duch keladigan muammolar xususida qator tahliliy maqolalar va chiqishlar beriladiki, o‘quvchilarning qiziqishi inobatga olinadi. Tiraji bir necha yuz mingni tashkil etadi va haftalik nashrdan tashqari, gazetaning onlayn versiyasi allaqachon ko‘pchilik bolalar tomonidan foydalaniladi, hatto uning mobil ilovasi o‘quvchilar uchun kundalik darslar va vazifalarda duch keladigan qiyinchiliklarni mutaxassislar yordamida tahlil qilib berishda eng kata yordamchi.

Demak, Yaponiyada ta’limga ixtisoslashgan 30 dan ziyod ommabop yirik tirajda chop etiladigan gazetalar mavjud bo‘lib, umumiy olib qaraganda barchasining yo‘nalishi yapon ta’lim tizimining rivojlanishiga amaliy ko‘mak berish hamda savodli, ijodkor va saviyali avlodni tarbiyalashga hissa qo‘shishdir. Buni yuqorida nomi keltirilgan ayrim nashrlar misolida ko‘rib chiqdik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Nihon-jinlar-gazetxin xalq/ B. Alimov.-“Hurriyat”gazetasi,2018.-21-avgust
2. Utilization of Educational mediain Japanese schools/Kodaira Sachiko.-2021
3. <https://www.kknews.co.jp>. 2020-2022
4. <https://wwwinfo.yomiuri.co.jp.english>
5. <https://www.japan.go.jp.education>

INTERNET AXBOROT-QIDIRUV TIZIMLARINING ISHLASHINI MODELLASHTIRISH VA TAHLIL QILISH

Saidova Fazilat Muzaffarovna

Toshkent Amaliy fanlar universiteti, o'qituvchi

sfazilat@bk.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu keltirilgan maqolada veb-sayt qidiruv tizimlarini optimallashtirish maqsadlari, vazifalari va natijalarga erishish usullari bo'yicha qisqacha tahlillash jarayoni olib borilgan. Veb-sayt qidiruv tizimlari ishlashida b'azi bir kamchilik va yutuqlari tahlili olib borilgan. Shuningdek qidiruv tizimlar saytlarni bir nechta omilga qarab baholashi ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: veb-sayt, qidiruv tizimlari, veb-resurslari, index, qidiruv algoritmlari, relyatsion model.

ANNOTATION

This article provides a brief analysis of website search engine optimization goals, objectives, and ways to achieve results. An analysis of some of the shortcomings and successes of the website search engines. It is also considered that search engines rate sites based on several factors.

Keywords: website, search engines, web resources, index, search algorithms, relational model.

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлен краткий анализ целей, задач и способов достижения результатов поисковой оптимизации веб-сайта. Проанализированы некоторые недостатки и успехи поисковых систем сайта. Также считается, что поисковые системы оценивают сайты по нескольким факторам.

Ключевые слова: веб-сайт, поисковые системы, веб-ресурсы, индекс, алгоритмы поиска, реляционная модель.

KIRISH

Axborot-qidirish tizimlari Internet - bu tarmoqning keng axborot makonida harakat qilish imkoniyatini beruvchi vosita. Bugungi kunda ko‘plab foydalanuvchilar Lycos, Altavista yoki OpenText qidiruv xizmatlaridan foydalanib, kerakli tarkibni topadilar. Qoida tariqasida, so‘rovlarga javoban, tizimning qaroridan kech chiqqan holda foydalanuvchi ehtiyojlarini eng yaxshi qondiradigan axborot manbalariga havolalar ro‘yxati beriladi. Ro‘yxatlarda har bir so‘rov so‘zi uchun topilgan hujjatlar soni va ro‘yxatdagi har bir hujjat uchun shartli darajalari mavjud. Tizimlar ushbu darajalarni qanday belgilaydilar va umuman hujjatlarni qanday qidirishni ko‘rib chiqamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Qidiruv tizimlarining tahlili bo‘yicha bo‘yicha yaratilgan o‘quv qo‘llanmalardan foydalanildi. Ulardan mavzuga oid muhim fikr-mulohazalar, xulosalar keltirildi.

NATIJALAR

Bugungi kunda ixtisoslashgan WWW ma’lumotlar bazalarini ishlab chiquvchilarni tashvishga solayotgan yana bir muammo - bu veb-sayt navigatsiya grafikalarining tuzilishi, ularni sozlash va sahifaning hayotiy sikli. Bugungi kunda korporatsiya veb-serverining kelajagi va uni miqyoslash (masshtablashtirish) yoki optimallashtirish strategiyasini rejalashtirish haqida kamchilik odamlargina o‘ylashadi, ammo ertami-kechmi bu savollarning barchasi paydo bo‘ladi va veb-serverlarni ishlatish, ularga o‘rnatilgan axborot qidirish tizimlari (AQT) ni modellashtirish va tahlil qilish bo‘yicha to‘plangan tajribadan foydalanib, ularni hal qilish uchun zamin hozirdanoq tayyorlash mantiqan to‘g‘ri bo‘ladi. Biz hozir serverga so‘rovlar statistikasini tahlil qilish asosida tizimning gipermatnli grafikasini tuzatish tartibini tavsiflashga urinish haqida so‘z yuritamiz.

Bunda siz sahifalarni o‘zi amalga oshirishning vizual vositalarining samaradorligini baholashingiz mumkin.

"O‘rgimchak" AQT tavsifida (World Wide Web-da ma’lumoti indekslaydigan kam sonli mahalliy tizimlardan biri), quyidagi ibora mavjud edi: "Bizdan tizimning

batafsil tavsifini kutmang, chunki u mualliflik huquqi mavzusidir, biz unga qo'shilmaymiz." Umid qilamizki, mualliflar tizimni amalgaoshiradigan kompyuter kodlariga bo'lgan huquqlarini nazarda tutgan. Shunga qaramay, shuni ta'kidlash kerakki, hatto Lycos va Altavista singari Internet gigantlari ham o'z tizimlarining asosini tashkil etadigan nazariy asoslarning sirini yashirmaydilar. Va, aslida, nimani yashirish kerak, agar AQT sohasidagi asosiy kashfiyotlarning aksariyati indeksatsiya lug'atini boshqarish cheklangan bo'lsa, bu 70-yillarga to'g'ri keladi. INIS, INSPEC, STN, NTIS, MEDLAR kabi tizimlar yaxshi tanilgan va VINITI ning mavhum ma'lumotlar bazalari ham mashhur emas. Ushbu tizimning ishlash tajribasi zamonaviy axborot qidirish tizimlari va Internet xizmatlarining asosini tashkil etdi. Ularning rivojlanish tarixi birinchi tarqatilgan AQT tarmog'i bo'lgan WAIS tizimidan boshlandi.

MUHOKAMA

AQT ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlaridan ancha eski - ular raqobatdan ishonchli tarzda omon qolishdi va global kompyuter tarmoqlarining resurslariga ta'sir ko'rsatadigan ekologik mavqeida muvaffaqiyatli rivojlanishda davom etmoqdalar. WWW ga bag'ishlangan konferensiyada Yuwono va Li tadqiqotlari va AQT arxitekturasiga asoslangan shunga o'xshash tizimlarni rivojlantirish bo'yicha takliflar taqdim etildi. Bunday konservatizmning bir necha sabablari bor. Birinchidan, ushbu tizimlar qat'iy belgilangan hujjat tuzilmasiga ega bo'lib, u keng tarqalgan ISS - Z.3950 ishlab chiquvchilari uchun standartda to'liq tavsiflangan. Aytgancha, ushbu standart o'zining potentsial imkoniyatlari jihatidan shunchalik kengki, mavjud tizimlarning hech biri uni to'liq amalga oshirmaydi. Va agar hujjatning tuzilishi ma'lum bo'lsa, unda, shunga ko'ra, ko'plab aloqalardan voz kechish kerak emas, dasturni ma'lumotlarning relyatsion modeli doirasiga moslashtirish - bu yerda ushbu model tizimni amalga oshirish nuqtai nazaridan ham, uning boshqarish nuqtai nazaridan ham samarali bo'lmaydi. Ikkinchidan, qidiruv ma'lum bir ma'lumot olish tilidagi jummalarni axborot tizimining so'rovlariga aylantirishga asoslangan. Til atamalari, so'z shakllari yoki barqaror so'z birikmalariga asoslanishi mumkin, ularning umumiyliги odatda

tizimning so‘z boyligi deb ataladi. Amaliyot ko‘rsatganidek, bu yerda eng yaxshi yechim teskari ro‘yxatlardir. Bunday holda, siz bitta ro‘yxat darajasidan yuqori bo‘lgan boshqa ro‘yxatlarni tuzishingiz mumkin va hokazo. Nima uchun bu usul boshqalarga, masalan, xeshga qaraganda afzalroq? Kamida ikkita sabab bor: so‘zlar to‘plamida yaxshi xeshlash algoritmini yaratish juda qiyin - "bo‘shliqlar" juda ko‘p yoki ro‘yxatlar juda katta, ammo asosiysi, bu talab qilinmaydi - lug‘at doimiy ravishda emas, vaqti-vaqti bilan yangilanadi.

XULOSA

Internet-axborot resurslari lug‘atini yaratishda, tarmoqdagi nashrlarning tez sur‘atlarda o‘shishi va skanerlash dasturlari tomonidan tarmoqning doimiy so‘rovi tufayli so‘nggi tezisni biroz ko‘proq urintirishga to‘g‘ri keladi. Ammo hamma narsa unchalik ham oddiy emas - xuddi shu so‘rovlar tillari va axborot massivlari oqimlari modellari, ko‘p yillar davomida ma‘lumot olish nazariyasida qo‘llanilgan va aytishim kerakki, o‘zlarini yaxshi isbotladilar.

ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Паук - Описание системы. RASER Company. 1995.
2. Kahle, B., and Medlar, A., "An Information System for Corporate Users: Wide Area Information Servers," Technical Report TMC-199, Thinking Machines, Inc., April 1991.
3. Budi Yuwono, Dik L.Lee. Search and Ranking Algorithms for Locating Resources on the World Wide Web. In Proceedings of the Forth International Conference on the World Wide Web, New York, November, 1995.
4. Koster, M., "ALIWEB: Archie-like Indexing in the Web," Computer Networks and ISDN Systems, 27(2), pp. 175-182, 1994.
5. Martin Bartschi. An Overview of Information Retrieval Subjects. IEEE Computer, # 5, 1985, p. 67-84

JAHON OTIN UVAYSIY HAYOTI VA ADABIY MEROSI XUSUSIDA

G'ozibekova Shoir

Jizzax davlat pedagogika universiteti
o'zbaek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada Jahon otin Uvaysiy hayoti va ijodi, shuningdek shoironing adabiy merosi xususida so'z yuritilgan. Adibaning ayrim asarlari tahlili misolida uning badiiy tasvir hamda so'z qo'llash mahorati tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: *Muxammas, musaddas, murabba, chiston, doston, manzuma ijod, g'oyaviy mavzu, shoir, xalfa.*

ABSTRACT

The article talks about the life and work of Jahan Otin Uvaisi, as well as the literary heritage of the poetess. Analyzing some of Adiba's works, his artistic image and word skills were studied.

Key words: *Mukhammas, musaddas, murabba, chiston, epic, manzuma creation, ideological theme, poetess, khalfa.*

АННОТАЦИЯ

В статье рассказывается о жизни и творчестве Джахана Отина Увайси, а также о литературном наследии поэтессы. Анализируя некоторые произведения Адибы, изучались его художественный образ и словесные навыки.

Ключевые слова: *Мухаммас, мусадды, мурабба, чистон, эпос, создание манзумы, идейная тема, поэтесса, халфа.*

KIRISH

Jahon otin Uvaysiy (1780—1845) atoqli shoira, o‘zbek shoirlari murabbiysi Jahonotin Uvaysiy Marg‘ilonda tug‘ilgan. Otasi Siddiq bobo ikki tilda she‘rlar yozgan. Onasi Chinnibibi otinoyi bo‘lib, akasi Oxunjon hofiz sifatida mashhur edi. Uvaysiyning Hojixon ismli kosibga uzatishgan, biroq shaxsiy hayoti quvonchli kechmagan. U Nodira bilan hamdardlikda Qo‘qonda xon saroyida yashay boshlaydi. 65 yoshligida Marg‘ilonda vafot etadi¹.

Uvaysiy oilada xatsavodini chiqarib, avval xalfa, so‘ngra onasining yonida maktabdorlik qilgan. Akasi Oxunjon hofizdan she‘riyat ilmini o‘rgangan, tez orada shoira, otin sifatida tanilgan. Uvaysiy ayniqsa, aruzni, muammo (she‘rda fikrni yashirib ifodalash) san‘atini mukammal egallagan. Qo‘qon adabiy muhiti bilan yaqinlashib, mushoiralarda qatnashgan. Saroyda Nodira va boshqa xotin-qizlarga she‘riyat ilmidan dars berib, ustozlik qilgan. Dilshod otinning ma‘lumot berishicha, Uvaysiy Nodira bilan Konibodom, Xo‘jand, O‘ratepa, Toshkent, Andijon kabi shaharlarga borgan. 1842 yilda Buxoro amiri Nasrullaxon Qo‘qonni egallagach, Marg‘ilonga qaytib, umrining oxirigacha shu yerda yashagan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Uvaysiy 4 devon tuzganligi ma‘lum. Lekin bu devonlarning asl qo‘lyozmalari topilmagan. Uvaysiy mumtoz o‘zbek she‘riyatining barcha janrlarida ijod qilgan. Navoiy, Fuzuliy va boshqa ijodkorlarning asarlariga muxammaslar bog‘lagan. Shoiraning adabiy merosida 269 g‘azal, 29 muxammas, 55 musaddas, 1 murabba, chiston, 3 doston, tugallanmagan bir manzuma bor. Ijodining g‘oyaviy mavzu doirasi teran va ko‘p qirrali. Shoira adabiyotda taraqqiyparvar namoyandalarning qarashlari asosida maydonga kelgan inson takdiri, shaxs erki va ma‘rifatparvarlik g‘oyalarida latif va dilkash asarlar yaratgan, asarlarida insonni e‘zozlash, odamlarni tabiat va xayet nozne‘matlaridan bahraMand bo‘lishga undash, do‘stlik, vafo va sadoqat haqidagi ulug‘vor niyatlarini Qur‘on oyatlari, hadislar va tasavvufiy talqinlar bilan asoslagan

¹ <https://tafakkur.net/jahon-otin-uvaysiy.haqida>

holda ijodiy barkamollikka erishgan. Uning she'rlarida tariqatning talab va qoidalariga taallukli bo'lgan talqinlar ko'p uchraydi:

Fano mardumlarini sirridin hech kimsa yo'q ogoh,
Qabih guftor mardumdin ko'ngul dog' o'ldi, dog' o'ldi.

Uvaysiy o'z asarlarida yuksak odamiylikni, shu odamiylikni qalb to'rida avaylovchi vafodor yorni ulug'laydi, uni Quyosh bilan qiyos qiladi. Quyosh har tong ufqdan bosh ko'tarib, o'zining otashin nuri bilan olamga, odamlarga o'z mehr va shafqatini sochadi. Shoira yor va oftob tashbihlaridan qarshilantirish san'ati orqali eng go'zal tuyg'ular silsilasini yaratadi. Uning lirik qahramoni mushohadakor donishmand, vafoli oshiq. Uning anor haqidagi mashhur chistoni o'zining muhim mazmuni va yuksak badiiyligi bilan shoira ijodining yorqin bir sahifasi sifatida ko'zga tashlanadi:

Bu na gumbazdur, eshigi, tuynugidin yo'q nishon,
Necha gulgunpo'sh qizlar manzil aylabdur makon?
Tuynugin ochib, alarning holidan olsam xabar,
Yuzlarida parda tortug'liq tururlar, bag'ri qon¹.

Uvaysiy hayotlik davridayoq nafis lirikasi bilan mashhur bo'lgan va zamondoshlarining e'tiborini qozongan.

NATIJALAR

Shoiraning birgina "Sog'indim" g'azalini tahlil qilish orqali muallif ijodining betakror jihatlarini ko'rishimiz mumkin.

SOG'INDIM

Bukun, ey do'stlar, farzandi jononimni sog'indim,
Gado bo'lsam ne ayb, ul shohi davronimni sog'indim.
Musofirman, g'aribman, bekas-u ham benavodurman,
Vujudim dardga to'ldi, emdi darmonimni sog'indim.
Tilimning zikri-yu, ko'nglimni fikri, yaxshi farzandim,
Azizim, yolg'izim, davlatli sultonimni sog'indim.

¹ https://uz.wikipedia.org/wiki/Jahon_otin_Uvaysiy

Kecha-kunduz yo‘lig‘a muntazirdurman, tikarman ko‘z,
Kelib holim so‘ribon ketsa, mehmonimni sog‘indim.
Nasibin uzmani Tangri, ilojin topmag‘ay kelsa,
Onam deb bo‘lg‘usi bag‘ri qizil qonimni sog‘indim.
Qorong‘u bo‘ldi olam ko‘zima ushbu judolikdin,
Ko‘z-u ko‘nglum ziyosi mohi tobonimni sog‘indim.
Mani bekas Uvaysiy, yig‘lagayman ro‘z-u-shab tinmay,
Uyimning ziynati, ko‘z ravshani, xonimni sog‘indim¹.

“Sog‘indim” she‘ri shoiraning tarjimayi holi bilan bog‘liq. Amir Umarxon vafotidan keyin Qo‘qon taxtiga o‘g‘li Muhammad Alixon o‘tiradi. Uvaysiyning o‘g‘lini sarbozlikka oladi. Qashqar urushiga jo‘natilgan o‘g‘li Muhammadxonni sog‘inib, o‘rtanib “Sog‘indim” g‘azalini yozganini, g‘azaldagi “Gado”, “Shohi davron” so‘zlari orqali biz shoiraning intizorlik tuyg‘ularini his qilganini ko‘rishimiz mumkin.

“Vujudim, dardga to‘ldi, emdi darmonimni sog‘indim”, - misralarida farzandini sog‘inib, izzat chekayotgan ayol tuyg‘ulari aks ettirilgan.

Dard - sog‘inch, darmon - diydor ma‘nosida kelgan.
Tilimning zikri-yu, ko‘nglimni fikri, yaxshi farzandim,
Azizim, yolg‘izim, davlati sultonimni sog‘indim.

Bu misralarda onaning farzand dog‘ida azoblanishi aks ettirilgan. Shoira oddiygina – askar o‘g‘lini “davlati sultonim” deb ataydi. Albatta, har bir ona uchun farzand, sulton kabidir. Uvaysiy ham o‘g‘lini o‘z davlati, oilasining sultoni deb biladi. “Onam deb bo‘lg‘usi bag‘ri qizil qonimni sog‘indim” misralari orqali esa farzandining ham ko‘ksi qonga to‘lib, uni ham onasiga bo‘lgan sog‘inch qiynayotgani aks ettirilgan.

MUHOKAMA

Lirik she‘rlaridan tashqari, uning “Shahzoda Hasan”, “Shahzoda Husan” kabi liroepik asarlari va “Voqeoti Muhammad Alixon” kabi tarixiy dostonlari mavjud.

¹ Adabiyot (majmua). Akademik litseylarning 2-bosqichi o‘quvchilari uchun / To‘xliyev B., Mirsamiova R., Ametova O. – T.: Bayoz, 2014 yil. 141-bet.

Shoiraning liroepik dostonlari islom tarixi bilan bog‘liq voqealar asosida yaratilgan. Uvaysiy asarlari o‘zining latif mazmuni va dilkash badiiyliги bilan xalq ommasi orasida keng yoyilgan, hofizlar, xonandalar tomonidan maqom va xalq ohanglari yo‘lida kuylanib kelinadi. Uning xattotlar tomonidan ko‘chirilgan 3 nusxa qo‘lyozma devoni O‘zbekiston FA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti va Andijon davlat universiteti kutubxonasida saqlanadi. Uvaysiyning 15.000 misraga yaqin she’riy asarlari mavjud. Uning bir devoni O‘R FA qo‘lyozmalar fondida saqlanadi (inv. №1837). Unga shoiraning g‘azal, muxammas, musaddas, murabba’lari va “Shahzoda Hasan” hamda “Voqeoti Muhammadalixon” dostonlari kiritilgan. Shoira devonining 3 nusxasi topilgan. “Shahzoda Hasan”, “Shahzoda Husayn” kabi dostonlari mavjud, “Voqeoti Muhammadalixon” nomli tarixiy asari tugallanmagan.

XULOSA

Uvaysiy hayoti va ijodi haqidagi ma’lumotlar uning asarida, ayrim tazkiralarda yetib kelgan. Fazliy Namongoniyning “Majmuai shoiron” tazkirasida (1821) ham shoira ijodiga munosabat bildiriladi. Shoira ijodini izchil ilmiy yo‘nalishda o‘rganish 1930-yillarda boshlangan. Uvaysiy ijodi A.Qayumov, T.Jalolov, I.Haqqulov, E.Ibrohimova va boshqa tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan.

ZAMONAVIY O‘ZBEK ADABIYOTIDA O‘QITUVCHI-ZIYOLI OBRAZI TALQINLARI

Soberova Mohira

Jizzax davlat pedagogika universiteti
o‘zbek tili va adabiyoti kafedrası o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada zamonaviy o‘zbek adabiyotida o‘qituvchi-ziyoli obrazi talqinlari Fitrat, Behbudiy, Cho‘lpon hamda Abdulla Qahhor kabi adiblar asarlari misolida tadqiq qilingan. Ularning muallim, o‘qituvchi-ziyoli obrazlarini yaratishdagi o‘ziga xos uslub hamda mahoratlari tahlil jarayonida qayd qilib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *Muallim, o‘qituvchi, ziyoli, obraz, uslub, asar, hikoya, drama, mahorat, tasvir, mudarris, muallif, saboq.*

ABSTRACT

The article examines the interpretation of the image of a teacher-intellectual in modern Uzbek literature using the examples of writers such as Fitrat, Behbudi, Cholpon, and Abdulla Qahhor. Their unique style and skills in creating the images of teacher, teacher-intellectual were noted in the process of analysis.

Key words: *Teacher, teacher, intellectual, image, style, work, story, drama, skill, image, teacher, author, lesson.*

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается трактовка образа учителя-интеллектуала в современной узбекской литературе на примере таких писателей, как Фитрат, Бехбуди, Чолпон, Абдулла Каххор. В процессе анализа отмечены их уникальный стиль и умение создавать образы учителя, учителя-интеллектуала.

Ключевые слова: *Учитель, учитель, интеллектуал, образ, стиль, произведение, рассказ, драматургия, мастерство, образ, учитель, автор, урок.*

KIRISH

Ustoz siymosida insonni kamolotga yetaklovchi, hayotga har tomonlama tayyorlovchi komil shaxsni tasavvur qilamiz. Shundan bo'lsa kerak, muallim shaxsi qadim-qadimdan e'zozlanib kelgan; har bir davr, har qanday mamlakatda ziyoli odamlarga munosabat yuqori bo'lgan, ustozlar doim izzat–ehtiromda. Bir so'z bilan aytganda, o'qituvchilik – sharafli, ammo mashaqqatli kasb. Yangi o'zbek adabiyotining iste'dodli vakillari asarlaridagi obrazlar tizimida o'qituvchi obrazining tutgan o'rnini beqiyos.

Fitratning “Hindistonda bir farangi ila Buxorolik mudarrisning jadid maktablari xususida qilg'an munozarasi” asarida Buxoro madrasalarining birida saboq beruvchi mudarris bilan tanishamiz. Haj safariga otlangan mudarris Hindistonda bir farangi – fransuz ziyolisi bilan suhbat quradi. Asardagi farangi va mudarris munozarasida muallifning o'ymushohadasi, g'oyalari farangi obraziga yuklanadi (umuman olganda, farangi obrazini Fitratning ayni o'zi deyish mumkin). Muallifning asardan ko'zlagan maqsadi birmuncha vaqtdan beri Buxoroda avj olgan jadid va qadim o'rtasidagi ixtilofni bartaraf etish bo'lib, “mazkur hikoyat ushbu masalani tugal hal qilg'andir”. Fitratning fikricha, bu ixtilof “muqaddas Vatanimizni parchalab, uning ahli jamoasini jadid va qadim unvonlari ostida ikki firqaga ajratib, ularning birini ikkinchisiga dushman qilib qo'ydilar. Xor va xarobligimizning asosiy sababi musulmonlardan emas, balki o'sha ma'nisiz ixtilofdan ekani ma'lum bo'ldi”¹. “Munozara” orqali Fitrat eski va yangi fikrlilarni murosaga keltirishni niyat qilar ekan, farangi bilan bahsda Buxoro madrasalaridan birida saboq beruvchi mudarrisni tanlaydi. Zero yuzaga kelgan ixtilofning sababchilarini ya'ni qadimchilarni mot qilishni maqsad qiladi. Shu jihatdan asarda farangi tilidan jadid maktablari va “jadidcha” o'qitishning afzalliklari tushuntiriladi. “Nafaqat Buxoro yoki Turkiston, umuman islom Sharqi tarixini yaxshi bilgan va “yangi tadqiqot ila” mushohada etgan Fitratning bahsda o'ziga raqib sifatida eskicha ta'lim olganlarning peshqadamlaridan bo'lmish Mudarrisni tanlagani ham

¹ Фитрат А. Хиндистонда бир фаранги ила Бухороли мударриснинг жадид мактаблари хусусинда қилган мунозараси // Танланган асарлар // I жилд. –Т.:Маънавият, 2000, -Б.46.

bejiz emas. Bu narsa masalani kengroq doirada qo‘yishga, islom Sharqining taraqqiysi va tanazzulini belgilagan omillarni ochib berishga xizmat qiladi”¹. Farangi obrazi mudarrisga zid qo‘yiladi. Farangi millatning shonli o‘tmishini mudarrisga ibrat qilib ko‘rsatar ekan, uning bugungi ahvoliga kuyinadi: Islom madaniyati qani? Ilmga nima bo‘ldi? Jasur himoyachilari qayga ketdilar? Ularning bahodir tarafkashlariga nima bo‘ldiki, islom tarafdorligini tamoman tark etdilar?. Farangi islom dinidan, Sharq tarixidan yaxshi xabardor bo‘lgani holda, Buxoroyi sharifning ilm ahlidan bo‘lgan mudarris islomning ahkomlaridan to‘liq va tugal ma’lumotga ega emas (vaholanki, dunyoviy fanlarni umuman bilmaydi). Uning din haqida bilganlari ham yuzaki aqidadan boshqa narsa emas (Islomning xarob bo‘lish sababi shudir!). Mudarrisning nutqi orqali Buxorodagi ulamolar va ularning usuli jadid haqidagi qarashlarini ham bilib olish mumkin. Buxoro ulamolari “arab tilini arablarning o‘zlaridan ham yaxshi bilgani holda arabcha gaplashishni bilmaydilar”, ayollarni o‘qitishga esa mutlaqo qarshi turadilar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Jadid maktablari xususidagi noo‘rin mulohazalari ham yetarli dalillarga asoslanmagan. Muallif shunday yo‘ldan boradiki, bahsda mudarris yengiladi, u farangi ketma-ket o‘rtaga tashlayotgan asosli dalillarni inkor eta olmagan holda usuli jadidni tan olishga majbur bo‘ladi: Siz hiyla donishmand odam ekansiz. Voqean, bizning Vatan va millatimizni dardlarini topib, ilojini ham yaxshi bayon qildingiz. Zotan, bizning ham “birinchi najot yo‘li ilmdur” xususida muxolifatimiz yo‘q. Bizning ishtibohimiz jadid maktabi va zamonaviy ilmlarning tahsili ediki, buni ham kamoli yaxshilig‘ bilan yuksak ekanini ko‘rsatdingiz. Bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan ikki qutbning bahsida muallif niyatiga ko‘ra mudarris yengiladi – “birinchi najot yo‘li ilmdur” deya murosaga keladi. “A.Fitrat va boshqa ma’rifatparvar adiblar asarlaridagi o‘qituvchi, ziyoli va boshqalar jaholatga qarshi kurashuvchi qahramonlardir. Muallim obrazi ma’rifatparvar adabiyotining ideal qahramonidir. Uning timsolida asrlar bo‘yi

¹ Куронов Д. Каримов Х. Жаҳид адабиётида тарих концепсияси.//Китобда : Мутолаа ва идрок машқлари.- Т.:Академнашр, 2013,-Б.51.

ilmsiz yashab kelgan xalqqa bilim orqali yorug‘ dunyoni ko‘rsatish, shu tariqa ommani xayrli ishlarga yo‘llash tushunchalari mujassamlashtirilgan”¹. Demak, Fitratning ushbu “Munozara” asari, Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” dramasi, Cho‘lponning “Zamona xotini” kabi asarlarida ziyolilar obrazi yuqoridagi singari funksiya bajargan. Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” dramasida domulla va ziyoli obrazlari uchraydi. Dramada Behbudi domulla va ziyoli obrazlarini “Munozara” dagi singari bir-biriga qarama-qarshi qo‘ymaydi. Muallifning asardan ko‘zlagan maqsadini ro‘yobga chiqarishda (o‘qimagan bolaning holi, ilmsizlikning oqibatini ko‘rsatish) har ikki obraz muhimdir. Muallif domullani alohida urg‘u bilan “yangi fikrlik bir mulla” ekanligini ta’kidlaydi. “Padarkush” dagi ushbu domla eski maktab domlalaridan farqli ravishda yangiliklarni teran tushungan, o‘qimoqni farz va davr talabi deb bilgan, usuli jadid maktablariga qarshi bo‘lmagan domulladir. U boyga o‘g‘lini o‘qitish zarurligini har tomonlama tushuntirishga harakat qiladi: O‘qumoq va mulla bo‘lmoq uchun pul kerak, badavlatlarimizni holi bul, bas, bu ketish ila nauzambilloh, dunyo va oxiratga rasvo bo‘lurmiz, o‘qumoq barcha musulmonga, erkak va yo xotin bo‘lsun, farz edi. U qayda qoldi? Oh, voy bizni holimizga! Ziyolining nutqidan esa ayni davrda barcha eski maktab domlari ham bunday fikrda bo‘lmaganligini bilib olish mumkin: Ah-ha, qiziq va interesniy hodisa emish (odamlarga qarab), bu shaharda boylarga amri ma’ruf qilaturg‘on mulla bor ekan, Xudoga shukur. Ul janobi haqqoniy domullani topib, ziyorat qilmoq kerak. Ziyoli boyga yangi zamonda ilm o‘rganish juda muhim ekanligini tushuntirishga harakat qiladi: Hozir yangi va boshqa bir zamondir. Bu zamonga ilm va hunarsiz xalqni boyligi, yeri va asbobi kundan-kun qo‘lidan ketgandek, axloq va obro‘yi ham qo‘ldan chiqar, hatto, dini ham zaif bo‘lur. Buning uchun biz musulmonlarni o‘qutmoqg‘a sa’y qilmog‘imiz lozimdur, vaholanki, dini sharifimiz har nav naflik ilm o‘qumoqni beshikdan mozorigacha bizlarga farz qilgandir. Boy hamma narsaning yechimi pulda deb biladi. Atrofida sodir bo‘layotgan voqealarga ko‘r-ko‘rona, yuzaki munosabat bildiradi: O‘quganni biri siz, yemoqg‘a noningiz yo‘q, bu holingiz ila manga nasihat qilursiz. Domulla va ziyoli obrazlari

¹ Адабий турлар ва жанрлар. 3 жилдлик. I жилд, Т.,1991,-Б.120.

muallifning g'oyalarini, maqsadini retsepiyentga yetkazuvchi asosiy vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Har ikkisinining maqsadi deyarli mushtarak ekanligini ko'rsatish barobarida muallif eski fikr va yangilik tarafdorlari birlashsa, xalqning jaholatdan yiroqlashishi yanada tezlashishini orzu qiladi. Dastlab, Behbudiy domulla obrazi orqali masalani diniy tomondan boshlab, shaxsiy manfaatlarga burib, silliqlab tushuntiradi. Go'yoki, retsepiyentni keyingi jiddiy, umumahamiyatli mavzuga tayyorlab turadi. Domulla zimmasiga yuklatilgan vazifa bajarilgach, sahnaga "ovrupo libosida kiyingan, o'ruscha o'qug'on millatchi musulmon" - ziyoli kirib keladi. Ziyolining vazifasi domullanikidan birmuncha kengroq bo'lib, Behbudiy jadidlarning g'oyalarini ziyoli tilidan berishga urinadi.

NATIJALAR

Cho'lponning "Zamona xotini" dramasi ham Abdulahad muallim obrazi mavjud. Dramada hukumat ishlari bilan ovora bo'lgan muallimni uchratamiz. U dramaning asosiy qahramonlaridan biri bo'lgan Rahima xolaga qishloqni zug'um bilan boshqarayotgan Rustam aka, Azimjon qimorboz, Zokirjon mirzalardan xalos etishda yordam beradi. O'zining ta'biri bilan aytganda muallim "qishloqning og'zi kattalari, mushtumzo'rlari, yaramas amaldorlari bilan bel bog'lab kurashga tushgan. Yo yiqilmay, yo yiqitmay turib tinish yo'q!"¹. Dramaning boshidanoq ko'rinadiki, qishloq aholisi ikkiga bo'lingan: o'ziga qimorboz, o'g'rilarni himoyachi qilib olgan ijroqo'm raisi Rustam aka tarafdorlari(ular sodda qishloq odamlarini hiyla bilan o'zlariga og'dirmoqchi bo'ladilar); Rustam akaning xotini, "Qo'shchi" noibi Rahima xola tarafdorlari (muallim, Jo'ra va bir qancha "Qo'shchi" a'zolari). Muallifning badiiy niyatiga ko'ra bu ziddiyatda Rahima xolaning qo'li baland kelmog'i, u ayollarning ham erkaklardan qolishmasligini ko'rsatmog'i lozim (asarning nomidan ham ma'lum). Tabiiyki, buning uchun unga hukumat islohotlaridan xabardor, zamon imkoniyatlaridan foydalana oladigan, haququqlarini himoya qila olishga qodir bo'lgan ziyoli shaxs yordam berishi kerak. Shu tariqa dramada Abdulahad muallim obrazi paydo bo'ladi. Asarda Abdulahad muallim muallifning badiiy niyatiga muvofiq

¹ Чўлпон. Замона хотини // Асарлар. 4 жилдлик. III жилд. –Т.:Akademnashr, 2016. –Б.152.

harakatlanadi. U Rahima xolaning qizi Sharofat bilan ahd-u paymon qiladi. Sharofatni Azim qimorbozning o'g'li To'xtasinga majburlab uzatilishidan saqlab qoladi. Shu tariqa drama voqealari qiziqarli tusga kiradi. Abdulahad qishloqning sodda aholisi uchun "ham zakunchi, ham a'lam, ham mufti..." ekanligi ko'rsatiladi. Demak, "Zamona xotini" dramasiidagi Abdulahad muallimga ham sujet voqealarini rivojlantiruvchi qahramon sifatida baho berish mumkin.

MUHOKAMA

Abdulla Qahhorning "O'tmishdan ertaklar" qissasidagi Valixon so'fi ham domlalaridan biri edi. U bolalarni o'qitishga tirikchilikning bir turi – qo'shimcha daromad sifatida qaraydi. Ayrim o'rinlarda, masalan, domlarning bolalarni ayovsiz kaltaklashi, falloqga osishi tasvirlari bo'rttirilgandek ko'rinishi mumkin. Ammo Parda Tursunning "O'qituvchi" romanida ham eski maktablarda aynan mana shunday ayanchli jazo usullaridan foydalanilgani tasvirlanadi: eshonning hovlisida xizmat qilib kun ko'rayotgan Elmurod Sayfulla(eshonning arzanda o'g'li) uchun maktabga taom olib borganda ana shunday "mudhish tomosha"ning guvohi bo'ladi va beixtiyor beg'ubor ko'nglidan "Shunday qilib o'qigandan ko'ra, o'qimasa nima bo'lar ekan bu bolalar" degan fikr o'tadi. Bunday og'ir jazoga ko'proq domlaga "ozodliq" keltirmaganlar giriftor bo'ladi. Abdulla Qahhorning "O'tmishdan ertaklar" qissasida ham huddi shu kabi holat mavjud ("Valixon so'fi" hikoyasida): men qo'rqib ketdim, chunki maktabning ta'rifini ko'p eshitgan edim: domla behining novdasi bilan uradi, moshga cho'kkalatadi, falaqqa osadi... Bir qassob yetaklab ketayotgan echkisi yurmay tarxashlik qilganda: "Ey jonivor, yuraversang-chi, men seni maktabga olib ketayotganim yo'q, qushxonaga olib ketayotibman-ku", degan ekan...¹.

Ko'rinadiki, eski maktab domlalarining ta'lim usulida bolalarni kaltaklash va jazolash asosiy usul bo'lgan. Lekin masalaga bunday bir tomonlama yondashib tugal xulosaga kelish ham xato nazarimda. Menimcha, bu ijodkorning badiiy niyati, uning hayot materialini "tanlash"i yoxud tanlashga majbur bo'lgani bilan ham bog'liq bo'lsa

¹ Қаҳҳор А. Ўтмишдан эртақлар. Асарлар 3 жилд. –Т.:Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988, -Б.234.

kerak. Eski maktabda savod chiqarib, elga manzur bo'lgan asarlar yozgan atoqli adiblarimiz borligi masalaning ushbu tomonlari ham mavjudligini yodga soladi.

Abdulla Qahhorning yana bir asari "Adabiyot muallimi" hikoyasi bosh personaji Boqijon Baqoyev nodon, o'ta madaniyatsiz bir o'qituvchi. Hikoyada yozuvchi biron o'rinda uni nodon, madaniyatsiz deb atamaydi, oshkora qoralamaydi. Personaj o'zining nodon, madaniyatsizligini har qadamda xatti-harakatlari, fikrlash tarzi, gap-so'zlari orqali o'zi fosh etadi. Nafis, ya'ni badiiy adabiyot muallimi bo'la turib jiyani, talaba Hamidaning Chexov va uning «Uyqu istagi» hikoyasi haqidagi oddiy savollariga tayinli javob berolmaydi, aslida u javob berishga qodir emas. Bu odamning fojiasi shundaki, aybini tan olgisi kelmaydi, o'zini har bop bilan bilimdon qilib ko'rsatishga urinadi, aravani quruq olib qochadi: uning xayolida, tilida bir-biriga qovushmagan nomlar, har xil atamalar, ilmiy tushunchalar... Uning fikrlash yo'sini gap-so'zlarida aniqlik, izchillik yo'q, duch kelgan tomonga o'tib ketaveradi. Yozuvchi hikoyani yakunlar ekan, savol beruvchi talaba qizning «g'uvillab turgan boshida shundan boshqa hech narsa yo'q edi», deb yozadi: «praktikum, minimum, maksimum, Deterding, Stending, Shelling, Mering, Demping...»

Shu tariqa ko'z oldingizda nodon, betayin o'qituvchining nihoyatda aniq hajviy qiyofasi, ichki dunyosi, qolaversa ma'nisiz fojiali hayoti namoyon bo'ladi.

XULOSA

Xullas, jamiyat turmushidan olingan epizodlarda, lavhalarda ular hayotiga, qismatiga daxldor mohiyatni ko'rish, teran his etish, personajlar xarakteri va qismatini ularning ruhiyati ifodasi orqali yorqin badiiy detallar vositasida o'qituvchi-ziyoli siymosini gavdalantirish zamonaviy o'zbek adiblari ijodiy mahoratining eng muhim jihatlaridir

ENHANCING NATURAL SCIENCE EDUCATION AND DEVELOPING A SYSTEM OF SCIENTIFIC KNOWLEDGE IN ELEMENTARY SCHOOLS

Muxammadiyeva Marifat Murot qizi

Qo‘qon davlat pedagogika instituti

Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

(boshlang‘ich ta‘lim) yo‘nalishi 1 kurs magistranti

ABSTRACT

This scientific article aims to explore the significance of incorporating natural science education in elementary schools and the methods that can be employed to develop a comprehensive system of scientific knowledge among young learners. It emphasizes the importance of fostering a strong foundation in scientific thinking and the acquisition of fundamental scientific principles during the early stages of education. This paper also discusses the pedagogical approaches and strategies that can be employed for effective natural science instruction in elementary schools.

Introduction:

The acquisition of scientific knowledge plays a crucial role in the intellectual and cognitive development of young children. Elementary schools serve as the foundation for a child’s education, making it imperative to introduce natural science as part of the curriculum. Early exposure to scientific concepts and principles provides students with a solid platform for understanding the world around them. Furthermore, it helps nurture a sense of curiosity, experimentation, critical thinking, and problem-solving abilities that are essential for future academic success.

Importance of Natural Science Education in Elementary Schools:

1.1 Cognitive development: Natural science education facilitates the development of logical thinking, critical reasoning, and analytical skills in young learners.

1.2 Application of scientific principles: It enables students to apply scientific knowledge to everyday life situations, fostering a deeper understanding of the world.

1.3 Cultivation of curiosity: Natural science education nurtures children's innate curiosity, encouraging them to explore, investigate, and seek answers to phenomena in their environment.

1.4 Promoting environmental awareness: Early exposure to natural science educates students about the environment, fostering a sense of responsibility and the importance of sustainable practices.

Approaches to Natural Science Instruction in Elementary Schools:

2.1 Hands-on learning: Inclusion of practical experiments, field trips, and experiential activities to facilitate a deeper understanding of scientific concepts.

2.2 Inquiry-based learning: Encouraging students to ask questions, investigate, and conduct research to discover scientific principles independently.

2.3 Integration with other subjects: Incorporating natural science into math, language arts, and other subjects to demonstrate the interdisciplinary nature of scientific knowledge.

Developing a System of Scientific Knowledge:

3.1 Sequential learning: Organizing natural science education in a progressive manner, covering fundamental concepts in a structured curriculum.

3.2 Building on prior knowledge: Incorporating review and reinforcement of previously learned scientific principles to consolidate understanding and ensure continuity.

3.3 Assessment and evaluation: Employing diverse evaluation methods to gauge students' comprehension and progression in acquiring scientific knowledge.

3.4 Teacher professional development: Providing teachers with continuous training and resources to effectively teach natural science and stay abreast of advancements in the field.

Conclusion:

Introducing natural science education in elementary schools is essential for fostering a strong foundation in scientific literacy and critical thinking among young learners. With the proper pedagogical approaches, such as hands-on learning and an inquiry-based teaching methodology, students can develop a robust system of scientific knowledge. By investing in the natural science education of elementary school students, we not only equip them with essential skills but also inspire the next generation of scientists and innovators.

USED LITERATURE

1. Махмудова, Д. А. (2023). Проблемы цифровой педагогики и развитие цифровой компетентности обучающихся. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 8(1), 143-147.
2. Mahmudova, D., & Bahoroy, R. (2023). TECHNOLOGIES OF PREPARING FUTURE TEACHERS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY ON THE BASE OF A COMPETENT APPROACH. *Modern Science and Research*, 2(10), 118-122.
3. Akmalovna, M. D., & Sadriddinova, R. B. KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA BO 'LAJAK TARBIYACHILARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH TEXNOLOGIYALARI.
4. Mahmudova, D. A. (2023). METHODS OF USING DEVELOPING TECHNOLOGIES IN PRESCHOOL EDUCATION. *GOLDEN BRAIN*, 1(31), 120-125.
5. Akmalovna, M. D., Sadriddinova, R. B., & Qizi, B. E. Z. (2023). MAKTABGACHA TA'LIMDA RIVOJLANUVCHI TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH USULLARI. *Science and innovation*, 2(Special Issue 13), 538-540.
6. Махмудова, Д. А. (2023). Проблемы цифровой педагогики и развитие цифровой компетентности обучающихся. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 8(1), 143-147.

7. Maxmudova, D., & Bahoroy, R. (2023). TECHNOLOGIES OF PREPARING FUTURE TEACHERS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY ON THE BASE OF A COMPETENT APPROACH. *Modern Science and Research*, 2(10), 118-122.
8. Akmalovna, M. D., & Sadridinovna, R. B. KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA BO ‘LAJAK TARBIYACHILARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH TEXNOLOGIYALARI.
9. Maxmudova, D. A. (2023). METHODS OF USING DEVELOPING TECHNOLOGIES IN PRESCHOOL EDUCATION. *GOLDEN BRAIN*, 1(31), 120-125.
10. Akmalovna, M. D., Sadridinovna, B. R., & Qizi, B. E. Z. (2023). MAKTABGACHA TA’LIMDA RIVOJLANUVCHI TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASH USULLARI. *Science and innovation*, 2(Special Issue 13), 538-540.

ВЛИЯНИЕ РАЗВИВАЮЩИХ ИГР НА ЛИПУЧКАХ НА РАЗВИТИЕ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Махмудова Диёра Акмалевна

преподаватель кафедры «Методика дошкольного образования»

ТГПУ имени Низами

maxmudova_diyora@tdpu.uz

АННОТАЦИЯ

В данной научной статье исследуется польза развивающих игр на липучках для детей дошкольного возраста. Работа основана на обзоре литературы и результатов важных исследований в этой области. Полученные данные свидетельствуют о положительном влиянии таких игр на развитие моторики, познавательных способностей и социально-эмоциональных навыков у детей дошкольного возраста.

***Ключевые понятия:** игры на липучках, развивающие технологии, логик. мышление, мелкая моторика, исследование.*

ВВЕДЕНИЕ

Детское развитие является важной областью исследований. Игра в этом процессе играет ключевую роль, поскольку она способствует непринужденному и естественному обучению. Развивающие игры на липучках показывают значительное потенциальное влияние на улучшение моторики, познавательных способностей и социально-эмоционального развития детей дошкольного возраста.

Развитие моторики:

Развивающие игры на липучках способствуют развитию мелкой и крупной моторики у детей дошкольного возраста. Путем соединения липучек, дети

развивают свои мелкие двигательные навыки, учатся координировать движение рук и пальцев. Более сложные задания, такие как создание различных форм и конструкций, помогают детям развивать крупную моторику, включая укрепление мышц и улучшение координации движений.

Познавательные способности:

Игры на липучках также оказывают положительное влияние на познавательные способности детей дошкольного возраста. Дети могут экспериментировать с разными формами и цветами, развивая свою способность к классификации и сравнению объектов. Они могут создавать различные структуры и конструкции, развивая свою пространственную мысль и логическое мышление. Эти игры также способствуют развитию творческого мышления, поскольку дети могут придумывать и создавать свои собственные игрушки и предметы.

Социально-эмоциональное развитие:

Развивающие игры на липучках имеют положительное влияние на социально-эмоциональное развитие детей дошкольного возраста. Участие в таких играх позволяет детям учиться совместной деятельности, взаимодействию с другими детьми и взрослыми. Они учатся выражать свои мысли и эмоции, развивают навыки коммуникации и сотрудничества.

Кроме того, игры на липучках могут помочь детям развивать самоконтроль и управление своими эмоциями, так как они могут сталкиваться с различными ситуациями, где им приходится контролировать свое поведение и реакцию.

Например, в игре на липучках дети могут быть разделены на команды и играть в командных состязаниях. В процессе игры дети могут испытывать разные эмоции, такие как радость от победы или разочарование от поражения. Они должны научиться контролировать свои эмоции и не проявлять агрессию или недовольство, если что-то не идет по их плану. Вместо этого, они должны научиться поддерживать спортивный дух и учиться справляться с разочарованиями и неудачами.

XXI ásir texnologiyalar ásirinde de bul janrdıń dórewi hám rawajlanıwı toqtap qalǵan joq, kerisinshe jańa formalarda xalıq arasına kirip kelmekte. Xalıqtıń kópshilik bólegi házir internet tarmaqları arqalı baylanısqa túsedı. Sol siyaqlı aytıs janrı da XXI ásirde óziniń ekinshi kórinisin internet tarmaqlarında taptı dep ayta alamız. Telegramm sociallıq tarmaǵında shayır tábiyatlı adamlardıń bir biri menen sóz jarısına túsiwi ushın toparlar shólkemlestirilgen. Bunday toparlardıń biri “Qaraqalpaq aytısı” toparı. Usı topar iskerligi hám qaraqalpaq folklorınıń jańa basqıshta rawajlanıwın kórip shıqsaq.

Toparda hár kúni aytıstıń baslaması ushın túrli temalar beriledi. Qolaylı tárepi sonda topar aǵzaları tek eki tárepke bólinbesten, jeke kóz qarasin, improvizaciyalıq qábilyeti arqalı sol tema dógeresinde dóretdi. Mısalı: kún teması: Átirapqa gúzdıń nápesi endi. Bul temaǵa juwap retinde Gúlandam atlı paydalanıwshı tómendegishe juwap jazǵan:

Átirapqa gúzdin nápesi keldi,
Jaǵımlı saǵınısh samalı jeldi,
Qırmanǵa bereket berip diyxanlar,
Aq altındı jiynawǵa bilegin túrdi.

Ekinshi Dilafruz Uzaqbergenova atlı paydalanıwshı bolsa:

Atızlarda paxtalar tur ırǵalıp,
Terip alıń hámme kelip jiynalıp,
Jawın jawsa qalamızǵo qiynalıp,
Átirapqa gúzdıń nápesi endi.

Qiytaq júweriniń gellegi kútip,
Ishime salaman hámme sin jutıp,
Sharshawǵa waqıt joq hámme sin jutıp,
Átirapqa gúzdin nápesi endi.

Kún teması dógeresinde usınday qatarlar dóretiledi. Aytıs janrınıń ózine tánligin kórsetiw maqsetinde temaǵa qosa hár kungi degishpe ushında bólek tema beriledi. Avtolar usı tema átirapında bir birin sózden jeńiwge umtıladı. Joqaridaǵı temanıń degishpesi: “Jur barayıq birge alma teriwge”. Mısal:

Qız:

Shıqsa berman qosıq artı tıǵılmay,
Alma baǵqa qarap berman shıǵıń-ay,
Tayaqqa súyenip júrmisiz klaslas,
Tik ayaqta eplep seplep jıǵılmay.

Jigit:

Jur barayıq birge alma teriwge,
Deseń qayılmangó saǵan eriwge,
Baǵıńızda táwir miyweń qaldı ma,
Aynanayın má jey góy dep beriwge.

Usı tárizde degishpe bir táreptiń jeńisine shekem dawam etedi. Álbette, bul házil-dálkekke qurdaslar ortasındaǵıday jalǵasadı hám bir- birewge húrmet saqlanadı.

Bul toparda aytıs janrın ele de rawajlandırıw maqsetinde aytıskerler ortasında hár túrli tańlawlar ótkerilip turıladı. Buǵan misal retinde XX ásir shayı, qıssaxan Abbaz Dabilovtıń (1898-1970) tuwılǵanına 125 jıl tolıw múnásibeti menen ótkerilgen

tañlawdı keltirse boladı. Bir neshe kún dawam etken tañlawdıń yarım final hám juwmaqlawshı basqışları bolıp ótken. Bul tañlawda jumbaqlı aytıs túrinde aytıskerler bir birine qosıq qatarların arnağan:

Ol náirse tawdan asıp qulap keler,
Birewler way-way salıp jılap keler,
Waqıtqa salıp onı aytar bolsaq,
Ózine bul zat biraq unap keler.

Ekinshi aytısker jumbaqlı aytısqa tómendegishe juwap bergen:

Sorawıña kop qatırdım basımdı,
Qızlardan sorasań aytpay jasırdı,
Kimge shadlıq, kimge qayǵı túsingen,
Menińshe, sen ayttıń shıqqan jasımdı.

Aytıs barısı durıs juwap tabılaman degenshe dawam etedi, ortada bir neshe jumbaqlar yamasa sorawlar jasırılıwı múmkin. Bul waqıtta basqa paydalanıwshılar juwap qaytarmaydı tek eki aytısker ortasındaǵı aytıs barısın ádil túrde baqlap baradı hám jeńimpazlar anıqlanadı.

Házirgi elektronlasqan zamanımızda ádebiyattıń, ásirese xalıq awızeki dóretiwshiliginiń elektron formatqa kóshiwi rawajlanıwdıń belgisi bola aladı. Sebebi, bunday dóretiwshilik toparlarda shayırlıq qábilyetke iye yamasa shayır tábiyatlı insanlarǵa dóretiwshilik etiw qolaylı hám olardı basqalar menen bólisiw úlken unamlı jaǵday. Demek, xalıq awızeki dóretpeleriniń bir janrı esaplangan aytıs ta zamangá maslasıp, dóretiwshilerge hám xalıqqa jetip barıwda.

PAYDALANILǴAN ÁDEBIYATLAR

1. Allambergenov K, “Qaraqalpaq ádebiyatında aytıs”, Nókis, “Qaraqalpaqstan”, 1989-jıl
2. Qaraqalpaq folklorı kóp tomlıq. XI tom, Nókis, “Qaraqalpaqstan”, 1982-jıl
3. Qaraqalpaq folklorı, 88-100 tom, Nókis, “Ilim” 2015-jıl

ЁШ ФУТБОЛЧИЛАРНИНГ ТЕЗКОРЛИК СИФАТИНИ ЗАМОНАВИЙ УСУЛЛАР ОРҚАЛИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Смирнов Константин Борисович

Узбекистан

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада ёш футболчиларнинг жисмоний сифатларидан тезкорлигини тарбиялаш машғулотларининг муҳим жиҳатлари ёритилиб берилган.

Таянч сўзлар: Жисмоний сифатлар, жисмоний машғулот, техник, тактик, тайёргарлик.

РАЗВИТИЕ СКОРОСТНЫХ КАЧЕСТВ ЮНЫХ ФУТБОЛИСТОВ СОВРЕМЕННЫМИ МЕТОДАМИ

Смирнов Константин Борисович

Узбекистан

АННОТАЦИЯ

В этой статье подчеркивается важность обучения молодых футболистов их физическим качествам.

Ключевые слова: Физические характеристики, физические тренировки, техника, тактика, подготовка.

Кириш, Ёш футболчининг жисмоний сифатларини тарбиялаш спорт машғулотларининг муҳим жиҳатларидан бири саналади. Жисмоний сифатлар футболчи организмнинг морфо-функционал, морфо-физиологик ва биологик хусусиятлари билан боғлиқ. Жисмоний сифатлар шуғулланувчиларнинг жисмоний, техник-тактик тайёргарликларининг такомиллашувига, бутун

организм соғломлашишига, рухий эмоционал ҳолатига ижобий таъсир кўрсатади, футболчилар ҳар бир ҳаракатни тобора ишонч билан бажарадилар, янги ҳаракатларни тезроқ ўзлаштирадилар ва юқори натижали кўрсаткичларга эришадилар.

Ёш футболчининг асосий жисмоний сифатларини ривожланиши ҳаракат кўникмаларининг шаклланиши билан узвий боғлиқликда кечади. Ана шу жараёнга хизмат қилувчи машқлар спорт машғулотлар машғулотларига қатъий изчилликда ва кетма-кетликда киришилади. Бугунги кунда футболчиларнинг жисмоний сифатларини тарбиялаш учун махсус воситалардан, машқлар мажмуасидан фойдаланишни ўзининг долзарблиги билан ажралиб туради.

Ёш футболчиларнинг тезкорлик сифатини ривожлантириш назарияси усул ва услублари ҳозирги асрга келиб адабиётлар таҳлили шуни кўрсатадики, тезкорлик сифатларини ошириш учун кўплаб тадқиқот ишлари, илмий изланишлар ва амалиётлар, хар-хил усул ва услублар ҳамма спорт турлари учун ишланиб ўрганилиб чиқилмоқда.

Мақсад ва вазифалар. Ҳозирги замон футболда ўйин усуллари такомиллашиб, футболчиларнинг ўйин ҳаракатлари мукамаллашиб бормоқда. Футболдаги янги ва самарали усулларнинг пайдо бўлиши, футболчиларнинг ҳаракатлари юксак даражада бўлишини талаб этмоқда. Ҳар бир футболчи бир ўйин давомида жамоасининг ғалаба қозониши учун кўпгина ҳаракатларни бажаришади (1,3).

Бизга шу нарсалар маълумки, футболчиларнинг майдондаги асосий ҳаракатларига: юриш, югуриш, тўп билан юриш, тўп билан югуриш, сакрашлар, тўпга зарба бериш тўп билан алдаб ўтиш, тўп узатиш, тўпни тўхтатиш, тўпни ён чизикдан ташлаш, жарима тўпини бажариш, бурчакдан тўпни тепиш, финтлар, подкад ташлаш, тўпни аниқ мўлжалга етказиш, рақиб билан тўп учун курашиш ва бошқа бир қанча ҳаракатлар киради.

Ёшлар ўртасида ўтказилиаётган мусобақалар таҳлили ҳамда илмий изланишлар шуни таъкидлайдики, мусобақа пайтида самарадорликка

етолмайдиган асосий сифатлардан бири футболчиларимизнинг жисмоний тайёргарлигининг ва тезкорлик тайёргарлигининг пастлигидир .

Илмий изланишларга кўшилган ҳолда 17 ёшга тўлган футболчиларда тезкорлик сифати юқори квалификацион спортчи даражасига етиб борган бўлади. Кейинчалик унинг сифатлари сезиларли даражада ўзгаради. Бундай жараён сабабларидан бири нерв координация алоқалари ва нерв тўқима аппарати шаклланишининг тўхташидир. Яна бир томондан эса услубий факторларни таъсири бўлади. Бунда машғулотлар давомида тезкорлик сифатига йуналтирилганлик етарли даражада эмаслиги ва машғулот самарадорлигини ошираётганда қўлланиладиган усул ва услублар оддий, бир хилда эканлиги сабаб бўлиб келмокда (45,59).

Тадқиқот усуллари ва ташкил этилиши. Олимларнинг таъкидлашича ёш футболчилар малакали футболчиларга қараганда белгиланган вақт ичида кўпроқ усулларни бажарар экан. 1-жадвалда кўришиб турганидек, кўрсаткичлар ўртасидаги фарқ жуда катта. Лекин ҳозирги замон футболда эса бундай катта фарқ бўлиши мумкин эмас.

1-жадвал.

Хар-хил ёшли футболчиларнинг ўйиндаги ҳаракатлар кўрсаткичлари

№	Ҳаракатларноми	Ўйиндаги хатти-ҳаракатлар сони		Ўйиндаги масофалар	
		Спорт усталари	Ёшлар	Спорт усталари	Ёшлар
1	Тез югуришлар (рывок)	245	378	3500	5020
2	Тез тухташ билан тугайдиган югуришлар	145	405	2050	4455
3	Йуналишни ўзгартириб югуришлар	120	230	2440	4296
4	Тўполибюришлар	109	190	1440	2165
5	Оёқлар билан зарбалар	321	475	5888	7728
6	Бош билан зарбалар	39	85	471	885

В.Д.Кудрявцев тадқиқотида шуни таъкидлайдики, 11-14 ёшли футболчиларда жисмоний жихатлар тезкорлик, кучлили ксифатлари ҳамда техник-тактик ўсишларидеярли бир хил бўлади. Лекин жуда тез сифатларнинг ўсиши 12-14 ёшда кузатилар экан.

Тадқиқот натижалари ва уларни муҳокама қилиш. Адабиёт манбаларни ўрганиб ва ўқув-машғулотлари шуни кўрсатадики кўпгина футбол мактаблари булимларида ўсмирлар ва ёшларни тезкорлик тайёрлашга етарлича эътибор берилмайди. Ёш футболчилар тарбиясини метод ва воситалар билан ошириш асосида асосан тезкорлик сифатини тарбиялаш даражасини ошириш керак.

Ёш футболчиларда тезкорлик сифатини ошириш динамикаси қуйидагича характерланади:

-натижаларнинг ўсишига қараб, 15-30 метрга стартдан чиқишини баҳолаш.

-тайёргарлик жараёнини охирида 60 метрга югуриш натижасини маълум бир ошириш.

-мусобақажараёнида 60 метрга югуришнинг юқори тезлигини узун фазаларда ушлай билиш.

-мусобақа жараёнининг тугашига вертикал сакрашларнинг юқори натижасидан ҳам оширишга ҳаракат қилиш.

Ёш футболчилар машғулот жараёнида тезкорликни ошириш учун қуйидаги машқлардан фойдаланилса мақсадга мувофиқдир: югураётган вақтларда тўпни оёқ билан олиб юриш, югураётганда тўп билан машқлар бажариш, бундан ташқари тўпни хар-хил олиб юришлар, алдаб ўтишлар, тўп узатишлар, дарвозага тўпни тепиш усуллари киради. Бир машқни бажарилиши учун ўртача 5-7 секунд вақт берилади. Югуриш оралиғи 35 метр бўлади. Олим шуни таъкидлайдики, ушбу машқлар бажариш масофасини ва вақтини тақсимлай билиш машқнинг кўп маротабалаб бажаришига боғлиқ. Бу машқлар футболчиларнинг қобилиятининг ўсишига ва функционал жисмоний сифатларини ошишига олиб келади.

Ёш футболчиларда тезкорликни тарбиялаш жуда ҳам керакли жараёндир. Футболчилар маълум бир миқдорда тезлилик ва кучлили ва тезкорлик сифати

билан бошқа спорт тури билан шуғулланаётган спортчилардан орқада. Бу тезкорликни 11-12 ёшдан бошлаб тарбиялаш ўринлидир.

Хулоса.

Футболни замонавий талаб даражаси асосида ривожлантириш футболчиларнинг юқори жисмоний тайёргарлигини талаб этади, шулардан энг асосийларидан бири бу тезкорлик сифатини тарбиялашдир. Ёшларда бу сифатларни тарбиялашда энг муҳим давр деб ҳисобланади. Тарбиялаш даврида тезкорлик сифати, ҳажми, восита ва методларни ўзгартириш ўқув-машғулот жараёнларини маълум бир даражадаги ижобий натижаларини кўрсатади.

Утказилган тажрибаларимиз таҳлили шуни кўрсатадики, футболчиларнинг лаёқатлигига ва қобилиятларига ҳар томонлама аниқ баҳо берилиши футболчи келажагининг самарали бўлишини таҳлил қилиб қуйидаги хулосага келиш мумкин, ёшларга ва ўсмирларга тезкорликтайёргарлигига етарли даражада эътибор берилиши учун ҳозирги талабларга жавоб берадиган методлар билан тарбиялаш керак.

ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Ақромов Р.А. Юқори малакали футболчиларни тайёрлаш. Тош. 1994 й 74 бет.
2. Боренбаев К.С. Педагогические методы и средства воспитания скоростных качеств у юных футболистов на этапе начальной специализации. Автореф. 1999 г 22 стр.
3. Драндров Г.Л. Развитие скоростно-силовых качеств и быстроты футболистов 13-16 лет с учетом типологических особенностей проявления свойств нервной системы. 1989 г. 69 стр.
4. Каюмов Ш.А. Бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчиларнинг касбий компетентлигини инновацион ёндашувлар асосида ривожлантириш. Автореф. 2023 й. 19 бет

KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHDA INDIVIDUAL DAROMADGA SOLIQLAR MEXANIZMIDAN SAMARALI FOYDALANISH MASALALARI

Safarov Radjabboy Eshmuxammadovich

O‘zbekiston Respublikasi

Bank-moliya akademiyasi magistranti,

e-mail: sradjabboy@gmail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola kambag‘allikni qisqartirishda individual daromadga soliqlar mexanizmidan samarali foydalanish masalalari bag‘ishlangan bo‘lib, asosiy masala sifatida mavzu doirasida rivojlangan mamlakatlar tajribalarni o‘rganish hamda olingan natijalar asosida xulosa va takliflar shakllantirishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun maqolada Xitoy Xalq Respublikasi misolida jismoniy shaxslari soliqqa tortish mexanizmini tahlil etildi, bunda ma‘lumotlarni tavsiflash, natijalarni qayta ishlash, olingan natijalarni tahlil qilish, tendensiyalarni kuzatish, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. Maqola so‘ngida o‘rganish natijalari asosida xulosalar shakllantirildi va takliflar berildi.

Kalit so‘zlar: soliqqa tortish mexanizmi, aholining turmush darajasi, daromadlarning shakllanishi, aholining real daromadlari, soliq solish obyekti, soliq stavkasi, soliqlar miqdori, iqtisodiy salohiyat, davlat soliq siyosati.

ВОПРОСЫ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕХАНИЗМА НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ ДОХОДОВ ФИЗИЧЕСКИХ ЛИЦ В СОКРАЩЕНИИ БЕДНОСТИ

Сафаров Раджаббой Эшмухаммадович,
магистрант Банковско-финансовой академии
Республики Узбекистан,
e-mail: sradjabboy@gmail.ru

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена вопросам эффективного использования механизма налогообложения индивидуальных доходов при сокращении

бедности, основным вопросом в рамках темы является изучение опыта развитых стран и формирование выводов и предложений на основе полученных результатов. Для достижения этой цели в статье был проанализирован механизм налогообложения физических лиц на примере Китайской Народной Республики с использованием методов описания данных, обработки результатов, анализа полученных результатов, отслеживания тенденций, индукции и дедукции. В конце статьи на основе результатов исследования сформулированы выводы и даны предложения.

Ключевые слова: механизм налогообложения, уровень жизни населения, формирование доходов, реальные доходы населения, объект налогообложения, ставка налога, сумма налогов, экономический потенциал, государственная налоговая политика.

ISSUES OF EFFECTIVE USE OF THE MECHANISM OF TAXATION OF PERSONAL INCOME IN POVERTY REDUCTION

Safarov Radjabboy Eshmuxammadovich,

Master's student of the Banking and Finance Academy
of the Republic of Uzbekistan,
e-mail: sradjabboy@gmail.ru

ABSTRACT

This article is devoted to the effective use of the mechanism of taxation of individual income in poverty reduction, the main issue in the framework of the topic is the study of the experience of developed countries and the formation of conclusions and proposals based on the results obtained. To achieve this goal, the article analyzed the mechanism of taxation of individuals on the example of the People's Republic of China using methods of data description, results processing, analysis of the results obtained, trend tracking, induction and deduction. At the end of the article, based on the results of the study, conclusions are formulated and suggestions are given.

Keywords: *taxation mechanism, standard of living of the population, income generation, real income of the population, object of taxation, tax rate, amount of taxes, economic potential, state tax policy.*

Kirish. Soliqqa tortish mexanizmi aholining turmush darajasiga va uning daromadlari shakllanishiga hamda ijtimoiy tabaqalanish darajasiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shu boisdan ushbu masalani o'rganish tadqiqotchi olimlar va

mutaxassislarga alohida mas'uliyat yuklaydi hamda o'zgacha qiziqish uyg'otadi, chunki bu masala davlatning kelajagini ravnaqini belgilashda xalqning yaxshi va farovon turmush sharoiti ta'minlash mexanizmi bilan xam-ohangdir. So'nggi yillarda soliq tortishning roli va uning yurtimiz aholisi turmush darajasiga ta'siri o'zgardi, soliqqa tortishda adolat va tenglikni ta'minlash maqsad qilib olinib, soliq tizimini isloh qilish to'g'risida jiddiy qadamlar tashlandi va o'zgarishlar amalga oshirildi.

Birgina kuni kecha qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi "Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 17-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim hujjatlariga ijtimoiy ahvoli va turmush sharoiti og'ir oilalarni qo'llab-quvvatlash tizimini soddalashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" 547-son"[2] qaroriga muvofiq endilikda "xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlarining sessiyalari oralig'idagi davrda "Temir daftar"ga kiritilgan ijtimoiy ahvoli va turmush sharoiti og'ir oilalarga kechiktirib bo'lmaydigan hollarda zudlik bilan yordam ko'rsatish zarurati yuzaga kelganda, bir martalik moddiy yordamni fuqarolar yig'inlari tomonidan sektorlar rahbarlari bilan kelishgan holda taqdim etilgan xulosaga asosan bir ish kunida tuman (shahar) hokimlari qarorlari bilan beriladi"[3].

Darhaqiqat davlatimiz rahbariyati boshchiligida keyingi yillarda xalq farovonligini ta'minlashga qaratilgan ezgu g'oya asosida "inson qadri uchun" shiori asosida izchil siyosat olib borilmoqda, buning natijasida 2027 yilga borib yurtimizda kambag'allikni kamida 2 baravarga kamaytirish maqsad etib olingan. Albatta ushbu vazifani bajarishda davlatning fiskal siyosati ham salmog'i yetakchi o'rin egallaydi, zero davlat soliqlar va yig'inlar miqdorini o'zgartirish orqali aholining jamg'arma darajasiga ta'sir qiladi. Boshqa ko'plab omillarga qaraganda, fuqarolarning moddiy farovonligi shaxsiy daromadga belgilangan soliqlar ko'proq ta'sir qiladi.

Yuqoridagilarga asoslangan holda shuni aytish mumkinki, individual daromadlarga solig'i solinishi aniq ijtimoiy xususiyatga ega, chunki u istisnosiz mamlakatning iqtisodiy faol aholisining barcha qatlamlari manfaatlariga bevosita ta'sir qiladi.

Daromad solig‘i aholining real daromadlari darajasiga ta’sir qilish uchun katta imkoniyatlarga ega va shu tariqa ularning turmush darajasi aholining individual daromadlarini tartibga solish uchun imtiyozlar, soliq stavkalari tizimidan foydalanishga imkon beradi. Bundan tashqari, shaxsiy daromad solig‘i aholi daromadlarini tabaqalashtirishning mavjud darajasini, aholining turli qatlamlariga soliq yuki darajasini tartibga solishi mumkin.

Individual daromad solig‘ining maqsadi mamlakat byudjetini to‘ldirish va mablag‘larni aholi o‘rtasida teng taqsimlashdan iborat bo‘lib, bunga ushbu soliq funksiyalarini amalga oshirish orqali erishiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Aholini soliqqa tortish mavzusi darhaqiqat har bir zamon, davrda dolzarb masala bo‘lib xizmat qilgan, zero davlat ravnaqi va aholining turmush farovon hamda hayotining shinamligi ta’minlash masalalari bir biri bilan hamohang bolishi zarur. Bunday yuksak maqsadga erishish har bir davrning yetuk olimlari tomonidan chuqur o‘rganilgan va turlicha qarashlar shakllantirilgan shu o‘rinda, quyidagi taniqli olimlarning soliq tizimi va soliqlar haqidagi tariflarini ko‘rib chiqishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Misol uchun taniqli zabardast iqtisodchi olim A. Smit birinchi marta soliq tizimi haqida yozganda [4] asosiy to‘rtta soliqqa tortish qoidalari prinsiplarini ilgari surdi:

1. Davlat xo‘jalik yurituvchi subyektlari uchun imkon qadar nisbatan teng to‘lov tizimini yaratishi zarur, ya’ni subyektlarining olayotgan foyda hamda daromadga qarab, tenglik qilishi kerak. Ushbu qoida adolat prinsipi — tenglik va universallik sifatida shakllantirilishi mumkin;

2. Soliq o‘zboshimchalik bilan emas, balki aniq bo‘lishi kerak. To‘lov muddati, uning usuli va hajmi-har bir narsa aniq va shaffof bo‘lishi kerak, ya’ni soliqlarning aniqligi;

3. Soliqlar to‘lovchilar uchun eng qulay shartlarda va usullarda olinishi hamda to‘lanishi kerak;

4.Soliq xazinaga kelgan narsadan ko‘ra aholidan kamroq miqdorda olinishi kerak. Ushbu prinsipni soliq xizmatining arzonligi deb atash mumkin.

Yuqoridagilarga asosan shuni aytish mumkinki, soliqlar har qanday sharoitda aholini qiynashi yoki yuk bo‘lishi kerak emas, balki zaruriy bo‘g‘in, tolov shakli sifatida o‘zini taqdim etishi lozim. Shundagina aholining davlat olib borayotgan siyosatidan roziligi kayfiyati shakllanadi, shu o‘rinda “Buyuk ajdodimiz Ahmad al-Farg‘oniy Misrda Nil daryosi suvi hajmining o‘zgarishiga qarab, suvni barcha dehqonlar o‘rtasida bir xil taqsimlash, suv bilan ta‘minlash darajasining hosilga ta‘siri va shular asosida soliq miqdorini adolatli o‘rnatish g‘oyasini ilgari surgan va hayotga joriy etgan. Bu insoniyat tarixida soliqqa tortish prinsiplarini ishlab chiqishga bo‘lgan ilk jiddiy urinishlardan biri”[5; 16 b] ekanligi bizga yanada faxr hamda g‘urur beradi.

“Har bir mamlakat, shu jumladan O‘zbekiston uchun optimal (maqbul) soliq yukini ishlab chiqilishi va unga amal qilinishi iqtisodiyotni barqaror rivojlanishi va aholining yashash darajasini yaxshilanib borishi uchun asos yaratadi”[6].

Soliqlar davlat byudjeti daromadlarining markaziy instituti bo‘lganiga hali 200-yil to‘lgani ham yo‘q. Ingliz iqtisodchisi S.Parkinson so‘zi bilan aytganda: “Soliqlar ko‘hnadir — xuddi dunyodek, uning yuzaga kelishida qachondir bir mahalliy qo‘mondon o‘z hududida joylashgan daryo yoki tog‘dan savdogar hamda sayohatchi o‘tsa ulardan haq olishi sabab bo‘lgan”[7].

Natija va muhokamalar. Zamonaviy sharoitda soliq tizimining samaradorligini oshirish uchun eng yaxshi mexanizm bu soliq majburiyatining bajarilishi korxonaga yoki jismoniy shaxsning farovonligiga xizmat qilishini ta‘minlashdan iboratdir.

Shu o‘rinda Xitoy Xalq Respublikasi misolida kambag‘allikni qisqartirishda individual daromadga soliqlar mexanizmidan samarali foydalanish masalalari ko‘rib chiqsak.

Xitoy Xalq Respublikasining soliq tizimi-bu mamlakatda o‘rnatilgan soliqlar va yig‘imlar tizimi, shuningdek ularni yig‘ish tamoyillari, shakllari va usullari to‘plamidir.

Ko‘plab davlatlar kabi soliqlar Xitoy Xalq Respublikasi xazinasini uchun eng muhim daromad manbai hisoblanadi. Shuningdek, u davlat tomonidan mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta‘sirini kuchaytirish uchun foydalanadigan muhim iqtisodiy dastak sifatida qo‘llaniladi. 1994-yilgi islohotdan keyin soliq tizimi ishining ijobiy natijalari dunyoda birinchi marta Xitoy Xalq Respublikasi misolida “Sotsializmning bozor iqtisodiyoti”ga moslashtirilgan samarali soliq tizimini shakllantirishga imkon beradi. Xitoy Xalq Respublikasining mavjud soliq tizimi ushbu mamlakatni tashqi dunyoga ochishga qaratilgan bo‘lib, bu milliy iqtisodiyotning jadal rivojlanishiga hissa qo‘shadi [10; 52 b].

XXI asrda Xitoy Xalq Respublikasining moliya-byudjet tizimida va soliq tizimida jiddiy o‘zgarishlar ro‘y berdi, bu hukumatga makroiqtisodiy darajada boshqaruv choralari samarali amalga oshirish uchun moliyaviy yordam ko‘rsatdi. Biroq, hozirgi fiskal va byudjet tizimi vaqtinchalik bo‘lib, bozor iqtisodiyotini rivojlantirish ehtiyojlariga javob bermaydi. Byudjet daromadlarini tartibga solish sohasida, xarajatlarni tartibga solish tizimida, shuningdek Markaziy va mahalliy byudjetlarda islohotlar hali yakunlanmagan. Fiskal tizim mamlakatning iqtisodiy tuzilishini va daromadlarni taqsimlashni tartibga solishda yanada zaif rol o‘ynaydi.

Xitoyda byudjet mablag‘lari to‘g‘ridan-to‘g‘ri iqtisodiy rivojlanish uchun emas, balki asosan ijtimoiy maqsadlar uchun sarflanadi. Hukumat iqtisodiyotni bozorga asoslangan holda rivojlantirish choralari ko‘radi, ya‘ni bozor kuchlari hisobidan va davlat byudjeti mablag‘lari milliy mudofaa, davlat boshqaruvini saqlash, o‘rta ta‘lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta‘minotga sarflanadi. Xitoy oliy ta‘lim, ilm-fan va infratuzilma xarajatlariga alohida ahamiyat bermoqchi. Sog‘liqni saqlash va oliy ta‘lim kabi sohalarda davlat xarajatlarini nazorat qilish sohasida muhim islohotlar amalga oshirilishi kutilmoqda.

Yurtimizda farqli o‘laroq Xitoy Xalq Respublikasi soliq tizimida 25 ta asosiy soliqlardan iborat, O‘zbekistonda esa 9 tani tashkil etadi. Xitoy Xalq Respublikasining asosiy soliq turlari 1-jadvalda keltirib o‘tilgan.

1-jadval

Xitoy Xalq Respublikasining soliq tizimidagi soliq solish obyekti bo'yicha soliqlarning guruhlanishi

Soliq guruhi	Soliqlarning asosiy turlari
Aylanmadan soliqlar	QQS Iste'mol solig'i (savdo solig'i) Biznes solig'i
Foyda (daromad) solig'i	Korporativ daromad solig'i Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar va xorijiy korxonalarining daromad solig'i Shaxsiy daromad solig'i
Resurslar uchun soliqlar	Resurs solig'i Yer solig'i (shahar va tumanlar yerlaridan foydalanganlik uchun to'lov)
Maqsadli soliqlar va yig'imlar	Shaharlarni saqlash va qurish uchun soliq Qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanganlik uchun soliq Asosiy vositalarga investitsiyalar bo'yicha soliq Yerni sotishdan olinadigan soliq
Mulk solig'i	Mulk solig'i Ko'chmas mulk solig'i
Operatsion (harakatlar) soliqlari	Avtotransport vositalari va suv kemalaridan foydalanish uchun soliq Shtamp (gerb) boji Mulkni ijaraga berish uchun soliq
Qishloq xo'jaligi soliqlari	Sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlari uchun soliq Chorva mollarini parvarish qilish va ko'paytirish uchun soliq

Xitoy Xalq Respublikasining soliq qonunchiligi uzoq tarixga egaligi bilan birga u hozirgi shiddatli zamonga doimiy ravishda moslashib, takomillashib, tez rivojlanayotgan iqtisodiyotga moslashib kelmoqda.

“Soliq yig'ishni boshqarish to'g'risida” gi qonun 1992-yilda qabul qilingan (jami 3 ta tahrir qilingan, oxirgi 2013-yilda) va soliq solishning umumiy tamoyillari, soliq ma'muriyati qoidalari, soliq tekshiruvlari va soliq huquqbuzarliklari uchun qonuniy javobgarlikni belgilaydigan asosiy qonun hujjatidir. Ushbu qonun 6 bob va 94 moddadan iborat bo'lib, O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksining analogidir. Soliqlarni joriy yetish va bekor qilish ushbu qonunga muvofiq amalga oshiriladi.

Hozirgi vaqtda korxonalar foyda soliqlarini, jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish va transport solig'ini joriy qiluvchi faqat uchta qonun amal qiladi. Qolgan soliqlar ma'muriy huquqiy hujjatlar, ya'ni vaqtinchalik qoidalar va normalar bilan belgilanadi va tartibga solinadi.

“Soliq yig'ishni boshqarish to'g'risida” gi qonunni qabul qilishdan maqsad soliq to'lovchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat bo'lib, unga ko'ra soliq imtiyozlari quyidagi shakllarda taqdim yetiladi:

- Har qanday soliq va to'lovlarni to'lashdan ozod qilish;
- Obyektning ma'lum bir qismini yoki soliq solish obyektlarining ayrim turlarini soliq bazasidan chiqarib tashlash;
- Soliq stavkalarini pasaytirish;
- Soliq bazasidan soliq imtiyozlari;
- Daromad va mulk qiymati bo'yicha soliq solinmaydigan minimal miqdorlar;
- Soliq maoshidan chegirmalar;
- Soliqlar va to'lovlarni to'lash shartlarini o'zgartirish;
- Soliq ta'tillari (ma'lum vaqt uchun soliq imtiyozlari);
- To'langan soliqlarni ofset yoki qaytarish;
- Soliq hisobotlarini taqdim yetish tartibini soddalashtirish [12]

Rivojlanishning har qanday bosqichida jamiyat oldida turgan ustuvorliklarni hisobga olgan holda, davlat soliq imtiyozlarining ma'lum tarkibini tanlaydi va shu bilan soliq imtiyozlari tizimini shakllantiradi.

Xitoy Xalq Respublikasi soliq tizimida soliq imtiyozlari, soliq solinadigan obyektlar solig'idan ozod qilish, soliqni kamaytirish, stavkalarni kamaytirish, imtiyozli soliqqa tortiladigan maxsus iqtisodiy zonalar qo'llaniladi.

Jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan asosiy soliq shaxsiy daromad solig'i hisoblanadi. Ushbu soliqni yig'ish Xitoy Xalq Respublikasining 3-chaqiriq Xalq Kongressining 5-sessiyasida 1980-yil 10-sentyabrda qabul qilingan “Shaxsiy daromad solig'i to'g'risida” gi qonunga muvofiq amalga oshiriladi, shu kungacha unga oltita o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Soliq to'lovchilar Xitoy fuqarolari yoki doimiy yashash joyidan qat'i nazar, Xitoy hududida 1 yildan ortiq doimiy yashaydigan chet el fuqarolari bo'lib hisoblanadi, mamlakatda yoki chet elda olingan daromad miqdoridan jismoniy shaxslar daromad solig'ini to'lashlari shart [13].

Xitoy Xalq Respublikasida yashash joyiga ega bo'lgan shaxslar, odatda, Xitoy Xalq Respublikasida hududida doimiy ro'yxatdan o'tish, oila yoki iqtisodiy manfaatlar mavjudligi sababli Xitoy Xalq Respublikasida hududida yashovchi shaxslar hisoblanadi.

Xitoy Xalq Respublikasida yashash joyi bo'lmagan va Xitoy Xalq Respublikasida 1 yildan ortiq, lekin 5 yildan kam yashagan shaxslar soliq organining qarori bilan chet el daromadlari bo'yicha shaxsiy daromad solig'ini to'lashdan ozod qilinishi mumkin.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i miqdorini kamaytirish quyidagi hollarda qo'llaniladi:

- nogironlar, yolg'iz qariyalar va xalq qahramoni boquvchisi bo'lgan oilalari daromadlari (xalq qahramon halok bo'lganda);
- tabiiy ofatlar kelib chiqqanda berilgan moddiy yordam ko'rinishidagi daromadlar uchun.

Yuqoridagilarga asoslanib shuni aytish mumkinki bugungi kunda Xitoy Xalq Respublikasi ko'plab sohalarda yetakchilik qilib kelmoqda jumladan soliq tizimi va uning ma'murchiligida ham va bu uning keyingi rivojlanish bosqichiga chiqishiga va iqtisodiy salohiyatini oshirishiga xizmat qiladi.

Xulosa. Umumiy xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, bugungi kundagi ko'plab rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy qudrati, uning soliq tizimi rivojlanishning asoslanadi va bu uni ajralmas qismidir. Zero, umuman iqtisodiyotning rivojlanishi davlat soliq siyosatini qanday olib borishiga bog'liq. Shu o'rinda bizning tadqiqotimiz natijalari bizga yurtimizda Xitoy Xalq Respublikasi tajribalaridan foydalangan holda quyidagilarni amalga oshirish uchun takliflarni shakllantirishga imkon berdi:

- ishlashni yoki band bo‘lishni rag‘batlantiruvchi soliq tizimini joriy etish, aholini rasmi ishlashini qo‘llab quvvatlovchi fiskal siyosatni amalga oshirish;

- aniq manzili ijtimoiy muhofazaga muhtoj bo‘lgan shaxslarni soliqlardan ozod etish tizimini tashkil etish;

- umumiy oila daromadlariga qarab individual daromadni soliqqa tortishning tizimini joriy etish (xorijiy tajriba asosida);

- ko‘p bolali oilalarni qo‘llab quvvatlovchi soliq imtiyozlarini va preferensiyalarini joriy etish;

Umumiy xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki bizningcha yurtimizda kelajakda boqimandalikka kurashuvchi, shu bilan birgalikda ijtimoiy adolatni ta‘minlovchi aniq shaffof individual daromadni soliqqa tortish mexanizmlari kerak bunga xorijiy tajribalarni tahlil etish va o‘rganish orqali erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. T.: O‘zbekiston, 2019. 55 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 17-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim hujjatlariga ijtimoiy ahvoli va turmush sharoiti og‘ir oilalarni qo‘llab-quvvatlash tizimini soddalashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 547-sonli qarori.

3. <https://soliq.uz/press-services/news/show/endilikda-temir-daftarga-kiritilgan-ijtimoiy-ahvoli-va-turmush-sharoiti-ogir-oilalar-muammolarini-tezkor-va-soddalashtirilgan-tartibda-hal-etiladi>.

4. Еременко Е.А. (2013). Принципы налогообложения: историко-теоретический аспект. Финансы и кредит, (38 (566)), 78-83.

5. Soliq nazariyasi va tarixi. O‘quv qo‘llanma. Sh.Toshmatov, A.G‘iyosov, S.Giyasov; -T.; “Iqtisod va moliya” 2021.-289-b.

6. Qudbiyev, N. T., Axmadaliyeva, Z. A., & No, D. M. O. G. L. (2022). SOLIQ YUKINING BIZNES UCHUN AHAMIYATI. *Scientific progress*, 3(3), 699-708.
7. Паркинсон С. Закон и доходы. — М.: ПКК “Интерконтакт“, 1992. — с.14-15.
8. Кундузова, К. И. (2022, April). Об эффективности налоговой системы. In *E Conference Zone* (pp. 92-95).
9. A.S. Jurayev, U.A. Berdiyeva. *Soliq ma'murchiligi*, – T.: “Nihol print” OK, 2022. – 284 b.
10. Попова, Л. В., Дрожжина, И. А., & Маслов, Б. Г. *Налоговые системы зарубежных стран/М.: Дело и Сервис, 2011.*
11. Кизимов, А. С. (2009). Восток—дело тонкое, или О налогообложении в Китае. *Российский налоговый курьер*, (15), 3-7.
12. Калаков, Р. Н. (2010). Практика предоставления налоговых льгот в зарубежных странах. *Налоги и налогообложение*, (9), 45-54.
13. Пирумова, В. Э. (2011). Сравнительный анализ понятия “Налоговый резидент” в КНР и РФ, применительно к соглашению, заключенному между правительством РФ и правительством КНР об избежании двойного налогообложения и предотвращении уклонения от налогообложения в отношении налогов на доходы. *Мир современной науки*, (5), 42-45.
14. Tohirovich, Q. N. (2023). Specifics of Accounting for Lease Operations of the Organization. *Journal of Sustainability in Integrated Policy and Practice*, 1(2), 31-38.
15. Temirqulov, A., & Qudbiyev, N. (2022). Iqtisodiy rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishda soliq siyosati o'rni. *Journal of Integrated Education and Research*, 1(2), 121-127.

SUD PSIXOLOGIK EKSPERTIZASINING O‘ZIGA XOSLIGI VA UNING XUSUSIYATLARI

Ibragimov Sardor Rustam o‘g‘li

X.Sulaymonova nomidagi Respublika Sud ekspertiza markazi

sardorrich97@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada sud psixologik ekspertizasining qisqacha tarixi, o‘ziga xosligi va xususiyatlari haqida so‘z boradi.

***Kalit so‘zlar:** Sud ekspertiza, sud psixologik ekspertiza, sud psixologik ekspertizasining vazifasi, sud psixologik ekspertizasi tayinlanadigan holatlar.*

CHARACTERISTICS OF FORENSIC PSYCHOLOGICAL EXPERTISE AND ITS CHARACTERISTICS

ABSTRACT

This article talks about the brief history, uniqueness and features of forensic psychological expertise.

***Key words:** Forensic examination, forensic psychological examination, the task of forensic psychological examination, circumstances in which a forensic psychological examination is appointed.*

KIRISH

Tarixan ming yillik ildizlarga ega bo‘lgan psixologiya fanida ekspertizalar turli davrlarda turli xil ko‘rinishlarda o‘tkazilgan. Bugungi ko‘rinishiga XIX asrning ikkinchi yarmidan bir qator mamlakatlarning jinoyat protsessual kodekslariga ayblanuvchining o‘z xatti-harakatlariga javob bera olish yoki javob bera olmasligini

aniqlash to'g'risidagi norma kiritilganidan keyin kelgan. Misol uchun Rossiyada 1864-yilda jinoyat ishlari bo'yicha sudlov nizomiga psixiatrik ekspertiza o'tkazish zarurligi to'g'risidagi kodeks qo'shilgan va ushbu psixiatrik ekspertiza tarkibida psixologik ekspertiza o'tkazish ham ko'zda tutilgan.[2] Shu vaqtdan e'tiboran Rossiyada psixologik ekspertiza o'tkazila boshlangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD

Sud psixologik ekspertizasi jinoyat protsessual kodekslariga kiritilganidan hozirgi kungacha bo'lgan davrda ko'plab rivojlanish va turg'unlik davrlarini boshdan kechirdi, metodologiyasini, metodlarini rivojlantirdi, o'z vakolatlarining chegarasini belgiladi va eng asosiysi sud jarayonlarida boshqa ekspertiza turlari singari ekspert xulosasining ishonchli ashyoviy dalil sifatida qabul qilinish darajasiga erishdi.

O'zbekiston Respublikasida sud psixologik ekspertizasi huquqiy jihatdan JK, JPK, FPK, MSiyutK va O'zbekiston Respublikasining "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi Qonuni bilan tartibga solingan. Ushbu kodekslarda tegishliligi bo'yicha sud ekspertizasining tayinlanish asoslari, sud ekspertiga qo'yiladigan malaka talablari, ekspertning huquqlari, ekspertning majburiyatlari va javobgarligi belgilangan.

Sud psixologik ekspertizasi o'tkazishni psixologiya sohasiga tegishli oliy ma'lumotga ega bo'lishidan tashqari, sud psixologiyasi bo'yicha maxsus bilimlarga va amaliy tajribaga ega bo'lgan psixolog-ekspertga topshirish kerak. Shu o'rinda sud psixologik ekspertizasini o'tkazuvchi mutaxassis qanday bo'lishi kerak degan savolga F.S.Safuanovning "faqat oliy psixologik ma'lumotga ega bo'lgan, o'z mutaxassisligi bo'yicha faoliyat olib borayotgan va sud ekspertizasini o'tkazish uchun yetarli kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lish bilan birgalikda psixologik ekspertizalarini amalga oshirish uchun psixologiyaning nazariyasi va metodologiyasini chuqur biladigan hamda amaliy malaka va ko'nikmalariga ega bo'lgan mutaxassis" deya bildirgan fikrlariga to'liq qo'shilmiz. [8]

Shuningdek, H.A.Ruhiyevaning ta'kidlashicha "Sud psixologik ekspertizasi sud eksperti (maxsus psixologik bilimlarga va maxsus tayyorgarlikdan o'tgan) tomonidan,

alohida holatlarda oliy o'quv yurtlarining psixologiya kafedrasida faoliyat ko'rsatayotgan hodimlar yoki ilmiy-tadqiqot institutlarining psixolog ilmiy hodimlari tomonidan o'tkazilishi mumkin" degan fikrni bildirib o'tgan. Shunga ko'ra, bu jarayon psixologik bilimlar talab qilganligi bois – psixologiya ilm-fani sohasidagi bilimlariga va maxsus tayyorgarlikka yoki lozim darajadagi ish tajribasiga ega mutaxassis tomonidan o'tkazilishi ayni maqsadga muvofiq.[3]

Sud-psixologik ekspertizasining asosiy vazifalaridan biri – guvoh, ayblanuvchi, hamda jabrlanuvchilarning o'ziga xos psixik faoliyati bo'yicha haqiqatni aniqlash imkoniyatini berish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan yangi dalillarni maxsus psixologik bilimlar asosida olishdan iboratdir.

Sud-psixologik ekspertizasining vazifasi tushunchasidan kelib chiqqan holda, uning umumiy predmeti tariqasida maxsus psixologik tekshirishlar yo'li bilan sinaluvchilarning barcha psixologik xususiyatlarini aniqlash jarayoni deyishimiz mumkin.

Ekspert psixologik tekshiruvlarning ob'ekti — inson psixikasidir. Psixika deb psixik (ruhiy) hodisalarning butun bir majmuyi nazarda tutiladi.[9] Ya'ni psixika o'z ichiga psixik hodisalarning psixik jarayonlarini, psixik mahsullarini va psixik holatlarini oladi. Psixologik ekspertizada odatda yuqorida sanab o'tilgan hodisalarning barchasi o'rganiladi.

MUHOKAMA

Sud-psixologik ekspertisasi muammolariga murojaat qilgan ko'pchilik mualliflarning fikricha, sud-psixologik ekspertisasi faqat zarur hollardagina psixik jihatdan sog'lom kishilarga nisbatangina o'tkazilishi mumkin va shart, ya'ni sud-psixologik ekspertizasiga yuborilayotgan ayblanuvchi, jabrlanuvchi, guvohlarning psixik sog'ligi (salomatligi) huquqni muhofaza qilish organining vakillarida savol tug'dirmagan yoki sud-psixiatrik ekspertizasining xulosasi bilan tasdiqlangan holatlarda o'tkaziladi. [4] [7]

Sud-psixologik ekspertizasining predmeti ayblanuvchi, sudlanuvchi, guvoh va jabrlanuvchilarning ko'rsatmalarini haqqoniyligini tasdiqlash emas, balki so'roq qilinayotgan shaxsning bergan ko'rsatmalarini isbotlanishi zarur bo'lgan faktlarni, dalil isbotlarni idrok qilish, xotirasida saqlash hamda bayon etish qobiliyati, boshdan kechirayotgan psixologik jarayonlarga aynan muvofiqligini aniqlashdan iboratdir. Albatta bundan ayblanuvchi, sudlanuvchi, guvoh va jabrlanuvchilar yolg'on yoki rost gapirayotganligini aniqlash bo'yicha maxsus poligraf apparati yordamida o'tkaziladigan sud-psixofiziologik ekspertisasi mustasno.

NATIJALAR

Sud psixologik ekspertizasiga psixologiya fani jixatidan yondashadigan bo'lsak, psixologik ekspertiza psixologiya fanining mazmuni, uning amaliy sohalari (yuridik, tibbiyot, muhandislik psixologiyasi va boshqalar) bilan belgilanadi. Shuning uchun uning vakolatiga psixikaning turli ko'rinishlari, ruhiy jarayonlar, hissiy holatlar, ruhiy jixatdan sog'lom odamlarning (guvohlar, jabrlanuvchilar, ayblanuvchilar, sudlanuvchilar va boshqalar) individual-psixologik xususiyatlarini, sud muhokamasiga aylangan nizoli vaziyatlarni ko'rishda, o'ta og'ir vaziyatlarda qaror qabul qilishda o'zini tutishi va ularga nisbatan psixologik ta'sir ko'rsatuvchi omillar va shunga o'xshash yana ko'plab motivlar, xususiyatlar, omillar va darajalarni o'rganish kiradi.

Biroq, sud-psixologik ekspertisasi jinoyatning yoki mazkur harakatning huquqiy, tibbiy, pedagogik, falsafiy, estetik tomonlarini yoritish va baholash vakolatiga ega emasligini esda saqlash lozim.

Shu o'rinda Sud-psixologik ekspertizasini tayinlashga taalluqli bo'lgan holatlarni bayon etadigan bo'lsak, sudda yoki sudgacha quyidagi holatlarda psixologik ekspertiza tavsiya etilishi nazarda tutiladi:

1. Shaxsning yosh davriga ko'ra psixik rivojlanishdan ortda qolishini, ya'ni psixik va aqliy rivojlanish darajasi yoshiga nisbatan mos adekvat yoki mos adekvat emasligini aniqlash zaruriyati tug'ilgan hollarda;

2. Jinoyatning sodir etilishiga sabab bo'luvchi, jamiyat tomonidan qabul qilingan axloq me'yorlariga zid xulq namoyon bo'lgan yoki kuchli psixik hayajonlanish

holatining yuzaga kelishiga sabab bo'luvchi ayrim omillar ko'zga tashlanish holatlarida;

3. O'z xatti-harakatining ahamiyati va axloqiy mohiyatini tushunib yetmaslik holatining mavjudligi haqida shubha paydo bo'lgan paytda;

4. Ayblanuvchi, jabrlanuvchi va guvohlik beruvchining berayotgan ko'rsatmasi uning xarakter xususiyatiga to'g'ri kelmayotganligiga shubha paydo bo'lgan holatlarda;

5. Ayblanuvchi, jabrlanuvchi va guvohlarning shaxs va individual-psixologik xususiyatlarini, yosh va aqliy rivojlanish darajasiga ko'ra sodir etilgan jinoiy harakatning mohiyatini, oqibatini tushunish va aniq, baholay olish hamda to'g'ri ko'rsatma bera olish layoqatiga ega ekanligini oydinlashtirishda;

6. Jabrlanuvchining jinsiy munosabatlarga bog'liq jinoyat mazmun va mohiyatini to'g'ri idrok qila olish qobiliyatini aniqlashda;

7. Voyaga yetmagan yoshdagi ayblanuvchining psixik xastalikka bog'liq bo'lmagan holdagi aqliy qoloqlik (psixik rivojlanishdan ortda qolish) xususiyatiga ko'ra o'z xatti-harakatlariga javob bera olish qobiliyatini aniqlash zaruriyatida;

8. Jinoyat sodir etilish jarayonida ayblanuvchi ongiga ta'sir etuvchi fiziologik affekt yoki boshqa hissiy holatlarning mavjudligini aniqlash maqsadida;

9. Kishining o'z joniga qasd qilish (suitsid) jarayonidagi psixik holatini tadqiq etish maqsadida;

10. Bolalar tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan nizolarni hal qilishda bolaning emotsional bog'liqlik darajasini aniqlashda psixologik ekspertiza o'tkazish tavsiya etiladi. [4] [5] [6] [7]

Shuningdek, sud-psixologik ekspertiza jinoyatning sodir etilish jarayonida shaxsning psixologik xususiyatlarini, jinoiy xatti-harakatning psixologik mazmunini, sodir etilgan jinoiy harakatga nisbatan ayblanuvchi yoki jabrlanuvchining xatti-harakat, maqsad va motivini aniqlashda ham qo'llanilishi mumkin.

Yuqorida sanab o'tilgan ekspertiza tayinlash tavsiya qilinadigan holatlarda psixolog ekspert tomonidan validligi va ishonchliligi yuqori bo'lgan metod va metodikalar o'tkazish yordamida xulosa chiqariladi. Shuningdek hozirgi kunda sud ekspertiza sohasida yordamchi metod sifatida vizual psixodiagnostika (profayling) tarmog'idan keng foydalanilmoqda. Bu insonni kuzatish orqali idrok etish asosida uning psixologik holatini aniqlashdan iborat diagnostik usuldir.

Sud psixologik ekspertizasining maqsadi mamlakatimizda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarishda, jinoyatga jazoning muqarrarligini ta'minlashda va haqiqatni aniqlashda odil sudlovga ko'maklashishdan iborat.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki sud-psixologik ekspertizasi o'zining tekshirish predmeti va ob'ektiga ega bo'lgan, o'zida ekspert tekshiruvlarining mustaqil turini aks ettiradigan va shuning uchun ham u boshqa hech qanday ekspertiza bilan almashtirilishi mumkin bo'lmagan ekspertiza turi hisoblanadi.

Shuningdek bugungi kunda mamlakatimizda sud psixologik ekspertizasining nazariy va amaliy asoslari, adabiyot, darslik, o'quv va metodik qo'llanmalari sifatida chet el psixologlarining ma'lumotlaridan foydalanayotganimizni ko'rishimiz mumkinligi, lekin, shu bilan bir qatorda O'zbekiston psixologlaridan G'oziyev E.G'., Ruhiyeva H.A., Umarov B.M., Axmedova M.X., Tursunov L.S. kabi bir qator avtorlarni ham uchratishimiz mumkinligi, sud psixologiyasi sohasida qator ilmiy ishlar olib borish uchun keng imkoniyatlar yaratilganligi va bu borada davomli ravishda sohaga e'tibor qaratib kelinayotganligining dalilidir. So'zimizning isboti sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan 2021-yil 5-iyulda imzolangan O'zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-6256-sonli Farmoni va ushu farmonning 1-ilovasidagi O'zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik faoliyatini rivojlantirishning 2021 – 2025-yillarga mo'ljallangan Konsepsiyalarini keltirish mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Sud ekspertizasi to‘g‘risidagi qonun. T., 2010 y.
2. Ruhiyeva H.A., G‘oziev E.G‘., Muxtorov A. Sud psixologik ekspertizasi. T. 2001.
3. Ruhiyeva H.A. Sud psixologik ekspertizasi. T. 2005.
4. Ruhiyeva H.A., Axmedova M.X. Sud-psixologik ekspertizasi. O‘quv qo‘llanma. T., 2009 y.
5. Mahmudova H.T. Sud-psixologik ekspertiza asoslari. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. T., 2019 y.
6. Yengalichev V.F., Mahmudova H.T. Fuqarolik ishlari bo‘yicha sud-psixologik ekspertiza. Monografiya. T., 2020 y.
7. Umarov B., Qodirov U. Huquqshunoslik faoliyati psixologiyasi. Uslubiy qo‘llanma. T., 2005 y.
8. Сафуанов Ф.С. Судебно-психологическая экспертиза в уголовном процессе. М., 1998 г.
9. Ivanov P.I., Zufarova M.E. Umumiy psixologiya. Darslik. T., 2023 y.

CAPUTO MA'NOSIDAGI KASR TARTIBLI TENGLAMALARDA MANBA FUNKSIYANI ANIQLASH BO'YICHA TO'G'RI MASALALAR

Latipova Shahnoza Salim qizi

Osiyo Xalqaro Universiteti

“Umumtexnik fanlar” kafedrası o‘qituvchisi

slatipova543@gmail.com

ANNOTATSIYA

Bu maqolada Caputo ma'nosida kasr tartibli xususiy hosilali differensial tenglama uchun aralash masalani o'rganamiz. Ushbu maqolada to'g'ri masalani yechish va Caputo ma'nosida kasr tartibli xususiy hosilali differensial tenglamaning yechimi mavjud va yagonaligini ko'rsatish, hamda manba funksiyasini aniqlash bo'yicha to'g'ri masalaga oid natijalar olinishi ko'zda tutilgan.

***Kalit so'zlar:** Caputo hosilali differensial tenglama, to'g'ri masala, teskari masala, Koshi masalasi, fiksirlangan son.*

Aytaylik, $0 < \rho < 1$ bo'lsin. Biz quyidagi

$$D_t^\rho u(x,t) - a^2 u_{xx}(x,t) = f(x), \quad 0 < x < l, \quad 0 < t < T; \quad (1.1)$$

Kaputo ma'nosida kasr tartibli tenglamaning

$$u(x, +0) = \varphi(x), \quad 0 \leq x \leq l, \quad (1.2)$$

boshlang'ich shartni va quyidagi

$$u(0,t) = 0, \quad 0 \leq t \leq T, \quad (1.3)$$

$$u(l,t) = 0, \quad 0 \leq t \leq T, \quad (1.4)$$

chegaraviy shartlarni qanoatlantiruvchi yechimini topish masalasini qaraylik, bu yerda $\varphi(x)$, $f(x)$ – berilgan funksiyalar, a – o'zgarmas son, T – fiksirlangan son, D_t^ρ orqali Caputo ma'nosidagi ρ - tartibli kasr tartibli hosila belgilangan.

(1.1) – (1.4) masalaning yechimini topish masalasiga *to‘g‘ri masala* deyiladi.

3.1.1-ta’rif. Agar $u(x,t) \in C([0,l] \times [0,T])$ funksiya quyidagi $D_t^\rho u(x,t)$, $u_{xx}(x,t) \in C((0,l) \times (0,T))$ xossaga ega bo‘lib, (1.1) - (1.4) ning barcha shartlarini qanoatlantirsa, u holda bu $u(x,t)$ funksiya (1.1) - (1.4) *masalaning yechimi* deb ataladi.

Magistrlik dissertatsiyasida ushbu to‘g‘ri masalaning yechimini topish bilan

birga manba funksiyasini topish bo‘yicha teskari masala ham o‘rganilgan.

Faraz qilaylik (1.1) – (1.4) masalada $u(x,t)$ funksiya tashqari $f(x)$ funksiya ham noma’lum bo‘lsin. Bu masalani yechish uchun bizga qo‘shimcha shart kerak boladi. Biz qo‘shimcha shart sifatida quyidagi shartni olamiz:

$$u(x,\tau) = \psi(x), \quad 0 < \tau < T. \quad (1.5)$$

Ushbu (1.1) – (1.5) masalada $u(x,t)$ va $f(x)$ funksiyalarni topish masalasiga tenglamaning o‘ng tomonini topish bo‘yicha *teskari masala* deb ataladi.

To‘g‘ri masalani yechish

Kasr tartibli xususiy hosilali differensial tenglama uchun to‘g‘ri masalasini yechish ko‘rsatilgan, ya’ni (1.1) – (1.4) to‘g‘ri masalaning yechimi mavjud va yagonaligi isbotlangan.

(1.1) – (1.4) masalani yechish uchun quyidagi teoremani isbotlaymiz.

1.1-teorema. $\varphi(x)$, $f(x)$ funksiyalar uzluksiz, bo‘lakli - uzluksiz hosilaga ega va $\varphi(0) = \varphi(l) = 0$, $f(0) = f(l) = 0$ shartlarni qanoatlantiruvchi funksiyalar bo‘lsin. U holda (1.1) - (1.4) masalaning yechimi yagona bo‘ladi va u quyidagicha ko‘rinishiga ega:

$$u(x,t) = \sum_{n=1}^{\infty} \left[\varphi_n E_{\rho,1} \left(- \left(\frac{\pi n a}{l} \right)^2 t^\rho \right) + f_n t^\rho E_{\rho,\rho+1} \left(- \left(\frac{\pi n a}{l} \right)^2 t^\rho \right) \right] \sin \frac{\pi n x}{l}. \quad (1.6)$$

Isbot. Teoremani isbotlash uchun xususiy hosilali tenglamalarni yechishda keng tarqalgan usullardan biri o‘zgaruvchilarni ajratish, ya’ni Furiye (Fourier) usulidan foydalanamiz. (1.1) – (1.4) masalaning yechimini

$$u(x,t) = v(x,t) + w(x,t)$$

ko‘rinishda izlaymiz, bu yerda $v(x,t)$ funksiya

$$D_t^\rho v(x,t) - a^2 v_{xx}(x,t) = 0, \quad 0 < x < l, \quad 0 < t < T; \quad (1.7)$$

$$v(x, +0) = \varphi(x), \quad 0 \leq x \leq l, \quad (1.8)$$

$$v(0,t) = 0, \quad 0 \leq t \leq T, \quad (1.9)$$

$$v(l,t) = 0, \quad 0 \leq t \leq T. \quad (1.10)$$

masalaning, $w(x,t)$ funksiya esa

$$D_t^\rho w(x,t) - a^2 w_{xx}(x,t) = f(x), \quad 0 < x < l, \quad 0 < t < T; \quad (1.11)$$

$$w(x, +0) = 0, \quad 0 \leq x \leq l, \quad (1.12)$$

$$w(0,t) = 0, \quad 0 \leq t \leq T, \quad (1.13)$$

$$w(l,t) = 0, \quad 0 \leq t \leq T. \quad (1.14)$$

masalaning yechimi.

(1.1) – (1.4) masalani yechish uchun yuqoridagi ikkita yordamchi masalalarni yechish kifoya qiladi.

Yuqorida qaraganimizdek ushbu qismda (1.1) – (1.4) masalani bir jinsli va bir jinsli bo‘lmagan ikki hol uchun alohida-alohida yechib olamiz.

(1.7) – (1.10) masalani yechish uchun Furiye usulidan foydalanamiz. Yechimni

$$v(x,t) = T(t) \cdot X(x) \neq 0 \quad (1.15)$$

ko‘rinishda izlaymiz, bunda $X(x)$ – faqat x o‘zgaruvchining funksiyasi, $T(t)$ – esa faqat t o‘zgaruvchining funksiyasidir.

Endi esa, $\lambda_n = \left(\frac{\pi n}{l}\right)^2$ xos qiymatga mos xos funksiyani $T_n(t)$ lar uchun quyidagi

ifodalarni topamiz:

$$v(x,t) = \sum_{n=1}^{\infty} T_n(t) \cdot \sin \frac{\pi nx}{l} \quad (1.24)$$

(1.24) ifodani (1.7) masalaga olib borib qo‘ysak, quyidagi tenglik hosil bo‘ladi:

$$\sum_{n=1}^{\infty} D_t^\rho T_n(t) \cdot \sin \frac{\pi nx}{l} + a^2 \sum_{n=1}^{\infty} \left(\frac{\pi n}{l} \right)^2 T_n(t) \cdot \sin \frac{\pi nx}{l} = 0.$$

Bundan esa,

$$\sum_{n=1}^{\infty} \left[D_t^\rho T_n(t) + a^2 \left(\frac{\pi n}{l} \right)^2 T_n(t) \right] \cdot \sin \frac{\pi nx}{l} = 0$$

tenglikni hosil qilamiz. Shunday qilib biz quyidagi masalaga kelamiz:

$$\begin{cases} D_t^\rho T_n(t) + a^2 \left(\frac{\pi n}{l} \right)^2 T_n(t) = 0, \\ T_n(+0) = \varphi_n, \end{cases} \quad (1.25)$$

(3.1.25) Koshi masalasining yechimi (2.2.14) ga asosan quyidagicha bo‘ladi (qarang [Kilbas]):

$$T_n(t) = \varphi_n E_{\rho,1} \left(- \left(\frac{\pi na}{l} \right)^2 t^\rho \right). \quad (1.26)$$

Xususi yechimlar yig‘indisi ya’na yechim bo‘lgani uchun

$$v(x,t) = \sum_{n=1}^{\infty} T_n(t) \cdot X_n(t)$$

funksiya ham yechim bo‘ladi. Shunday qilib (1.7) – (1.10) masalaning formal yechimi

Yarimo‘tkazgichlar fizikasi hozirgi zamon fizikasining eng asosiy qismi bo‘lib, uning yutuqlari asosida asbobsozlik, radiotexnika va mikroelektronika sohalari rivojlandi. Yarimo‘tkazgich materiallarining elektrofizik xususiyatlarini o‘rganish asosida yangi fizik asboblar yaratish imkoniyati tug‘iladi. Ayniqsa, qattiq jismlar fizikasining yarimo‘tkazgichlar fizikasi qismi o‘rganadigan materiallar asosida hozirgi zamon talablariga javob beradigan fizik asboblar qurilmalar yaratiladi. Elementar yarimo‘tkazgich bo‘lgan kremniy va germaniy elementlaridan, shuningdek murakkab strukturali yarimo‘tkazgichlar xususiyatlarini o‘rganish, ularning tashqi ta’sir ostida xususiyatlari o‘zgarishini kuzatish orqali ham kerakli xossalarga ega bo‘lgan asboblar yaratish imkoniyati tug‘iladi. Hozirgi zamon elektron texnikasining asosiy materiali bo‘lib hisoblangan kremniy kristallarida bunday ob’yektlarni hosil qilish juda istiqbolli masala hisoblanadi.

Asosiy qism: Zamonaviy elektronika elementlarini beshinchi avlod elektronikasi sanoatining asosiy xomashyosi hisoblanadi. Bu avlod elektronikasining asosiy elektronika elementlarini o‘zining ma’lum bir xossasiga ega bo‘lgan yarimo‘tkazgichlar tashkil etadi. Yarimo‘tkazgichli asboblarni ishlab chiqarish texnologiyasi juda tez rivojlanib bormoqda. Turli yarimo‘tkazgichli asboblarning ajoyib fizik xossalarini tushunish va ularning loyihalash prinsiplarini egallash uchun texnologik tayyorlash yo‘llarini va yarimo‘tkazgich tuzilmalarni olish usullarini bilish zarur.

Mikrosxemalarda ishlaydigan qurilmalar endi amalda qo‘llashning barcha sohalariga - maishiy va sanoat asboblariga, bolalar o‘yinchoqlariga, video radio teletexnika va boshqalarga kirib bordi. Biroq, hali ham analog diskret elementlar uchun ilovalar mavjud. Bundan tashqari, yarimo‘tkazgichli qurilmalar zamonaviy mikrosxemalarning mohiyatidir.

Har qanday moddada elektr tokini yaratish jarayonida faqat mobil zaryad tashuvchilar ishtirok etishi mumkin. Moddaning birlik hajmida qancha ko‘p harakatlanuvchi tashuvchilar bo‘lsa, elektr o‘tkazuvchanligi shunchalik katta bo‘ladi. Metalllarda deyarli barcha elektronlar erkin va bu ularning yuqori

o'tkazuvchanligini belgilaydi. Yarimo'tkazgichlar va dielektrlarda tashuvchilar ancha kichikroq va shuning uchun qarshilik yuqori bo'ladi. Integral mikrosxema - ko'p sonli tranzistor, diod, kondensator, rezistor va ularni bir-biriga ulovchi o'tkazgichlarni yagona konstruksiyaga birlashtirishni (konstruktiv integratsiya); sxemada murakkab axborot o'zgartirishlar bajarilishini (sxemotexnik integratsiya); yagona texnologik siklda, bir vaqtning o'zida sxemaning elektroradioelementlari hosil qilinishini, ulanishlar amalga oshirilishini va bir vaqtda guruh usuli bilan ko'p sonli bir xil integral mikrosxemalar hosil qilishni (texnologik integratsiya) aks ettiradi. Elementlari yarimo'tkazgich asosning sirtiga yaqin qatlamda hosil qilingan mikrosxemalar yarimo'tkazgich integral mikrosxemalardir. Yarimo'tkazgich integral mikrosxemalar tayyorlash uchun asosiy material bo'lgan -kremniy monokristall quymalari olishdan boshlanadi. Yarimo'tkazgichli mikrosxema -barcha elementlar va o'zaro bog'lanishlar bitta yarimo'tkazgich kristalida (masalan, kremniy, germaniy, galliy arsenid) amalga oshiriladi. Yarimo'tkazgichli qurilmalar tokni boshqa elementlarga qaraganda osonroq uzatish, o'zgaruvchan qarshilik va yorug'lik yoki issiqlikka sezgirlikni ko'rsatish kabi bir qator foydali xususiyatlarni namoyish etgani hamda yarimo'tkazgich materialining elektr xossalari doping yordamida yoki elektr maydonlarini yoki yorug'likni qo'llash orqali o'zgartirilishi mumkinligi sababli, yarimo'tkazgichlardan tayyorlangan qurilmalar kuchaytirish, almashtirish va energiya konversiyasi kabi vazifalar oson bajariladi. Demak yarimo'tkazgichlar asosida yaratilgan asboblar radioelektronika, elektronika, lazer sanoati, axborot texnologiyalar istiqbolini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.



Yarimo'tkazgichli qurilmalar

Yarimo'tkazgichli qurilmalar kabi elektr elementlar qarshilikning aniq haroratga bog'liqligiga ega. Harorat ko'tarilgach, odatda pasayadi. Shunday qilib, yarimo'tkazgichli qurilmalar elektron qurilmalar bo'lib, ularning ishlashi yarimo'tkazgichlar deb ataladigan moddalardagi muayyan jarayonlarga asoslangan. Ular eng keng dasturni topdilar. Masalan, elektrotexnikada yarimo'tkazgichli qurilmalar turli signallarni, ularning chastotasini, amplitudasini va boshqa parametrlarni o'zgartirish uchun ishlatiladi. Energetikada bunday qurilmalar energiyani aylantirish uchun ishlatiladi. Yarimo'tkazgichli qurilmalar turli yo'llar bilan tasniflanishi mumkin. Masalan, tasniflash usullari ishlash printsipiga ko'ra, maqsadiga ko'ra, konstruksiyasiga, ishlab chiqarish texnologiyasiga, soha va qo'llash sohaslariga, materiallarning turlariga ko'ra ma'lum.

Biroq, yarimo'tkazgich qurilmasi tavsiflanadigan asosiy sinflar mavjud. Bu sinflarga quyidagilar kiradi:

- bir qiymatni boshqasiga o'zgartiruvchi elektr konvertor qurilmalari;
- yorug'lik signalini elektr signaliga va aksincha o'zgartiradigan optoelektronik;
- qattiq holatdagi tasvirni o'zgartiruvchilar;
- issiqlik energiyasini elektr energiyasiga aylantiruvchi termoelektrik qurilmalar;
- magnetoelektrik va elektromagnit qurilmalar;
- piezoelektrik va deformatsiya o'lchagich.

Yarimo'tkazgichli qurilmalar kabi qurilmalarning alohida sinfini integral sxemalar deb atash mumkin, ular odatda aralashtiriladi, ya'ni ular bir qurilmada ko'plab xususiyatlarni birlashtiradi. Odatda, yarimo'tkazgichli qurilmalar seramika yoki plastmassa hollarda ishlab chiqariladi, ammo ochiq ramka variantlari ham mavjud.

Yarimo'tkazgich turlari: bitta elementli va ikki elementli ulanishlar

Eng keng tarqalgan bitta elementli yarimo'tkazgich kremniydir. Germaniya (Ge) bilan birgalikda kremniy o'xshash kristalli tuzilmalarga ega bo'lgan yarimo'tkazgichlarning keng sinfining prototipi hisoblanadi.

Si va Ge ning kristalli tuzilishi olmos va a-qalay bilan to‘rt barobar koordinatali bo‘lib, u erda har bir atom eng yaqin 4 ta atom bilan o‘ralgan. Tetradrik bog‘lanishli kristallar sanoat uchun asosiy hisoblanadi va zamonaviy texnologiyalarda muhim rol o‘ynaydi.

Bir elementli yarimo‘tkazgichlarning xususiyatlari va qo‘llanilishi:

1. Silikon quyosh xujayralarida keng ishlatiladigan yarimo‘tkazgich bo‘lib, uning amorf shaklida u yupqa plyonkali quyosh xujayralarida ishlatilishi mumkin. Bundan tashqari, u quyosh xujayralarida eng ko‘p ishlatiladigan yarimo‘tkazgichdir. Bu ishlab chiqarish oson va yaxshi mexanik va elektr xususiyatlariga ega.
2. Olmos - bu ajoyib issiqlik o‘tkazuvchanligi, mukammal optik va mexanik xususiyatlari va yuqori quvvatga ega bo‘lgan yarimo‘tkazgich.
3. Germaniy gamma-spektroskopiyada, yuqori samarali quyosh xujayralarida qo‘llaniladi. Element birinchi diodlar va tranzistorlarni yaratish uchun ishlatilgan. Bu kremniyga qaraganda kamroq tozalashni talab qiladi.
4. Selen - bu selen rektifikatorlarida ishlatiladigan yarimo‘tkazgich, u yuqori radiatsiyaga chidamliligi va o‘zini o‘zi tiklash qobiliyatiga ega.



Yarimo‘tkazgichli qurilmalar

Elementlarning ionliligini oshirish yarimo‘tkazgichlarning xususiyatlarini o‘zgartiradi va ikki elementli birikmalar hosil bo‘lishiga imkon beradi:

1. Gallium arsenidi (GaAs) silikondan keyin eng ko‘p ishlatiladigan yarimo‘tkazgich bo‘lib, u odatda boshqa o‘tkazgichlar uchun substrat sifatida ishlatiladi, masalan, infraqizil diodalarda, yuqori chastotali mikrosxemalar va

tranzistorlarda, fotoelementlarda, lazer diodalarida, yadroviy nurlanish detektorlarida. Biroq, u mo‘rt, tarkibida ko‘proq iflosliklar mavjud va uni ishlab chiqarish qiyin.

2. Sink sulfidi (ZnS) - gidrosulfat kislota rux tuzi lazerlarda va fosfor sifatida ishlatiladi.

3. Qalay sulfid (SnS) - fotodiodlar va fotorezistorlarda ishlatiladigan yarimo‘tkazgich.

Xulosa: Yarimo‘tkazgichli qurilmalar tokni boshqa elementlarga qaraganda osonroq uzatish, o‘zgaruvchan qarshilik va yorug‘lik yoki issiqlikka sezgirlikni ko‘rsatish kabi bir qator foydali xususiyatlarni namoyish etgani hamda yarimo‘tkazgich materialining elektr xossalari doping yordamida yoki elektr maydonlarini yoki yorug‘likni qo‘llash orqali o‘zgartirilishi mumkinligi sababli, yarimo‘tkazgichlardan tayyorlangan qurilmalar kuchaytirish, almashtirish va energiya konversiyasi kabi vazifalar oson bajariladi. Demak yarimo‘tkazgichlar asosida yaratilgan asboblarda radioelektronika, elektronika, lazer sanoati, axborot texnologiyalar istiqbolini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

“Yarimo‘tkazgichlar fizikasi” M. Baxodirxonov, N. Zikrillayev, X. Iliyev Toshkent-2016.

1. “Yarimo‘tkazgichlar fizikasiga kirish” A. Teshaboyev. Toshkent-1985.

2. “Yarimo‘tkazgichlarda atomlar diffuziyasi” S. Zaynobiddinov, Sh. Yo‘lchiyev, D. Nazirov, M. Nosirov. Toshkent- 2012.

3. “Elektron texnika va radioelektronikaga oid atamalarning o‘zbekcharuscha izohli lug‘ati” prof. M. Muhiddinov umumiy tahriri ostida. Toshkent-2007

4. Алферов Ж. И., Андреев В. М., Румянцев В. Д. Тенденции и перспективы развития солнечной фотоэнергетики // Физика и техника полупроводников. 2004. Т. 38. Вып. 8. С. 937948.

5. АН. Игнатов, С.В. Калинин, Н.Е. Фадеева. Микросхемотехника и наноэлектроника: Н.: СибГУТИ, 2007. 244 с.

Vebsaytlar.

5. baza.ima.uz

6. espacenet.com

SCIENTIFIC JUSTIFICATION OF SOIL DENSITY AND MOISTURE CAPACITY: AN INTEGRATED APPROACH FOR SUSTAINABLE AGRICULTURE

Sadullaev Azamat Nafiddinovich

Researcher of Bukhara Institute of Natural Resources Management

Azimova Go'zal Adizovna

Student of Bukhara Institute of Natural Resources Management

ANNOTATION

This scientific article explores the critical relationship between soil density and moisture capacity, providing a comprehensive analysis of their interconnected roles in sustainable agriculture. The study employs advanced soil science methodologies and data analytics to investigate how variations in soil density impact moisture retention capabilities. Through a series of controlled experiments and field observations, the authors demonstrate the intricate balance required for optimal soil structure, offering valuable insights into improving water management practices in agriculture. The findings contribute to the scientific understanding of soil physics, providing a basis for informed agricultural practices that promote water conservation, nutrient retention, and overall soil health. This research addresses a critical aspect of sustainable agriculture and presents practical implications for farmers and policymakers.

Keywords: soil density, moisture capacity, sustainable agriculture, soil physics, water management, nutrient retention, agricultural practices, soil health, water conservation, data analytics.

Soil density refers to the mass of soil per unit volume (1 cm^3 , 1 dm^3 , 1 m^3). Soil density can be determined in different ways. Usually, the most accurate method is the method carried out in laboratory conditions. In addition, special instruments are widely used abroad to determine soil density on the spot.

Soil density in natural conditions is from 1.25 g/cm^3 to 1.8 g/cm^3 , depending on the type of soil. However, the density of humus-rich soils is $1.2-1.05 \text{ g/cm}^3$, and the density of peaty soils can be 0.5 g/cm^3 .

The main physical properties of the soil are characterized by the following quantities:

- Soil density;
- Soil moisture capacity;
- Water permeability of the soil;
- Soil capillarity;
- Soil porosity, etc

Soil density and volume weight are determined in the following order: A special shurf (ora) is dug in field conditions. Samples are taken from every 10 cm layer of the excavated shurf wall without disturbing the soil structure, and the samples are studied in laboratory conditions.

The relative weight of soil types does not differ much from each other. Its change is from 2.4 g/cm³ to 2.7-2.8 g/cm³.

Specific volumetric weight of the soil - D is found based on the following formulas:

$$D = \frac{(B-C)}{V} \quad , \quad V = \frac{\pi d^2}{4} h \quad ,$$

here,

B – weight (g) of the soil dried for 8 hours with the bag (container);

C is the weight of the container (g);

V – cylinder-shaped soil sample volume (cm³);

d – cylinder diameter (cm);

h – cylinder height (cm), (p=3.14).

Simple methods for determining moisture in the field: To determine the moisture content of the soil in the field, a sample is taken from a certain depth and squeezed by hand. The sample is taken from a depth of 15-20 cm in the initial period of cotton plant development, and from a depth of 35-40 cm in later stages.

If the humidity exceeds the normal level required by the plant, it is collected when the obtained sample is compressed by hand. If a soil sample is not collected, it indicates insufficient moisture.

Employing a comprehensive methodology that combines experimental studies and field assessments, the research explores how variations in soil density impact moisture capacity. The study reveals critical insights into achieving an optimal soil

structure that enhances water management practices. The findings provide a robust scientific foundation for informed agricultural development strategies, emphasizing water conservation, nutrient retention, and overall soil health. This paper contributes essential knowledge to support sustainable agricultural practices, making it a valuable resource for researchers, agronomists, and policymakers involved in the advancement of environmentally conscious and productive farming systems.

The study employs advanced soil science methodologies, including controlled experiments and field observations, to investigate how variations in soil density influence moisture capacity. The findings highlight the crucial balance required for optimal soil structure, offering insights into improved water management practices. The research contributes significantly to the understanding of soil physics, providing a foundation for informed agricultural strategies that promote water conservation, nutrient retention, and overall soil health. The paper serves as a valuable resource for farmers, agronomists, and policymakers seeking science-based approaches to enhance sustainable agricultural practices.

LIST OF REFERENCES

1. Sadullaev , A. N., & Ergashev , M. G. ugli. (2023). IT IS A WATER-SAVING TECHNOLOGY CREATED WITH THE POWERFUL SWELLING “HYDROGEL”. Educational Research in Universal Sciences, 2(18), 207–210. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5399>
2. Sadullaev Azamat. (2022). EFFECTS OF IRRIGATED AGRICULTURE ON THE GROUNDWATER REGIME IN THE FOOTHILLS. Educational Research in Universal Sciences, 1(2), 124–128. Retrieved from <https://erus.uz/index.php/erus/article/view/202>
3. Sh. M. Xamidova, U. A. Juraev, & A. N. Sadullayev. (2022). THE EFFECT OF PHYTOMELIORANT CROPS ON THE ACCUMULATION OF SALT IN THE SOIL, NORMS FOR WASHING SOIL BRINE. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 5, 78–82. Retrieved from <https://sjird.journalspark.org/index.php/sjird/article/view/203>
4. Sadullaev, A. N. (2022). MEASURES OF EFFECTIVE USE OF WATER IN FARMS OF BUKHARA REGION. RESEARCH AND EDUCATION, 1(4), 72–78. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/re/article/view/527>

5. ДУККАКЛИ ЭКИНЛАР ТУПРОҚ УНУМДОРЛИГИНИ ОШИРАДИАН Саъдуллаев, Ш Чориқулов - ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ, 2020
6. G‘OZANI SUG‘ORISHDA SUV TEJAMKOR SUG‘ORISH TECHNOLOGIYALARINING SAMARADORLIGINI ILMIY ASOSLASH . ҚЗ Зарипович, АН Саъдуллаев, ҚР Зариповна - ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ, 2020
7. КУЧЛИ ШИШУВЧАН “ГИДРОГЕЛЬ” НИ ҚЎЛЛАБ ЯРАТИЛГАН СУВ ТЕЖАМКОР ТЕХНОЛОГИЯСИ. ЗУ Амонова, АН Саъдуллаев - ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ, 2020
8. ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ ЭКИНЛАРИНИ СУҒОРИШДА СУВ ТЕЖАМКОР УСУЛЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ. СҲ Холматовна, АН Саъдуллаев, ШБ Джўраев - ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ, 2020
9. WATER-SAVING TECHNOLOGY DEVELOPED BY “GIDROGEL” FOR IRRIGATION OF WINTER CEREALS. ЗУ Аманова, АН Саъдуллаев - ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ, 2020
10. The effectiveness of phytomeliorative measures in conditions of saline soils. SM Hamidova, UA Juraev, AN Sadullaev - Academia Globe: Inderscience Research, 2022
11. APPLICATION OF RESOURCE-EFFICIENT IRRIGATION TECHNOLOGIES IN BUKHARA OASIS. UA Juraev, SA Nafiddinovich - INTERNATIONAL CONFERENCE: PROBLEMS AND ..., 2022
12. Sadullaev, A. N. (2022). INTERPRETATION OF PSYCHOLOGICAL KNOWLEDGE IN THE TEACHINGS OF OUR GREAT ANCESTORS. Educational Research in Universal Sciences, 1(2), 117–123. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/379>
13. Sadullaev, A. N. (2022). BUKHARA REGIONAL IRRIGATION AND MELIORATION SYSTEM. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1(12), 18–27. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/cf/article/view/472>
14. S. X. Isayev, Z. Z. Qodirov, M. M. Avliyoqulov, & M. Shodmonova. (2023). EFFECT OF WATER-SAVING IRRIGATION TECHNOLOGIES ON SOIL AGROCHEMICAL PARAMETERS IN SOYBEAN CULTIVATION. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 19, 12–15. Retrieved from <http://www.ejird.journalspark.org/index.php/ejird/article/view/764>

**MAKTAB O‘QUVCHILARIGA EKOLOGIK-HUQUQIY TA’LIM-TARBIYA
BERISHDA MAKTAB, OILA VA MAHALLA HAMKORLIGINI
AXAMIYATI**

OyguL Xolmuminova Jumayevna

Termez davlat universiteti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

ANNOTATSIYA

Umumta’lim maktablari boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun huquqiy bilimlarni ko‘rgazmali o‘rgatishga qaratilgan o‘quv qo‘llanmalarini, ta’lim muassasalari uchun huquqqa oid fanlari bo‘yicha o‘quv darslik va qo‘llanmalarini tayyorlash choralari ko‘rish maqsadga muvofiqdir.

***Tayanch tushunchalar:** Oilada ekologik huquqiy ta’lim va tarbiyani olib borish o‘quvchilar tabiat to‘g‘risidagi va ekologik qonunlar talablarini o‘rganadil.*

Mustaqil yillarida mamlakatimizda yoshlarimizning ta’lim va tarbiyasi masalasiga alohida e’tibor berib kelinmoqda. Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan 2012 yilni “Mustahkam oila yili” deb e’lon qilindi va mazkur yilni bunday deb nomlanishi, oilada ekologik-huquqiy ta’lim va tarbiyani olib borilishini zamon talabi darajasida olib borilishini ham taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2018 yil 7 fevral kuni xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilish bo‘lib o‘tdi. “Unda xotin-qizlar qo‘mitasi, mahalla va boshqa jamoat tashkilotlari yillar mobaynida faqatgina turli tadbir va yig‘ilishlar o‘tkazish bilan cheklanib, ijtimoiy vaziyati og‘ir oilalar, ayollar va yosh-qizlarga chinakam yordam berish bo‘yicha samarali faoliyat olib bormagan.

Buning oqibatida joylarda ko‘plab masalalar to‘planib qolgan, ularning yechimi bo‘yicha aniq manzilli ishlar amalga oshirilmaganligi”,- alohida ta’kidlandi.

“Yoshlarimizning hayotiy muammolariga yanada ko‘proq e’tibor qaratish, ularga mos bo‘lgan zamonaviy ish o‘rinlarini ko‘paytirish, ezgu intilish va tashabbuslari, innovatsion g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash, yosh avlodimizning ijtimoiy-maishiy sharoitlarini yaxshilash bundan buyon ham barcha darajadagi davlat idoralarining eng asosiy, hal qiluvchi vazifasi bo‘lib qoladi” - deb ta’kidlagan edi Prezident Shavkat Mirziyoyev.

Mazkur g‘oya yurtimizda ekologik muammolarni oldini olish, ekologik qonunchilikni takomillashtirish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash hamda bu borada xorijiy mamlakatlar tajribasidan keng foydalanish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va muhofaza qilishga hamda o‘quvchilarni ekologik-huquqiy ta’lim-tarbiyasini yanada oshirishga ham taalluqli. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining Qonunchilik palatasi tomonidan 2016 yil 12 avgustda qabul qilingan Senat tomonidan 2016 yil 24 avgustda ma’qullangan “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 fevraldagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni unga ko‘ra, oila institutini mustahkamlash bo‘yicha, eng avvalo, “Sog‘lom oila-sog‘lom jamiyat” konseptual g‘oyasini hayotga tatbiq etishga yo‘naltirilgan yagona davlat siyosatini olib borish, bu sohada normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilganligi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yilgi qaroriga ko‘ra, “O‘zbekiston Respublikasining ekologik ta’lim tizimini rivojlantirish Konsepsiyasi”ni qabul qilinganligi, ayniqsa O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 yanvardagi PF-5618-son farmoni bilan tasdiqlangan, “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Konsepsiyasi”ni qabul qilinganligi bu borada olib borilayotgan ishlar davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri etib belgilanganligidan dalolat beradi.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi va unda jumladan, o‘quvchilarga ekologik-huquqiy ta’lim-tarbiya berish bilan bog‘liq quyidagi bir qator kamchiliklar mavjudligi e’tirof etildi:

Birinchi, maktabgacha ta’limni boshqarishning amaldagi holati tizimli muammolarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etish, mazkur sohada, jumladan, nodavlat sektorda zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish imkonini bermayapti; ikkinchi, maktabgacha ta’lim sohasiga investitsiyalarni jalb qilishga, jumladan, ijtimoiy-hammabop maktabgacha ta’lim muassasalarini tashkil etish, ularni moddiy-texnik jihatdan qayta jihozlash va ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llashga qaratilgan davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari joriy qilinmagan; uchinchi, maktabgacha ta’lim muassasalari infratuzilmasi va moddiy-texnik bazasining amaldagi holati bolalarni maktabgacha ta’lim muassasalari bilan to‘liq qamrab olishni ta’minlashga imkon bermayapti, mamlakatda aholi sonining o‘sishi ayrim maktabgacha ta’lim muassasalarining haddan tashqari bandligiga olib kelmoqda; to‘rtinchi, milliy madaniy-tarixiy qadriyatlarni aks ettiruvchi va bolalikdan kitob o‘qishga qiziqishni uyg‘otuvchi o‘quv-metodik, didaktik (shu jumladan, o‘yinlar va o‘yinchoqlar) materiallar va badiiy adabiyotlarni tayyorlash hamda maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatiga joriy etish ishlari zamonaviy talablarga javob bermaydi; beshinchi, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning amaldagi tizimi maktabgacha ta’lim sohasini bolalarni tarbiyalash va har tomonlama rivojlantirish masalalarini professional darajada hal etishga qodir yuqori malakali mutaxassislar bilan ta’minlay olmaydi; oltinchi, maktabgacha ta’lim muassasalari xodimlarini moddiy rag‘batlantirish tizimining past darajada ekanligi malakali kadrlarni jalb qilish imkonini bermayapti; yettinchi, maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarga tibbiy xizmat ko‘rsatish bo‘yicha hududiy sog‘liqni saqlash organlari ishini tashkil etishdagi kamchiliklar bolalarning hayoti va sog‘lig‘ini himoya qilish, shu jumladan, sog‘lom ovqatlanishini ta’minlash bo‘yicha profilaktik chora-tadbirlar samaradorligining pasayishiga olib kelishligi alohida ko‘rsatildi.

Bugungi kunda Prezident”.....yoshlarni har tomonlama barkamol shaxs qilib, vatanparvarlik va milliy mustaqillik g‘oyalariga sodiqlik ruhida tarbiyalashga, shuningdek, o‘quvchilarda boy ilmiy, madaniy va ma‘naviy merosimizga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ma‘naviy va axloqiy sifatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishlikni alohida ta‘kidlab o‘tdi. Yuqorida ko‘rsatilgan konseptual g‘oyaga asosan, maktab o‘quvchilariga ekologik-huquqiy ta‘lim va tarbiya berish quyidagi yo‘nalishlarda olib borilishi model asosida ko‘rsatilgan:

1.Oilada ekologik-huquqiy ta‘lim va tarbiyani olib borilishi yoshlarni tabiatga, atrof-tabiiy muhit va uning boyliklarini sevishga, muhofazalash hamda bundan oqilona foydalanishdagi dastlabki ekologik huquqiy ongini, taffakurini hamda tushunchalarini shakllantirishga yordam beradi. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta‘biri bilan aytganda, “Oila masalasini kompleks o‘rganib, mavjud holatni tahlil etish, monitoring qilish va baho berishga, ilmiy tadqiqotlar orqali oila farovonligini oshirishga xizmat qiladigan yangi tizim yaratildi”... Albatta, bu borada belgilangan chora-tadbirlarning mazmuni, sifati va samarasini oshirish uchun hali ko‘p ish qilishimiz kerak. Bugungi kunda izchil amalga oshirilayotgan “Obod qishloq” va “Obod mahalla”, “Yoshlar-kelajagimiz”, “Har bir oila-tadbirkor” kabi dasturlar ayni shu maqsadlarga qaratilgani bilan ahamiyatli”.

2.Maktabgacha ta‘lim muassasalarida ekologik-huquqiy ta‘lim va tarbiyani olib borilishi esa, yosh bolalarni oilaga nisbatan ekologik huquqiy ongi, taffakurini ancha shakllanganidan dalolat beradi. Bu yoshda bolalarimiz o‘z qilmish oqibatlarini yaxshilik va yomonlikka yo‘naltirilganligini tushuna oladilar. Shuningdek, yangi avlod huquqiy darslik va o‘quv qo‘llanmalari tizimini yaratish. Zero, bu jarayon oiladagi ijobiypsixologik- pedagogik holatlarni davomi bo‘lib, oilada ekologik-huquqiy ta‘lim va tarbiyani olib borilishini mustahkamlashga yordam beradi.

3. Maktab davrida yoshlarimiz ancha mukammal jarayon, ya‘ni, ular “tabiat, jamiyat, inson va texnika” o‘rtasidagi mutanosiblik holatida o‘zlarini aniq tushunadilar. Ular 1-9-sinflarda olgan boshqa fanlarga oid bilimlarni ekologik-

huquqiy ta'lim va tarbiya bilan bog'lab olib boradilar. Ayniqsa, bu yoshdagi o'quvchilar tabiat to'g'risidagi va ekologik qonunlar talablarini o'rganadilar. Demak, oilada o'quvchilarga ekologik-huquqiy ta'lim va tarbiyani olib borishda aynan demografik, migratsion, iqtisodiy-hududiy (geografik) va ekologik hususiyatlar inobatga olinishi lozim.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Bizning yo'limiz-demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo'lidir. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. // Inson va qonun, 2011 yil 8 dekabr.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2018 yil 7 fevral kuni xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash masalalariga bag'ishlangan yig'ilishda so'zlagan nutqi. Xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash doimiy e'tiborimiz markazida bo'ladi. // Xalq so'zi, 2018 yil 8 fevral.

4. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston, 2019. -40 b.

5. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonuni, Xalq so'zi, 2016 yil, 15 sentabr.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2 fevral 2018 yilgi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. // Xalq so'zi, 2018 yil, 3 fevral.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risi"dagi qarori. // Xalq so'zi, 2017 yil, 9 sentabr.

ZILZILA, KELIB CHIQISH SABABLARI VA OQIBATLARI

Laylo Ashurova

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

“Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi” kafedrası assistenti

E-mail: ashurovalaylo83@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada, zilzila haqida umumiy ma'lumotlar, ularning turlari, sinflanishi. Yer ostida va ustidagi zilzila bilan kehadigan holatlar tariflangan. Maqola mehnat muhoazasi va texnika xavfsizligi yunalishlari talablari, mehnat muhofazasi va xavfsizlik mutaxassisleri hamda keng izlanuvchilar uchun muljallangan.

Kalit so'zlar va iboralar: “Zilzila, silkinish, geposent, eposentr, tektonik plitalar, texnogen holatlar”

Kirish. Tabiiy ofatlar ichida eng xavflisi va dahshatlisi bu - yer silkinishidir (zilzila). Yer silkinishi - yer osti zarbasi va yer ustki qatlamining tebranishi bo'lib, tabiiy ofatlar, texnologik jarayonlar tufayli yuzaga keladi. Yer ostki zarbasining paydo bo'lish o'chog'i, yerning ostki qatlamidagi uzoq vaqt yig'ilib qolgan energiyaning ozod bo'lish jarayoni tufayli yuzaga keladi. O'choqning ichki qismi markazi giposentr deyiladi, yerni ustki qismidagi markaz epitsentr deyiladi.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot jarayonida ilmiy va o'quv-uslubiy adabiyotlar tahlili, pedagogik-tarixiy kuzatuv, umumlashtirish, metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari va muhokamalar. Yer silkinishi yuzaga kelish sabablariga ko'ra quyidagi guruhlariga bo'linadi:

1. Tektonik zilzilalar;
2. Vulqon zilzilalari;
3. Ag'darilish, o'pirilish zilzilalari;
4. Texnogen (insonning muhandislik faoliyati bilan bog'liq) zilzilalar.

Yuqorida qayd etilgan yer silkinish turlari ichida katta maydonga tarqaladigani va eng ko'p talafot keltiradigani tektonik yer silkinishidir.

Bunday yer silkinishlar haqida gap ketganda litosfera o‘ramlarida bo‘ladigan harakat (tektonik kuchlar) tushuniladi.

Qiya sathlarida tog‘ jinslarining katta bo‘laklarini ag‘darilishi yoki tog‘larning o‘pirilishi natijasida yuzaga keluvchi yer silkinishlar ag‘darilish zilzilalari deyiladi. Bu yer silkinishining tarqalish maydoni kichik, ko‘p hollarda talofotsiz bo‘ladi.


Vulqon jarayoni, ya‘ni yer ostidagi magmani vulqon kanali orqali yer yuzasiga chiqishi bilan bog‘liq bo‘lgan yer silkinishiga vulqoniy yer silkinishi deb ataladi. Bunday yer silkinish vulqonning faollashishi bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli aksariyat ko‘p hollarda ular aniq bashorat qilinadi. Shuning uchun uning keltiradigan talofoti deyarli kuchli bo‘lmaydi.

Insonning muhandislik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan yer silkinishlar asosan oxirgi yillarda kuzatilmoqda. Bunday yer silkinish yirik suv omborlari vujudga kelgan hududlarda, gaz, neft mahsulotlarining yer ostidan so‘rib olinishi jarayoni amalga oshgan maydonlarda yuz bermoqda. Inson o‘zining muhandislik faoliyati bilan yer osti komponentlariga muayyan ta‘sir etishi, u yoki bu darajada o‘zgartirishi yer silkinishining vujudga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Daryo vodiylariga to‘g‘onlarning qurilishi natijasida maydoni bir necha ming km², hajmi bir necha yuz km³ dan katta bo‘lgan (masalan, Chorvoq suv omborining umumiy hajmi 2,1 mld. m³, suv sathi maydoni 3640 ga teng) suv omborlari vujudga kelmoqda. Yer qa‘ridan 4000-5000 m chuqurlikda yotgan gaz, neft yer sathiga so‘rib chiqarilmoqda, yer ostida uzoq geologik davrlar mobaynida yotgan ko‘mir ana shu yer qa‘rida yondirilib gazga aylantirib olinmoqda. Vaqtincha saqlash maqsadida ba‘zan yer osti g‘orlariga, chuqurlarga va tog‘ jinslari g‘ovaklariga gaz, neft mahsulotlari yuqori bosim ostida kiritilmoqda, juda katta miqdordagi mineral suvlar yer ostidan chiqarib olinmoqda. Yer qa‘rining odamlar ta‘sir etish joylarida yig‘ilayotgan energiya miqdorining u yoki bu darajada oshishi yoki kamayishi oqibatida sodir bo‘lgan yer silkinishlar Hindiston, AQSH va O‘zbekistonda kuzatilganligi fandan ma‘lum. Jumladan, Chorvoq suv ombori qurilib bo‘lingandan keyin bu hududda bir necha marta yer silkinishlar bo‘lib o‘tgan. Tekshirishlarning ko‘rsatishicha, bu yer silkinishlar o‘zlarining tayyorlanish, sodir

bo'lish mexanizmlari bilan Chorvoq suv omboriga yig'ilgan suvning miqdori va yig'ilgan suvni suv omboridan chiqarilish tezligi bilan bog'liq holda yuz berishi kuzatilgan. Bunga birinchidan, suv omborining 2,1 mld. m³ dan ortiq suv bilan to'latilishi jarayonida, ombor tubida yotuvchi tog' jinslarining siqilishi va taranglashishi oqibatida yuz beradigan mikrosiniqlar, darz ketishlar va ularning nisbiy harakati sabab bo'lsa, ikkinchidan, suvni suv omboridan bir me'yorida chiqarilmasligi va tog' jinslariga ta'sir qiluvchi kuchlarning nomutanosib holatda bo'shatilishi, o'zgarishi sabab bo'lgan.

Yer silkinish o'chog'i - giposentrning joylashgan chuqurligi bo'yicha: yerning yuza qismida - 70 km gacha, o'rta qismida - 70-300 km va chuqur qismida - 300 km dan pastda «mantiya» qatlamida vujudga keladigan xillarini ajratish mumkin. Respublikamizda kuzatiladigan zilzilalarning o'chog'i asosan 70 km gacha chuqurliklarda joylashganligi qayd etilgan.

Mantiyadagi katta bosim yoki portlashlar tufayli zilzila o'chog'i vujudga keladi, natijada katta kuchlanishlar paydo bo'ladi, bular o'z navbatida yerning ustki qatlamining tebranishiga olib keladi. Giposentrdan hamma tarafga, qaytar seysmik to'lqinlar tarqaladi, ular asosan uzunasiga va ko'ndalang turlariga bo'linadi (sxema). Yer ostidan uzunasiga tarqalayotgan (vertikal tarzda) to'lqinlar o'z yo'nalishi bo'yicha navbatma-navbat yer po'stlog'ini siqib, er yuzasiga chiqqanda tovush chiqaradi. Bu esa yer silkinish oldidan chiqadigan tovushning o'zginasidir. Ko'ndalang to'lqinlar (gorizontal) yer yuzasiga chiqib zilzila to'lqinlarini vujudga keltiradi va epitsentrdan barcha tarablarga tarqaladi:



Kuchli yer silkinishi oqibatida yerning yaxlitligi, butunligi o'zgaradi, inshootlar, jihozlar buziladi, kommunal-energetik qismlar ishdan chiqishi, insonlar o'limi yuz beradi. Yer silkinishi ko'pchilik hollarda ma'lum intensivlikda chiqadigan tovush bilan yuz beradi va uning past-balandligi yer qimirlashining kuchiga bog'liq. Yer qimirlashining asosiy ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat: yer silkinish o'chog'ining chuqurligi, silkinish amplitudasi va yer silkinishining intensiv energiyasi.

Xulosa. MSK shkalasi bo'yicha yer silkinish kuchiga qarab quyidagi holatlar kuzatiladi:

1 ball - sezilarsiz, faqatgina seysmik asboblar qayd qiladi;

2 ball - juda kuchsiz, uy ichida o'tirgan ba'zi odamlar sezishi mumkin (deraza oynalari titraydi);

3 ball - kuchsiz, ko'pchilik odamlar sezmaydi, ochiq joyda tinch o'tirgan odam sezishi mumkin. Osilgan jismlar asta sekin tebranadi;

4 ball - o'rtacha sezilarli. Ochiq joyda, bino ichida turgan odamlar sezadi. Uy devorlari qirsillaydi. Ro'zg'or anjomlari titraydi, osilgan jismlar tebranadi;

5 ball - ancha kuchli. Hamma sezadi, uyqudagi odam uyg'onadi, ba'zi odamlar hovliga yugurib chiqadi. Idishlardagi suyuqlik chayqalib to'kiladi, osilgan uy jihozlari qattiq tebranadi;

6 ball - kuchli. Hamma sezadi, uyqudagi odam uyg'onadi, ko'pchilik odamlar hovliga yugurib chiqadi. Uy hayvonlari betoqat bo'ladi. Ba'zi hollarda kitob javonidagi kitoblar, ro'zg'or buyumlar javonlaridagi idishlar ag'darilib tushadi;

7 ball - juda kuchli. Ko'pchilik odamlarni qo'rquv bosadi, ko'chaga yugurib chiqadi, avtomobil haydovchilari harakat vaqtida ham sezadi, uy devorlarida katta - katta yoriqlar paydo bo'ladi, hovuzlardagi suv chayqaladi va loyqalanadi.

8 ball - yemiruvchi. Xom g'ishtdan qurilgan imoratlar butunlay vayron bo'ladi, ancha pishiq qilib qurilgan imoratlarda ham yoriqlar paydo bo'ladi, uy tepasidagi mo'rilar yiqiladi, ba'zi daraxtlar butun tanasi bilan yiqiladi, sinadi, tog'li joylarda qulash, surilish hodisalari yuz beradi.

9 ball - vayron qiluvchi. Yer qimirlashiga bardosh beradigan qilib qurilgan imorat va inshootlar ham qattiq shikastlanadi. Oddiy imoratlar butunlay vayron bo'ladi, yer yuzasida yoriqlar paydo bo'ladi, yer osti suvlari sizib chiqishi mumkin.

10 ball - yakson qiluvchi. Hamma imoratlar yakson bo'ladi. Temir yo'l izlari to'liqsimon shaklga kelib bir tomonga qarab egilib qoladi, yer osti kommunal quvurlari uzilib ketadi, cho'kish hodisalari yuz beradi. Suv havzalari to'liqinlanib qirg'oqqa uriladi, qoyali yon bag'rlarda katta-katta surilish hodisalari sodir bo'ladi.

11 ball - fojiali. Hamma imoratlar deyarlik vayron bo'ladi, to'g'onlar yorilib ketadi, temir yo'llar butunlay ishdan chiqadi, yerning ustki qismida katta-katta yoriqlar paydo bo'ladi, yer ostidan balchiqlar ko'tarilib chiqadi, surilish, qulash hodisalari nihoyasiga yetadi.

12 ball - kuchli fojiali. Yerning ustki qismida katta o'zgarishlar yuz beradi. Hamma imoratlar butunlay vayron bo'ladi, daryolarning o'zani o'zgarib, sharsharalar paydo bo'ladi, tabiiy to'g'onlar vujudga keladi.

ADABIYOTLAR

1. Nigmatov I., Tojiev M. Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi. Darslik. – Toshkent: “Iqtisod-moliya”. 2011, B. 65

2. Мурадов С. ПРОБЛЕМЫ ТУШЕНИЯ ПОЖАРОВ КЛАССА Е ЛИЧНЫМ СОСТАВОМ ПОЖАРНОЙ ОХРАНЫ В МИРЕ //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2023. – Т. 2. – №. 5.

3. O'G'LI M. S. H. ANALYSIS OF “MEASURES TO ENSURE OCCUPATIONAL SAFETY IN THE FIELD OF CARGO TRANSPORTATION AND LOADING.” //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2023. – Т. 2. – №. 9.

4. ЎҒЛИ Р. Х. Ф., СИРОЖИДДИН М. ИЗУЧЕНИЯ УСЛОВИЯ ТРУДА В КОМПАНИИ ЕВРОПЫ. МУРАДОВ СИРОЖИДДИН //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2023. – Т. 2. – №. 10.

5. O'G E. L. A. A. et al. PHYSIOLOGICAL AND HYGIENE BASIS OF HUMAN LABOR ACTIVITY //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2023. – Т. 2. – №. 11.

6. Husan o'g'li M. S., Shavkat o'g'li E. D. INNOVATIVE SOLUTIONS TO PROTECT WORKERS FROM DANGEROUS GAS AND TOXIC SUBSTANCES IN HAZARDOUS INDUSTRY ENTERPRISES.

7. Husan o'g'li M. S., Utkir o'g'li Z. U. PRINCIPLES OF PASSING AND DOCUMENTING INSTRUCTIONS ON SAFETY TECHNIQUES.

8. Rayimkulov A., Murodov S. Some Issues of Safety in the Use of Tower Cranes Used in Construction Projects //JournalNX. – C. 301-308.

9. Sultonova D. N., qizi Siddiqova M. A. COLOR SCHEME IN THE FORMATION OF THE ARTISTIC ENVIRONMENT OF THE INTERIOR OF MODERN EDUCATIONAL CENTERS //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 14. – C. 109-115.

10. Muradov S. ISHLAB CHIQRISHDAGI AVARIYALARNI O'RGANISH VA TAHLIL QILISH //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 16. – C. 474-477

11. Rakhimov, O. D., and S. H. Muradov. "Digitalization of Instructions on Labor Protection and Safety Techniques." *European journal of life safety and stability (EJLSS)* 24 (2022): 80-86.

12. Muradov Sirojiddin Husan o'g'li, Xakimov Xurshid Hamidulla o'g'li, Siddiqova Madinabonu Asatilla qizi. NEW INNOVATIVE ENGINEERING SOLUTIONS TO THE PROBLEMS OF SIGNALIZATION AND SECURITY SYSTEMS//*European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630)*, 2021.2, 28-30. Retrieved from <http://www.ejlss.indexedresearch.org/index.php/ejlss/article/view/13>

13. Sirojiddin M., Umurzoq E. INNOVATIVE SOLUTIONS FOR IMPROVEMENT OF WORKING CONDITIONS AND ENVIRONMENT THROUGH THE KAIZEN METHOD //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2023. – T. 2. – №. 12. – C. 42-47.

14. Muradov S. ISHLAB CHIQRISHDAGI AVARIYALARNI O'RGANISH VA TAHLIL QILISH //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 16. – C. 474-477.

15. Rakhimov Oktyabr Dustkabilovich, Muradov Sirojiddin Husan ogli. Innovative Technologies in Teaching directors and Specialists of Industrial Enterprises on "Labor Protection"//*European Journal of Life Safety and Stability* (2021) 80-85

16. O.D. Rakhimov, Muradov S.H. Digitalization of Instructions on Labor Protection and Safety Techniques. // *European journal of life safety and stability (EJLSS)*. 2022. №24. P.80-86.

17. Husanovich S. B., Ravshanovich B. Z., Laylo A. ANALYSIS OF DEVELOPMENTAL EDUCATION MODELS //Проблемы науки. – 2020. – №. 11 (59). – C. 86-90.

18. Rakhimov O. et al. Methodology for using foresight technology in training future ecologists in Uzbekistan //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – Т. 462. – С. 03048.

19. Laylo A. ISHLAB CHQARISH XONALARI HAVOSINI OPTIMALLASHTIRISH UCHUN KONDITSIONER USKUNASINING ISHINI QIYOSIY TAHLIL QILISH VA UNI MODELLASHTIRISH //Sanoatda raqamli texnologiyalar/Цифровые технологии в промышленности. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 184-192.

20. Rakhimov O. D., Ashurova L. THE MAIN FACTORS AND CRITERIA OF QUALITY EDUCATION //GOLDEN BRAIN. – 2023. – Т. 1. – №. 31. – С. 163-169.

21. Rakhimov O. et al. Methodology for using foresight technology in training future ecologists in Uzbekistan //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – Т. 462. – С. 03048.

22. Ashurova L. ON THE TECHNOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF SCIENTIFIC AND CREATIVE ACTIVITY IN STUDENTS //Innovative Development in Educational Activities. – 2023. – Т. 2. – №. 23. – С. 294-298.

23. Ashurova L. METHODOLOGY OF USING TELECOMMUNICATION STUDY PROJECTS IN INDEPENDENT EDUCATION //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 17. – С. 135-140.

24. Рахимов О. Д., Эшмухамедов Л. М., Ашурова Л. МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМНИ РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАР АСОСИДА ТАШКИЛ ЭТИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ: Рахимов Октябр Дусткабилович, Қарши муҳандислик-иқтисодиёт институти “Экология ва меҳнат муҳофазаси” кафедраси профессори Эшмухамедов Латиф Маҳмаюсуфович, Қарши муҳандислик-иқтисодиёт институти “Экология ва меҳнат муҳофазаси” кафедраси ассистенти Ашурова Лайло, Қарши муҳандислик-иқтисодиёт институти “Экология ва меҳнат муҳофазаси” кафедраси ассистенти //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 6.

25. Rakhimov O. et al. Methodology for using foresight technology in training future ecologists in Uzbekistan //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – Т. 462. – С. 03048.

26. Rakhimov O. D., Kh M. Y., Ashurova L. Initial foresight studies in the higher education system of Uzbekistan //Modern education (Uzbekistan). – 2021. – №. 4. – С. 101.

27. Dustkobilovich R. O., Laylo A. Types of modern lectures in higher education, technology of their design and organization //Проблемы современной науки и образования. – 2020. – №. 12-1 (157). – С. 41-46.

28. Karimov B., qizi Nishonova S. C. MEHNATNI MUHOFAZA QILISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 16. – С. 482-486.
29. Karimov B., qizi Nishonova S. C. MEHNATNI MUHOFAZA QILISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 16. – С. 482-486.
30. Karimov B. MEHNAT MUHOFAZASI VA TEXNIKA XAVFSIZLIGI” TA’LIM YO ‘NALISHINING FAOLIYAT OB’EKTLARI VA ISH SOHALARI TO ‘G ‘RISIDA TUSHUNCHA //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 16. – С. 487-489.
31. Bahodir O‘ktam o‘g K. et al. ELEMENTS OF THE MANAGEMENT SYSTEM OF INDUSTRIAL SAFETY, LABOR PROTECTION AND ENVIRONMENTAL PROTECTION AT THE" UZBEKISTAN GTL" PLANT //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2023. – Т. 2. – №. 11.
32. Maxmayusufovich E. L. PRIMARY CONCEPTS ABOUT EARTHQUAKES AND THEM ENSURING THE SAFETY OF THE PUBLIC WHEN IT HAPPENS //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2023. – Т. 2. – №. 10.
33. Эшмухамедов Л. М. СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ В ОБЛАСТИ ПРЕДУПРЕЖДЕНИЯ И ЛИКВИДАЦИИ ЧРЕЗВЫЧАЙНЫХ СИТУАЦИЙ //Вестник науки и образования. – 2022. – №. 6-2 (126). – С. 24-27.
34. Эшмухамедов Л. М. ОХРАНА ТРУДА НА ПРЕДПРИЯТИИ //МОЛОДЕЖЬ. НАУКА. БУДУЩЕЕ. – 2022. – С. 160-164.
35. Eshmuhamedov L. M. 21-ASR PEDAGOGIKASI: O ‘QITISHNING INNOVATSION USULLARI //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 14. – С. 372-376.
36. Maxmayusufovich E. L. ORGANIZE LABOR PROTECTION IN ENTERPRISES //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2023. – Т. 2. – №. 11.
37. Eshmukhamedov L. M. IMPROVING THE SYSTEM OF PUBLIC ADMINISTRATION IN THE FIELD OF PREVENTION AND LIMITATION OF EMERGENCY SITUATIONS //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2023. – Т. 2. – №. 9.
38. Эшмухамидов Л. М. ТЕХНОСФЕРНАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ ЧЕЛОВЕКА В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2023. – Т. 2. – №. 6.

39. Eshmuxamedov L. M. et al. LABOR PROTECTION IMPROVE WORKING CONDITIONS, INCREASE EMPLOYEES' PRODUCTIVITY, IMPLEMENTATION OF REST REGIME //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 1161-1166.

40. Otabek M. et al. Dynamics And Stability Of A Composite Feed Cylinder In The Feeding Area Of Rotor Spinning Machines //Journal of Pharmaceutical Negative Results. – 2023. – С. 1152-1157.

41. Рахимов О. Д., Эшмухамедов Л. М., Ашурова Л. МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМНИ РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАР АСОСИДА ТАШКИЛ ЭТИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ: Рахимов Октябр Дусткабилович, Қарши муҳандислик-иқтисодиёт институти “Экология ва меҳнат муҳофазаси” кафедраси профессори Эшмухамедов Латиф Маҳмаюсуфович, Қарши муҳандислик-иқтисодиёт институти “Экология ва меҳнат муҳофазаси” кафедраси ассистенти Ашурова Лайло, Қарши муҳандислик-иқтисодиёт институти “Экология ва меҳнат муҳофазаси” кафедраси ассистенти //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 6.

42. Рахимов О. Д., Эшмухамедов Л. М. ЧЕТ ЭЛ ОЛИЙ ЎҚУВ ЮРТЛАРИДА ТАЪЛИМ СИФАТИНИ БАҲОЛАШ //INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 68-76.

43. Эшмухамедов Л. М. ВЕСТНИК НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ //ВЕСТНИК НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ Учредители: Олимп. – С. 24-27.

OLIV TA'LIMNING RAQAMLASHTIRISH JARAYONI. TA'LIMDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI O'QITISH SAMARADORLIGI

Abdullayev Shaxboz Solijon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti axborot texnologiyalar kafedrasini o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola axborot jamiyati rivojlanishining hozirgi bosqichida ta'limni raqamlashtirish tushunchalari va tamoyillari, ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish, ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvi, kasbiy kompetensiyalar haqida so'z boradi. Shu bois ushbu maqolada elektron axborot-ta'lim resurslari yaratish bosqichlari va ular asosida o'qitishni tashkil etish masalalari tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: Raqamli ta'lim, AKT, texnologiya, integratsiya, raqamli avlod, didaktika, intellektual, elektron, onlayn, virtual, o'qitish metodikasi, multimediya.

АННОТАЦИЯ

В данной статье речь пойдет о понятиях и принципах оцифровки образования на современном этапе развития информационного общества, использовании цифровых технологий в образовании, их интеграции в образовательный процесс, профессиональных компетенциях. Поэтому в данной статье рассмотрены этапы создания электронных информационно-образовательных ресурсов и вопросы организации обучения на их основе.

Ключевые слова: Цифровое образование, ИКТ, технологии, интеграция, цифровое поколение, didaktika, интеллектуальная, электронная, онлайн, виртуальная, методика обучения, мультимедиа.

ABSTRACT

This article will focus on the concepts and principles of digitization of education at the present stage of development of the information society, the use of digital technologies in education, their integration into the educational process, and professional competencies. Therefore, this article discusses the stages of creating electronic information and educational resources and the organization of training based on them.

Key words: Digital education, ICT, technologies, integration, digital generation, didactics, intellectual, electronic, online, virtual, teaching methods, multimedia.

Axborot texnologiyalari fanini o'qitish bo'yicha DTSda ko'rsatilishicha pedagogika oliy ta'lim muassasasi talabalariga qo'yiladigan malaka talablarida: fanni chuqur o'zlashtirish, kompyuter va uning jihozlari, tizim, model, modellashtirish, dasturiy ta'minot, kompyuter grafikasi va boshqalar haqidagi bilimlarga ega bo'lishi, shu asosda ko'nikma va malakalarni egallashi talab etiladi. Fanni o'qitish usullari va texnologiyasiga zamonaviy ta'limning asosiy vazifalari qatorida raqamlashtirish sharoitida talabani hayotga moslashtirish, mehnat bozorida o'ziga munosib o'rin topish, o'z-o'zini tarbiyalash ko'nikmalarini singdirish, olingan bilimlardan ijodiy foydalanish kiradi. Ta'limda axborot texnologiyalari fanini o'qitish metodikasida pedagogik texnologiyalar va ta'lim texnologiyalari tushunchalari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta'limni axborotlashtirish jarayoni axborot texnologiyalariga asoslangan pedagogik nazariya va amaliyotni rivojlantirish orqali ta'lim va tarbiya maqsadlariga erishishning yo'naltirilganligidir [1]. O'quv jarayonida bunday kontentdan foydalanish o'quv jarayonining tuzilishi, mazmuni va tashkil etilishidagi o'zgarishlar tufayli talabalarning qiziqishlari, moyilliklari va qobiliyatlarini to'liq hisobga olish, shuningdek, ta'limning barcha darajalarida talabalarning o'quv faoliyati uchun qo'shimcha rag'batlantirish imkonini beradi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, elektron ta'lim resurslarini yaratish ko'pincha fan o'qituvchilari tomonidan amalga oshiriladi va ularning ijodkorligi natijasida o'quv materialining alohida mavzulari bo'yicha turli mazmunga ega bo'ladi. Shu bilan birga, olingan materiallarning didaktik talablar va elektron ta'lim mazmuniga qo'yiladigan talablarga muvofiqligi har doim ham kuzatilmaydi. Ta'limni raqamlashtirish shartlarini ajratib ko'rsatish imkonini beruvchi me'yoriy hujjatlar, tavsiyalar, tadqiqotlar tahlili, ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Ta'limni raqamlashtirish bo'yicha qonunchilik bazasini yaratish;
- Ta'lim muassasalarining raqamli ta'lim muhitini o'z ichiga olgan ta'limni raqamlashtirishni resurs bilan ta'minlash;
- Raqamli savodxonlikni oladigan AKT kompetensiyasiga ega raqamli ta'limga qodir kadrlarni tayyorlash;
- Raqamli pedagogik texnologiyalar va ta'lim ahamiyatiga ega raqamli texnologiyalardir.

Shu o'rinda U.Yo'ldashev, D.Abduraximov o'z tadqiqotlarida axborot texnologiyalaridan ta'lim tizimida foydalanish, yagona axborot makonini yaratish hamda resurs va gibrid, intellektual tizimlararo munosabatlar, ekspert-o'qitish tizimlarini o'rgangan [4]. Ta'limni raqamlashtirish va AKT kompetensiyasini shakllantirish uchun belgilangan shart-sharoitlarning paydo bo'lishi nuqtai nazaridan biz pedagogika ta'limi tizimida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashni tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar tahlilini amalga oshiramiz. Keyingi paytlarda bo'lajak pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish borasida davlatimiz tomonidan qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashning boshqa tendentsiyalari va umuman butun ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonlari bilan bir qatorda, faol ishlab chiqilgan va qo'llaniladigan professional metodika tobora ko'proq ta'sir ko'rsatmoqda. F.M.Zakirova virtual didaktik kartochkalarni yaratish, informatikani o'qitish metodikasi hamda elektron o'quv resurslarini yaratish va ularga qo'yiladigan talablarini ishlab chiqqan [2],[3].

Mutaxassislarni tayyorlash sifatini ularning kasbiy malakalari qay darajada rivojlanganligini tekshirishning usullaridan biri bu mutaxassisning AKT komponentlari imkoniyatlarini bilish va tushunishdir. Bo'lajak o'qituvchini tayyorlashning majburiy talabi – bu o'z kasbiy faoliyatida AKT vositalari va ta'lim ahamiyatiga ega bo'lgan raqamli texnologiyalardan foydalangan holda kasbiy vazifalarni hal qilish ko'nikmasi, qobiliyati va tayyorligini namoyish etadi. Talabalarning fan dasturlari bilan tartibga solinadigan axborot kursining mazmunini o'rganish "Ta'limda axborot texnologiyalari" fanlari doirasida chuqurlashtirilgan darajada taklif etiladi. Ushbu standart bilan "Ta'limda axborot texnologiyalari" kursini chuqurlashtirishning fan natijalariga qo'yiladigan talablar belgilanadi, ular quyidagilardan iborat:

- Informatika zamonaviy dunyoning ilmiy qiyofasini shakllantirishdagi hissasini aks ettiruvchi tayanch bilimlar tizimini egallash;
- Algoritm murakkabligi tushunchasini o'zlashtirish, raqamli va matnli axborotni qayta ishlashning asosiy algoritmlarini bilish;

- Zamonaviy kompyuter grafikasining tuzilishi, kompyuter grafikasining rivojlanish tendentsiyalari haqidagi tasavvurni shakllantirish;
- Internet-illovalarni ishlab chiqish va ishlashning umumiy tamoyillari haqida tasavvurni shakllantirish;
- Kompyuter tarmoqlari obrazini shakllantirish va ularning hozirgi zamondagi roli;

Kompyuter tarmoqlarini tashkil etish va ulardan foydalanishning asosiy tamoyillari, Axborot etikasi normalari va huquqlari, axborot xavfsizligini ta'minlash tamoyillari, AKT vositalarining ishonchli ishlashini ta'minlash usullari va vositalari va boshqalar to'g'risida tasavvurni shakllantirish.

“Informatika va axborot texnologiyalari”, “Ta’limda axborot texnologiyalari” ta’lim fanlarining o‘ziga xos xususiyatlari bo‘lib, ushbu o‘quv fanlari mazmunining aniq mutaxassisliklari uchun ishlab chiqilmagan. “Informatika” umumta’lim fani sifatidagi asosiy tushunchalarni o‘rganishga qaratilgan. A.A.Xasanov o‘zining doktorlik dissertatsiyasida bo‘lajak o‘qituvchilarning AKT bo‘yicha kompetensiyasini shakllantirishga qaratilgan o‘quv fanlari bo‘yicha o‘quv materiallari mazmunini ilmiy tayyorgarlikni integratsiyalash va fanlararo tizimli aloqalarni shakllantirish zarurligini asoslab beradi. Shuningdek, ushbu muallif kelajakdagi kasbiy faoliyatda o‘quv jarayoniga AKT va didaktik birliklarni integratsiya qilish zarurligini ta’kidlaydi va bo‘lajak o‘qituvchining AKT kompetensiyasini muvaffaqiyatli shakllantirish uchun o‘qitishning umumiy sxemasi tuzilishi kerak deb fikr yuritadi. Xulosa qilib aytganda ta’limni raqamlashtirish sohasidagi me’yoriy hujjatlar, tavsiyalar, tadqiqotlar tahlili, umuman ta’limni raqamlashtirish shartlarini ajratib ko‘rsatish imkonini beruvchi, quyidagilarni kiritish mumkin: ta’lim oluvchilarning raqamli avlodi; ta’limni raqamlashtirishning qonunchilik asoslarini yaratish; ta’lim muassasalarining raqamli ta’lim muhitini o‘z ichiga olgan ta’limni raqamlashtirishni resurs bilan ta’minlash; Raqamli pedagogik texnologiyalar va o‘quv ahamiyatiga ega bo‘lgan raqamli texnologiyalar; axborot texnologiyalari bo‘yicha mutaxassislarini tayyorlash dasturining ma’lumotlar qismi bugungi kunda ham dolzarb bo‘lgan AKT kompetensiyasini shakllantirish uchun shart-sharoitlarni ta’minlash imkonini beradi.

ADABIYOTLAR

1. Кузнецова, Т.А. Информационно-коммуникационные технологии как средство активизации познавательной деятельности учащихся при изучении математики в общеобразовательной школе / Т.А. Кузнецова. – Магистерская диссертация. – Калуга, 2014. – С.74.

2. Закирова Ф., У.Мухамедханов, Ш.Шарипов, Р.Г.Исянов, Ф.Эсонбобоев, С.Доттоев. Электрон ўқув-методик мажмуалар ва таълим ресурсларини яратиш методикаси. Методик қўлланма. – Т.: ОЎМТВ, 2010. – 57 б.

3. Закирова Ф.М. Теоретические и практические основы методической подготовки будущих преподавателей информатики в педагогических вузах: Автореф. дисс. ... док. пед. наук. – Ташкент, 2008. – 42 с.;

4. Юлдашев У.Ю., Абдурахимов Д.Б. Электрон ўқув қўлланмаларни тайёрлашда “Лектор” дастурининг имкониятларидан фойдаланиш//“Олий ўқув юртларида физика, математика, информатика фанларини ўқитиш муаммолари ва ечимлари” Республика илмий-амалий конференцияси материаллари.-Тошкент: 2005. –Б.81.

5. А.А.Ҳасанов. Касб-ҳунар коллежларида ўқувчиларни фанлараро алоқадорлик воситасида касбий фаолиятга тайёрлашнинг методик тизими педагогика фан. фалсафа д-ри дис. : 13.00.05. Тошкент, 2018.

6. Tozhiev, T., & Abdullaev, S. (2023, June). Creation of new numerical simulation algorithms for solving initial-boundary-value problems for diffusion equations. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2781, No. 1). AIP Publishing.

7. Solizhonovich, A. S. (2022). The Role of Modern Information Technology Education in the Lessons of Computer Science. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 5, 547-550.

8. Solijon o‘g‘li, A. S. (2022, October). USING INTERACTIVE METHODS IN TEACHING IT AND INFORMATION TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL SYSTEM. In Archive of Conferences (pp. 198-202).

ADVANCEMENTS AND CHALLENGES IN CONTEMPORARY TRANSLATION STUDIES: A COMPREHENSIVE OVERVIEW

Nematova Shahrizoda

Fergana State University, Faculty of Foreign Languages

2nd year student of guide and translation activity

ABSTRACT

Translation, a complex and multifaceted field, is pivotal in fostering global communication and understanding. This article provides an in-depth exploration of the current landscape of translation studies, focusing on both advancements and challenges that shape the discipline. It examines the theoretical frameworks, technological innovations, and socio-cultural considerations that influence the practice of translation in academic and professional settings.

Keywords: *Analysis, approaches, innovations, contemporary translation, challenges, advancements.*

Introduction:

Translation, as a discipline, has evolved significantly over the years, influenced by various factors such as globalization, technological advancements, and cultural shifts. This article aims to offer a comprehensive analysis of the current state of translation studies, emphasizing key developments and persistent challenges within the field.

Theoretical Foundations:

Translation studies encompass a diverse range of theoretical approaches that guide scholars and practitioners in understanding the intricacies of language transfer. From the traditional equivalence-based models to more contemporary approaches like functionalist and postcolonial theories, researchers continue to refine and expand the

theoretical foundations of translation. The ongoing dialogue between source and target text and the role of the translator as an active mediator remains central to these discussions.

Technological Innovations:

Technology advancements have revolutionized translation practice, introducing tools and platforms that enhance efficiency and accuracy. Machine Translation (MT) systems, powered by artificial intelligence and neural networks, have made significant strides, offering quick and automated translations. However, the debate between human and machine translation persists, with concerns about the loss of nuance and cultural sensitivity in automated processes.

Computer-assisted translation (CAT) tools have also gained prominence, facilitating collaboration between human translators and technology. These tools provide features like translation memory and terminology databases, streamlining the translation process and maintaining consistency across projects. The integration of technology into translation workflows has become indispensable, demanding continuous adaptation and skill development within the profession.

Socio-Cultural Considerations:

Translation is not merely a linguistic endeavor; it is deeply embedded in cultural contexts. Addressing socio-cultural considerations is crucial to producing translations that resonate with diverse audiences. Translators must navigate issues of cultural sensitivity, adaptability, and the preservation of linguistic nuances. Moreover, the impact of globalization on language diversity and the need for inclusive language practices have become central concerns in contemporary translation studies.

Challenges in Translation:

Despite the advancements in theory and technology, translation faces persistent challenges. Ambiguities in source texts, cultural untranslatability, and the evolving nature of language pose ongoing hurdles. Additionally, ethical considerations, such as the responsibility of translators in shaping narratives and representing diverse voices

accurately, demand continuous reflection and discussion within the academic community.

Conclusion:

In conclusion, translation studies continue to evolve in response to the dynamic interplay of theory, technology, and socio-cultural factors. The field's interdisciplinary nature ensures that scholars engage with linguistic, cultural, and technological dimensions, contributing to a rich and nuanced understanding of translation. As we navigate the complexities of an interconnected world, the ongoing dialogue within the academic community remains essential in shaping the future of translation studies.

REFERENCES

1. Mukhtorova, B. (2023). THE LINGUISTIC AND CONCEPTUAL PICTURE OF THE WORLD. *Science and innovation*, 2(B1), 461-466.
2. <http://library.navoiyuni.uz/files/clifford%20e.%20landers%20literary%20translation%20a%20practical%20guide.pdf>
3. Academy of American Poets (n.d.) <http://www.poets.org/poetsorg/poem/just-say>.
- Baker M. 1992, *In Other Word: A coursebook on translation*, Routledge, London/New York.
4. Fowler R. 1977, *Linguistics and the Novel*, Methuen Publishing, London.
5. *Linguistics in the Morning Calm* Seoul: Hansinh Publishing Co., pp. 111 137.
- Fillmore, C. J. (1985). Frames and the semantics of understanding *Quaderni di Semantica*, 6(2), pp. [222–254].
6. Mukhtorova, B. A.; Mayusupova, M. R.; and Abdurakhimova, Z. B. (2023). ACTUAL PROBLEMS OF TRANSLATING PROPER NOUNS IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES *The Role of Science and Innovation in the Modern World*, 2(4), 40–52

STUDYING OF THE PROBLEM OF FOOD OF WOMEN WITH EXCESS BODY WEIGHT AND OBESITY (REPUBLIC OF UZBEKISTAN)

Saidova Gulbakhor Tursunaliyeva

candidate of medical sciences,

Assistant to department of hygiene of children, adolescents and nutrition,

Tashkent medical academy, tashkent

ABSTRACT

Excess body weight is a social problem as has an adverse effect on working capacity and life expectancy. At the heart of prevention by excess body weight and obesity at women the principle of use of various exercise stresses at obligatory accounting of the available associated diseases has to lie and use of preventive foods has to be carried out when calculating power value of foodstuff which promotes not only to decrease in body weight due to change of structure of fatty tissue, but also to improvement of a functional condition of a cardiorespiratory system, fatty and proteinaceous exchanges.

Key words: *able-bodied population, women, excess body weight, obesity, adequate food, food allowance, power value, exercise stresses.*

ИЗУЧЕНИЕ ПРОБЛЕМЫ ПИТАНИЯ ЖЕНЩИН С ИЗБЫТОЧНОЙ МАССОЙ ТЕЛА И ОЖИРЕНИЕМ (РЕСПУБЛИКА УЗБЕКИСТАН)

Саидова Г.Т.

Саидова Гулбахор Турсуналиевна – кандидат медицинских наук,
ассистент кафедры гигиены детей, подростков и гигиены питания,

Ташкентская медицинская академия, г. Ташкент

АННОТАЦИЯ

Избыточная масса тела является социальной проблемой, так как отрицательно сказывается на работоспособности и продолжительности жизни. в основе профилактики избыточной массой тела и ожирения у женщин должен лежать принцип использования различных физических нагрузок при обязательном учете имеющихся сопутствующих заболеваний и применении профилактического питания должно проводиться при расчете энергоценности

пищевых продуктов, которые способствуют не только снижению массы тела за счет изменения структуры жировой ткани, но и улучшению функционального состояния кардиореспираторной системы, жирового и белкового обменов.

Ключевые слова: *трудоспособное население, женщины, избыточная масса тела, ожирение, адекватное питание, рацион питания, энергоценность, физические нагрузки.*

В настоящее время отмечается высокая распространенность ожирения в большинстве стран мира. Темпы распространенности ожирения во всем мире настолько высоки, что в 2008 году Всемирная Организация Здравоохранения признала ожирение эпидемией 21 века [1, 3]. За последние десятилетия изменился образ жизни людей. Экономический рост, технический прогресс и преобразования в социальной сфере привели к тому, что характер питания и ежедневная физическая активность стали недостаточными по отношению к потребляемой пище. Употребление высококалорийных продуктов, сладких газированных напитков, увеличение порции принимаемой пищи, учащение «перекусов» и еда вне дома – в ресторанах быстрого питания – в сочетании с малоподвижным образом жизни привели к повсеместной прогрессии распространения ожирения [4, 12].

Ожирение одновременно является и социальной проблемой, так как отрицательно сказывается на работоспособности и продолжительности жизни. Избыточное накопление жира является составной частью общего кардиометаболического риска, увеличивающего вероятность развития и прогрессирования сердечно-сосудистых заболеваний и сахарного диабета 2-го типа, которые лидируют среди причин смертности во многих странах. Ожирение также ассоциировано с некоторыми онкологическими заболеваниями, нарушениями репродуктивной функции, заболеваниями опорно-двигательного аппарата, пищеварительной системы [16, 20].

Таким образом, социально-гигиеническая значимость разработки эффективных мер профилактики и лечения избыточной массы тела и ожирения определяется значительным распространением данной патологии среди

населения (особенно среди женщин) и, связанное с этой патологией, увеличение заболеваемости, инвалидизации и смертности населения, а также снижение работоспособности и производительности труда. В связи с этим проведение исследований по гигиеническому обоснованию лечебно-профилактического питания для женщин трудоспособного возраста с избыточной массой тела и ожирением являются весьма актуальным.

Целью нашего исследования является гигиеническое обоснование и разработка принципов питания женщин трудоспособного возраста с избыточной массой тела и ожирением. Объектом исследования будут являться женщины трудоспособного возраста с избыточной массой тела и ожирением. При проведении научных исследований предлагается использование комплекса методов в зависимости от поставленных задач: метод анкетирования, медико-статистический метод и медико-социологические исследования.

Проведенный нами анализ литературных источников за последние 15-20 лет показал, что данная проблема изучалась на каждом этапе развития человечества. Во многих источниках говорится, что положительный энергетический баланс в организме служит основным стимулирующим фактором в процессе формирования избыточной массы тела и ожирения алиментарно-конституционального типа у трудоспособного населения, в том числе, конечно и женщин [2, 6].

Исследованиями зарубежных и отечественных авторов [7, 10, 17] установлено, что фактическое питание женщин, имеющих проблему избыточного веса, является неадекватным и несбалансированным в сравнении с нормируемыми физиологическими нормами с учетом содержания ряда макро- и микронутриентов. Так, был выявлен имеющийся дефицит полисахаридов, витаминов групп А, В₂, D, РР и др. Наблюдается при этом и недостаток таких необходимых элементов как магния, кальция, йода, фтора, меди и цинка [14, 19].

Многие авторы [8, 9, 18] отмечали, что в основе профилактики избыточной массой тела и ожирения у женщин должен лежать принцип использования

различных физических нагрузок при обязательном учете имеющихся сопутствующих заболеваний и применение профилактического питания должно проводиться при расчете энергоценности, в среднем суточный расход энергии должен составлять 500-600 килокалорий. Данные ряда исследований указывают на то, что соотношения в суточном рационе должно быть в соотношении белков, жиров и углеводов 20:28-29:52-51. При этом необходимо высокое содержание пищевых волокон, витаминов и минеральных веществ, использование биологически активных компонентов пищи [5].

Таким образом, во многих литературных источниках подтверждается значимость применения различных лечебно-профилактических рационов питания в сочетании с необходимыми физическими тренировками средней интенсивности, которые способствуют не только снижению массы тела за счет изменения структуры жировой ткани, но и улучшению функционального состояния кардиореспираторной системы, жирового и белкового обменов [11, 13, 15].

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES:

1. Аметов *А.С.* Ожирение как заболевание // Ожирение, современные подходы к терапии: Материалы семинара. М., 2000. С. 1-33.
2. Барановский *А.Ю.* Руководство по диетологии. СПб., 2001. С. 237-274.
3. Вербовая *Н.И.*, Булгакова *С.В.* Ожирение и соматотропный гормон: причинно-следственные отношения // Проблемы эндокринологии. 2001. Т. 47. № 3. С. 44-47.
4. Вознесенская *Т.Г.* Расстройства пищевого поведения при ожирении и их коррекция // Ожирение и метаболизм. 2004. № 2. С. 1-4.
5. Горн *М.М.*, Хейтц *У.И.*, Сверинген *П.Л.* Водно-электролитный и кислотно-основной баланс (краткое руководство). Пер. с англ. СПб., 2000. 320 с.

6. Доценко *В.А.* Законы питания здорового и больного человека // Вестник Санкт-Петербургской государственной медицинской академии им. И.И. Мечникова. 2004. № 1. С. 29-33.
7. Дэниел *Г.* Бессесен, Роберт *Кушнер.* Избыточный вес и ожирение. Профилактика, диагностика и лечение. М., 2004. 240 с.
8. Карелин *А.О.* Правильное питание при занятиях спортом и физкультурой. СПб., 2003. 256 с.
9. Кузнецова *О.Ю.* Профилактика ожирения. СПб., 2003. С. 235-300.
10. Мазуров *В.И.,* Ворохобина *Н.В.,* Барановский *А.Ю.,* Волкова *Е.А.* Ожирение: этиология, патогенез, клиника и лечение // Бюллетень Санкт-Петербургской ассоциации врачей-терапевтов, 2005. Т. 2. № 2. С. 3-19.
11. Мельниченко *Г.А.* Ожирение в практике эндокринолога // Русс. мед. журн. 2001. Т. 9. № 2. С. 82-87.
12. Миняйлова *Н.Н.* Социально-гигиенические аспекты ожирения // Педиатрия. 2001. № 2. С. 83-87.

MA'NAVIY ISLOHOTLAR YANGI BOSQICHDA

O'rozaliyev Oybek Abdujamol o'g'li

Oriental universiteti "Yoshlar bilan ishlash,
ma'naviyat va ma'rifat" bo'limi boshlig'i

O'zbekiston Respublikasi yangilangan Konstitutsiyasining muqaddimasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, unda quyidagi chuqur mazmunga ega fikrlarni uchratish mumkin: biz, O'zbekistonning yagona xalqi, inson huquq va erkinliklariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, davlat suvereniteti prinsplariga sodiqligimizni tantanali ravishda e'lon qilib, demokratik, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik g'oyalariga sadoqatimizni namoyon qilib, inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat hisoblanadigan insonparvar demokratik davlatni, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etish borasida hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatimizni anglagan holda, davlatchiligimiz rivojining uch ming yildan ziyod tarixiy tajribasiga, shuningdek, jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma'naviy merosiga tayanib, ko'p millatli jonajon O'zbekistonimizning farovonligini va gullab yashnashini ta'minlashni maqsad qilgan holda, ushbu konstitutsiyani qabul qilamiz va e'lon qilamiz.¹

Ushbu muqaddimadan, Yangi O'zbekistonni bunyod etishda iqtisodiy rivojlanish bilan tengma-teng milliy va ma'naviy qadriyatlar poydevor vazifasini bajarishini anglashimiz mumkin.

Shu ma'noda mamlakatimizda barcha sohalar qatori ma'naviy-ma'rifiy sohani har tomonlama rivojlantirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, 2023-yilning 22-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligidagi Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining yig'ilishida aynan

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Muqaddima qismi.

ma'naviyat sohasida amalga oshirilgan islohotlar va kelgusidagi rejalar atroflicha muhokama etildi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasida O'zbekistonga nisbatan Ijtimoiy davlat degan ta'rif berilgani, 2017-yil 3-avgustda ijodkor ziyolilar bilan uchrashuvning tashkil etilishi, Ma'naviyat va ijodni qo'llab-quvvatlash maqsadli jamg'armasi tuzilgani, Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining tashkil etilgani, Ma'naviyat va ijodni qo'llab-quvvatlash uchun har yili 45 milliard so'm miqdoridagi mablag' ajratilayotganligini ta'kidlash joiz.

Shu bilan birgalikda Kengash yig'ilishi doirasida 2024-yildan boshlab ma'naviyat sohasini rivojlantirish uchun bir qator o'zgarishlar amalga oshirilishini muhtaram Prezidentimiz aytib o'tdilar.

Xususan, Ma'naviyat va ijodni qo'llab-quvvatlash uchun har yili 100 mlrd. so'm ajratilishi, Buxorodagi tarixiy maskanda Jadidlar merosi davlat muzeyi bunyod etilishi, "Jadid" nomli yangi gazeta va uning online versiyasi chop etilishini alohida ta'kidladilar.

Kelgusida bajarish lozim bo'lgan islohotlarni sanasak ular juda ko'p va hop.

Ayni vaqtda azaliy qadriyatlar, ijtimoiy-siyosiy qarashlar tizimida chuqur transformatsiya jarayonlari yuz bermoqda.

Ilgari o'z maqsad va manfaatlarini asosan diplomatiya va siyosat bilan ximoya qilib kelgan dunyodagi qudratli markazlar endi ochiqchasiga bosim o'tkazish qarama-qarshilik va to'qnashuvlar yo'liga o'tgani sir emas.

Afsuski bunday keng ko'lamlı va o'ta ziddiyatli jarayonlarning ta'siri Markaziy Osiyo mintaqasi va uning tarkibiy qismi bo'lgan mamlakatimizni ham chetlab o'tmayapti.

Shunday vaziyatda O'zbekistonning milliy manfaatlariga javob beradigan to'g'ri yo'lni topish albatta oson bo'lmayapti.

Biz dunyodagi barcha yaqin va uzoq davlatlar bilan o'zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirishga harakat qilayapmiz. Ziddiyatlar kuchaygan paytda aynan millat

fidoyilari, uygʻoq qalbli ziyolilar, shoir va adiblar, sanʼat namoyondalari, maʼnaviyat va maʼrifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqanlar.

Bugungi tahlikali vaziyatda Gʻarb ilm fani va yutuqlari bilan birga milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan vatan oʻgʻlonlari suv bilan havodek zarur.

Ularni biz tarix saboqlari va zamon talablari asosida tarbiyalashimiz shart.

Maʼrifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor boʻlib xizmat qilishi tabiiydir.

Chunki uning gʻoya va dasturlari Yangi Oʻzbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uygʻun va hamohangdir.

Bugungi gʻoyaviy mafkura sharoitida kurashga tayyormizmi? Agar biz bu dunyoda Oʻzbek, Oʻzbekiston degan nom bilan yashab qolishni istasak bu savolga javob berish lozim.

Shu oʻrinda Prezidentimiz quyidagi eng muhim masalalarga atroflicha toʻxtaldi:

- maʼnaviyat va madaniyat sohasidagi ishlar uchun metodik asos boʻlib xizmat qiladigan Milliy gʻoyamizni rivojlantirish boʻyicha alohida zaruriy hujjat ishlab chiqish;
- madaniy-maʼrifiy sohadagi ishlarni yangi bosqichga koʻtarishda hokimlarning masʼulligini oshirish;
- teatr sohasini rivojlantirish;
- madaniy dam olish tizimini takomillashtirish, aholining boʻsh vaqtini mazmunli oʻtkazish uchun madaniyat markazlarini koʻpaytirish;
- Maqom va baxshichilikni rivojlantirish;
- musiqa va raqs sanʼatini ravnaq toptirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- Xalqaro maydonda oʻzbek madaniy diplomatiyasini rivojlantirish, boy madaniy merosimizni xalqimizga va xorijiy sayyohlarga keng tanitish ishlarini yangi bosqichga koʻtarish;
- Muzeylar faoliyatini takomillashtirish;
- kinochilikni ham rivojlantirishdan iborat.

Yuqoridagilar asosida anglashimiz mumkinki, davlat tomonidan milliy qadriyat va an'analarni kelajak avlodga yetkazish uchun ko'plab ishar qilinmoqda. Inson fuqaro, shu jamiyatning, yurtning bir a'zosi sifatida uni rivojlantirishi uchun nima qilishi kerak? Ushbu savol barchamizni qiynashi, o'ylashga, fikrlashga, tabir joiz bo'lsa qayg'uga solishi lozim.

Yangi O'zbekistonni, Uchinchi Renessansni bunyod qilish uchun bizdan talab etiladigan bitta narsa - bu o'zbekona urf-odat va qadriyatlar ruhida tarbiya topish, diniy va dunyoviy ilmlarni chuqur o'zlashtirish, umuminsoniy qadriyatlarni hayotiy jarayonda doimiy qo'llash va boshqalarni ham da'vat etish lozim.

Zero ma'rifatparvar Ibrat domlarning quyidagi fikrlari buning yorqin dalilidir: "millatni kim isloh etar? Ulamo g'ayrat etganda millat albatta isloh topur"

Xulosa o'rnida bir nechta hikmatlarimni maqolaga ko'chirmoqchiman.

Ona buytuk zot. Ma'naviyat ham xuddi ona kabidir. Noqobil farzand onaning umrini kamaytirgani kabi, demokratiyaning ayrim jihatlari ma'naviyatni yemirmoqda.

Siyosat va mafkura ma'naviyat bilan oziqlansagina mamlakat barqaror bo'ladi.

Iqtisod va ma'naviyat bir-biri bilan urishishi emas, murosa qilishi lozim, yo'qsa insoniyat yosh bolaga o'xshab xo'rozqandga talashadigan bo'lib qoladi.

Ma'naviyatning yuragi adabiyot, adabiyotning yuragi so'z, so'zning yaratuvchisi til va qo'l. Til va qo'lni qalb harakatga keltiradi. Ha odam inson bo'lishi uchun baribir ma'naviyatga suyanadi, yo'qsa, yiqilib to'rt oyoq bo'lib qoladi.¹

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi 01.05.2023-yil.
2. O.O'rozaliyev "Qalb oshyoni yoxud baxt kaliti" T.: 2017
3. <https://kun.uz/uz/news/2023/12/22/>

¹ O.O'rozaliyev "Qalb oshyoni yoxud baxt kaliti" T.: 2017

O‘ZBEKISTON TABIIY SHAROITIDA CHO‘LLANISHNING RIVOJLANISH OMILLARINI O‘RGANISH

N.R. Davitov

Osiyo xalqaro universiteti

Cho‘llanish–qurg‘oqchil iqlimli o‘lkalarda ekologik tizimlarning buzilishi, ulardagi organik hayotning barcha shakllari yomonlashuviga va natijada tabiiy-iqtisodiy imkoniyatlarning pasayib ketishiga olib keluvchi tabiiy-geografik hamda antropogen jarayonlar majmuidir.

Inson bilan tabiat munosabatlarining tobora chigallashuvi va murakkablashuvi borgan sari kuchayib borayotganligi, buning oqibatida jamiyat uchun noxush hodisalarning rivojlanishi, chunonchi, ekologik inqiroz, iqtisodiy tanglik, aholi salomatligining buzilishi, tabiiy resurslarning qashshoqlanishi va kamayishi, yer kurrasi bo‘yicha sodir bo‘layotgan iqlim o‘zgarishlari va boshqa salbiy jarayonlarning endilikda keng miqyosda sayyoramiz bo‘ylab taraqqiy qilayotganligi biosfera resurslaridan xo‘jalikda foydalanishni tartibga solish, me‘yorida foydalanishni tatbiq etish, sanoat, transport va qishloq xo‘jaligi, maishiy, chiqindilar chiqarishni imkoni boricha miqdor jihatdan kamaytirish yo‘nalishiga o‘tishni taqozo etmoqda.

SHu bilan birga cho‘llarni paydo bo‘lishi va kengayishiga antropogen, ya‘ni tabiat va inson o‘rtasidagi munosabatlar muvozanatining buzilishi: suv resurslaridan oqilona foydalanmaslik, flora va faunaning qashshoqlanishi va boshqalar sabab bo‘lmoqda.

Global iqlim o‘zgarishining foydali oqibatlaridan ko‘ra salbiy, ayniqsa, qirg‘oq bo‘yi mamlakatlari hamda qurg‘oqchil iqlim mintaqalarda borgan sari yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Ushbu global salbiy jarayonlar 1960 yillar oxirida iqlimshunos va dunyo muammolari bilan shug‘ullanuvchi olimlar e‘tiboriga tushdi va ushbu muammolarni hal etish yo‘lidagi harakatlarga rahbarlik qilishni BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti) o‘z zimmasiga oldi.

Hozirgi kunda cho‘llanish eng dolzarb geografik muammolardan biri hisoblanadi. SHu boisdan 1977 y. BMTning maxsus konferensiyasida “Cho‘llanishga qarshi kurash bo‘yicha dastur” qabul qilindi. 1994 y. esa “Cho‘llanishga qarshi kurash konvensiyasi” qabul qilindi va u 1996 y. kuchga kirdi.

SHuni ta‘kidlash joizki, respublikamiz cho‘l hududlarini rivojlantirish asoslari bugungi kunda kam o‘rganilgan. Zero, cho‘l geomajmualarining mavjud imkoniyatlarini tahlil qilish va baholash, dolzarb muammolarni aniqlash va ularni ilmiy

asosda hal etish yoʻllarini ishlab chiqish muhimdir. SHuning uchun mamlakatimiz choʻl hududlarini geografik nuqtai nazardan tadqiq etish muhim masalalardan biri boʻlib hisoblanadi.

Keyingi yillarda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar geografiyaning ajralmas tarmogʻi hisoblangan landshaftshunoslik va geoeologik yoʻnalishlarda boʻlib, bu sohada bajarilgan ishlarda tabiiy va antropogen omillar taʼsirida choʻllanish va uning geoeologik oqibatlarini, choʻl sharoitida komponentlararo aloqadorlikning barqarorligi, geoeologik rayonlashtirishning tamoyillarini ishlab chiqish, choʻllangan geomajmualarni ekologik optimallashtirishning geografik asoslari hamda choʻllanishning hozirgi holati va xavfi kabi xaritalar dolzarb muammolar kam yoritilgan.

Shu bois, choʻl zonasini ekologik holatini chuqur tahlil qilish, uni barqaror rivojlanishini umumiy tarzda hamda choʻllanishning oʻziga xos muammolari bilan uzviy bogʻliqlikda oʻrganish, mavjud muammolarni bartaraf etish boʻyicha zaruriy ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqish hamda Oʻzbekiston arid choʻllanishni hozirgi holati va choʻllanish xavfi muammolari oʻrganib tahlil qilib xaritalarni yaratish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mirzachoʻl, Qarshi, SHerobod, Qizilqum, Markaziy Fargʻona, Zarafshon vodiysi, Orolboʻyi, choʻlini majmuali tadqiq etish va tabiiy geografik rayonlashtirish muammosi asosan L.N.Babushkin, N.A.Kogay [5], A.A.Rafikov [6-7], L.A.Alibekov [3] va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida oʻz ifodasini topgan. Biroq Oʻzbekiston arid zonalari landshaftlarining makonda zonal va regional tabaqalanish xususiyatlari, hududda tabiiy va antropogen omillar taʼsirida sodir boʻlayotgan choʻllanish jarayonlari, buning oqibatida vujudga kelgan ekologik muammolar tahlil qilinmagan, geoeologik rayonlashtirish ishlari, arid zonalari choʻllanish xavfi jarayolarini xaritalashtirish masalasi muammolari amalga oshirilmagan.

Hozirgi kunda Oʻzbekistonning arid geotizimlarini majmuali tadqiq etishda landshaft yondashuv bir qator dolzarb muammolarni yechimini topishga imkoniyat yaratadi. Ayniqsa, arid landshaftlarni shakllantiruvchi indikatorlarni yoritish, ularning tabaqalanish qonuniyatlarini, choʻllanish tufayli vujudga kelgan geoyekologik vaziyatlarni tahlil qilish, ekologik vaziyatni baholash va optimallashtirish kabi muammolar tadqiqotchilardan oʻz yechimini kutmoqda.

Quyoshdan kelayotgan issiqlik hudud iqlimining tarkib topishida muhim omil boʻlishi bilan birga, respublikaning tabiiy boyliklaridan biri hisoblanadi va Oʻzbekistonda qimmatli issiqsevar oʻsimliklarni yetishtirishga imkon beradi. Quyosh radiatsiyasidan sanoatda, maishiy xizmatda, tibbiyotda ham keng foydalaniladi.

Er yuzasi holatining O'zbekiston iqlimi shakllanishidagi roli. O'zbekiston hududi janubiy kengliklarda joylashganligidan Quyoshdan katta energiya oladi. SHuning uchun havo haroratining ko'rsatgichlari ancha yuqori. YOz juda issiq, uzoq davom etadi. Qizilqumda, O'zbekistonning janubida havoning juda ham qizib ketgan o'choqlari paydo bo'lib, havo haroratining o'rtacha ko'rsatgichi yoz oylarida 30⁰Sdan ham ko'tarilib ketadi. Bunga sabab tuproq va o'simliklarning qattiq qurib ketishi natijasida bug'lanish va transpiratsiya uchun sarf bo'ladigan energiyaning havoning isitishga sarflanishidir. O'zbekistonda tekislik va tog' oldi hududlarida havoning bunday isib ketishi mamlakat tabiatining o'ziga xos xususiyatidir.

Mamlakatning shimol va g'arb tomonlarida orografik to'siq yo'qligi uchun shu tomondan O'zbekistonga qishda sovuq havo massalari bemalol kirib kelib, havo haroratini pasaytirib yuboradi va bizning hududimiz kengliklariga xos bo'lmagan sovuqlarga sabab bo'ladi. Markaziy Osiyoda, shu jumladan O'zbekistonda ham, havo haroratining yillik amplitudasi qo'shni hududlardagiga nisbatan ancha katta ko'rsatgichni tashkil qiladi. Bu esa O'zbekiston iqlimining yuqori darajada kontinentalligini ko'rsatadi. Bu jihatdan Markaziy Osiyo faqat SHarqiy Sibirdan keyin turadi. SHu sababli O'zbekiston iqlimi juda kontinental iqlim tipiga kiritadi.

O'zbekistonning cho'l va adirlardan iborat katta qismida tabiiy nam yetarli emas. Ma'lumki, bizga yog'in-sochinni Atlantika okeani ustida tarkib topgan nam havo massalari keltiradi. Lekin bu nam havo massalari O'zbekistonga kelgunga qadar yo'l-yo'lakay namligini ma'lum miqdorda yo'qotadi, yoz oylarida esa qurib keladi. SHu sababli O'zbekiston iqlimi juda ham qurg'oqchil bo'lib qoladi.

Atmosfera sirkulyatsiyasining O'zbekiston iqlimining tarkib topishidagi roli. O'zbekiston iqlimining shakllanishida havo massalari va ularning harakati katta o'rin tutadi. Havo oqimlari yer yuzida issiqlikni va namlikni qayta taqsimlaydi. SHu tufayli okeanlardan ancha uzoqda joylashgan O'zbekiston ham muayyan miqdorda nam havo bilan ta'minlanadi.

Respublikamiz iqlimining shakllanishida tropik, mo'tadil va arktika havo massalari juda faol ishtirok etadi, ular hududimizda yil davomida bir-biri bilan almashinib turadi.

Qish oylarida O'zbekiston ob-havosiga Markaziy Osiyo antitsikloni sezilarli ta'sir etadi. Bu antitsiklonning g'arb tomonga cho'zilgan markaziy o'qi (uni XIX asrning 80-yillarida birinchi bo'lib A.I.Voyeykov aniqlagani uchun Voyeykov o'qi ham deb yuritiladi) 50⁰ shimoliy kenglik bo'ylab o'tadi. Antitsiklonning ta'siri respublikamiz shimolida ancha kuchli bo'lib, Ustyurtning janubi – Quyi Amudaryo – SHimoliy Qizilqum chizig'igacha bo'lgan hududlar iqlimida yaxshi sezilib turadi. SHuning uchun Ustyurtda, Quyi Amudaryoda, Qizilqumning shimolida qish uzoq davom etadi, sovuq qattiq bo'ladi, qor qoplami uzoq turadi, yog'in kam tushadi. Atmosferaning

pastki qatlamlarida ko‘pincha kuchsiz shimoli-sharqiy, sharqiy shamollar esadi, havo ochiq bo‘lib, kechasi havo nur tarqatish yo‘li bilan soviydi, kunduzi Quyosh nurlari uni yana isitadi.

O‘zbekistonning iqlimi g‘oyat quruq bo‘lishiga qaramasdan uning hududida daryo va ko‘llar ancha ko‘p. Lekin ular respublikamizda notekis joylashgan. Tekislik qismida oqar suvlar juda kam. Tog‘larida esa serirmoq daryolar, katta-kichik soy va jilg‘alar juda ham ko‘p. Tog‘lardan oqib tushgan daryolar tekislikka kelishi bilan asosan ekin dalalarini sug‘orishga sarf bo‘ladi, qisman bug‘lanadi, yer ostiga sizib ketadi va shunday qilib, suvi asta-sekin kamayib qoladi. SHuning uchun ham O‘zbekiston daryolarining ko‘pchiligi ma‘lum bir suv havzasiga quyilmasdan tugab qoladi.

O‘zbekistonning tog‘larini o‘rab turgan tog‘ oldi tekisliklarida ham gidrografik tarmoqlar ko‘p, lekin ularning ko‘pchiligi bosh daryolar va ularning irmoqlaridan suv olib tevarak-atrofdagi yerlarni sug‘orish uchun tarqatib beruvchi kanallar va ariqlardan iborat. Binobarin, O‘zbekiston tog‘lari yog‘in suvi yig‘iladigan asosiy joy bo‘lsa, tekisliklar suv sarf bo‘ladigan va bug‘lanadigan hududlardir. Oqim doimiy oqar suvlardan, vaqtincha oqar suvlar va qorasuvlardan tashkil topgan.

O‘zbekistonda ko‘llar ham notekis taqsimlangan. Ko‘llarning ko‘pchiligi tekisliklarda, asosan Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon vodiylarida va del‘talarida, vohalarning chekkalarida joylashgan. Katta maydonni egallagan cho‘llarda esa tabiiy ko‘llar juda kam. Ular daryolarning qayirlarida saqlanib qolgan. Tog‘lik qismida ko‘llar 2000-3000 m balandlikda, ayniqsa 3000 m dan yuqorida eng ko‘p uchraydi.

O‘zbekiston tog‘laridagi muzliklar ham hududda notekis taqsimlangan. Muzliklar Piskom, Hisor tog‘ tizmalarining g‘arbiy, janubi-g‘arbiy yonbag‘irlarining 3500 metrdan baland qismlarida ko‘proq uchraydi.

Respublikamizda daryo va ko‘llarning notekis taqsimlanganligiga asosiy sabab O‘zbekiston hududining iqlimiy, gidrologik va orografik xususiyatlaridir. Respublika maydonining 20% ga yaqiniga yil davomida 80-200 mm, qolgan 80% esa 200-300 mm va undan ko‘p yog‘in tushadi. YOg‘inning asosiy qismi qish va bahor oylariga to‘g‘ri keladi. YOzda yog‘ingarchilik juda kam bo‘ladi.

O‘zbekistonning tekislik qismida Quyosh radiatsiyasining katta bo‘lishi, havoning quruq va issiq kelishi, yog‘inning oz yog‘ishi, qorning kamligi va uzoq turmasligi, yer yuzasi nishobliining kamligi hamda qumoq, qum jismlarining keng tarqalgani oqimlar, ayniqsa oqar suvlar hosil bo‘lishiga imkon yaratmaydi. SHuning uchun O‘zbekistonning tekislik qismida doimiy oqar suvlar hosil bo‘lmaydi. Faqatgina gil keng tarqalgan va taqirli yerlarda qattiq jala yog‘ganda, qor birdan eriganda vaqtincha oqar suvlar vujudga keladi.

O'zbekistonda foydalaniladigan daryo suvlarining faqat 10% (10 km^3 atrofida) respublika hududida vujudga keladi, qolgan 90%, ya'ni 89 km^3 suv manbai mamlakatdan tashqarida joylashgan. Bevosita O'zbekiston hududida vujudga keladigan daryo oqimi Amudaryo havzasi umumiy oqimining 6%, Sirdaryo havzasi oqimining 15% tashkil qiladi.

Sirdaryo havzasining tog'li qismida yiliga o'rta hisobda 38 mlrd m^3 suv hosil bo'ladi. Sirdaryo Farg'ona vodiysidan chiqqach chap tomondan unga birona ham yirikroq irmoq kelib qo'shilmaydi. O'ng tomondan esa unga Ohangaron, CHirchiq, Kalas va Aris irmoqlari kelib qo'shiladi. Quyida Amudaryo va Sirdaryo haqida gidrologik ma'lumotlarni keltiramiz. O'tgan asrning 60-yillarida Markaziy Osiyo va Janubiy Qozog'istonda yangi yerlarning o'zlashtirilishi va ekin maydonlarining kengaytirilishi oqibatida sug'orishga olinadigan suv miqdori keskin ortgan. 1965 yilda yerlarni sug'orishga jami bo'lib $63,2 \text{ km}^3$ suv olingan bo'lsa, 1985 yilda $111,5 \text{ km}^3$ suv olingan. Orol dengizida Amudaryo va Sirdaryodan quyiladigan suv miqdori yildan-yilga kamaya bordi. Oqibatda dengiz suv sathi 1960 yildan boshlab jadal sur'atlarda pasaya boshladi.

O'zbekistonning tog'li qismida ko'llar ko'p, lekin ular tog'larda ham notekis taqsimlangan. Ko'llar asosan 2000-3000 metr balandliklarda, ayniqsa 3000 m dan yuqorida ko'p uchraydi.

Er osti suvlari. O'zbekiston hududi yer osti suvlarining yetarli zahirasi ega. Respublikamizda ularning aniqlangan zahirasi sekundiga 1001 m^3 ni yoki 1 yilda $31,5$ mlrd m^3 ni tashkil etadi. Ularning kimyoviy tarkibi va sho'rlanganlik darajasi har xil. Respublikada chuchuk va bir oz sho'rlangan yer osti suvlarining foydalanish mumkin bo'lgan zahirasi sutkasiga $50,6$ mln m^3 bo'lib, uning 80% ya'ni 40 mln m^3 tog' oldi, tog'li yerlarga to'g'ri keladi. Uning yarmi chuchuk yer osti suvlaridir. Hidrogeologlar O'zbekiston hududini tabiiy sharoitidan kelib chiqib, 3 ta –tog' oldi, tog' va tekisliklarga bo'linadi. Har bir o'lka o'ziga xos yer osti suvlari va to'yinish manbalariga ega.

Respublikaning tog' oldi, tog'li hududi baland tog' tizmalari, past tog'lar va tog'lar oralig'idagi va tog' oldi botiqlaridan iborat. Bularning har birida yer osti suvlarining rejimi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Tog'larda yer yoriqlarida paydo bo'lgan yer osti suvi havzalari vujudga kelgan bo'lsa, tog' oralig'i botiqlarida artezian havzalardan iborat.

Tog' oldi mintaqasida grunt va qatlamlararo suvlar asosan yog'in-sochin va baland tog'lardan sizib kelgan suvlar hisobiga shakllanadi. Bu mintaqada yer osti suvlari yer ostidan sizilib borib, pastda joylashgan artezian havzalariga qo'shib ketadi. Mintaqadagi yer osti suvlari sho'rlik darajasi chuchukdan to sho'rgacha bo'ladi.

Bu mintaqada yer osti suvlariga eng boy hudud Farg‘ona botig‘idir. Bu yerda to‘yinish manbaiga ega va foydalanish mumkin bo‘lgan yer osti suvlari miqdori sekundiga 289 m^3 teng.

O‘zbekistonning tekislik mintaqasi Amudaryo, Sirdaryo va Ustyurt artezian havzalaridan iborat, ularning tabiiy yer osti suvi resurslarining umumiy miqdori sekundiga 120 m^3 tashkil etadi va buning asosiy qismi sug‘oriladigan del’ta tekisliklariga to‘g‘ri keladi. CHuchuk suvlar yer osti suvi jami miqdorining taxminan 10% tashkil etadi. Ular asosan sug‘oriladigan yer, kanal va ariqlardan sizib vujudga keladi, yirik magistral kanallar yoqasida uchraydi.

Artezian suvlar O‘zbekistonda ancha chuqurdan–100-400 m va undan ham chuqurdan chiqqanligi sababli suvining sifati hamma yerda bir xil emas. yer yuzasiga yaqin qatlamlar orasidagi suvlar chuchuk, harorati pastroq, chuqurda joylashganlarida issiq, biroz minerallasgan bo‘ladi.

O‘zbekistonning cho‘l mintaqasida joylashgan artezian havzalarida qatlamlararo suvlar qumli yotqiziqlarda uchraydi. Ular ancha sifatli bo‘lib, yaylovlarni suv bilan ta‘minlashda, kichik vohalarda sug‘orma dehqonchilikda ishlatilmoqda. Bu suvlarni (sho‘rli 1,5g/l dan -5,0g/l maxsus qurilmalar yordamida chuchuklashtirib xo‘jalikda va aholini ichimlik suv bilan ta‘minlashda foydalanish ham mumkin. Hozirgi kunda Janubiy Orolbo‘yida 100 dan ortiq maxsus qurilmalar yordamida yuqori bo‘r yotqiziqlari orasidagi suvlar chuchuklashtirilib, aholi manzillari ichimlik suv bilan ta‘minlanmoqda.

Xulosa

O‘zbekiston hududida arid iqlimli cho‘l zonalarining hozirgi bosqichidagi barcha geotizimlarning o‘zgarishi, rivojlanishi va yuz berayotgan cho‘llanish jarayonlari hamda vujudga kelgan keskin geoeologik vaziyatlar ikki guruh omillar ta‘sirida sodir bo‘lmoqda. Bular o‘zaro bog‘liq holda barcha geotizimlarga ta‘sir etuvchi tabiiy va antropogen omillar guruhidir.

Tuproq sho‘rlanishi, chorvachilikda yaylovlardan foydalanishning past darajasi dehqonchilikni rivojlanishida noqulay inson xo‘jalik faoliyatining qishloq xo‘jalik hayvonlarining tabiatga ta‘siri cho‘llanishning mo‘‘tadil sinfi sifatida baholanadi. Lekin umuman olganda bu kontur cho‘llanishning yuqori sinfi hisoblanadi.

Ma‘lumki Respublikamiz hududining aksariyat qismi dasht va cho‘llardan iborat. Bu esa yildan-yilga hududda yaylovlarning tobora kamayib ketishi muammosini keltirib chiqarishi tabiiy. Ana shu muammoning oldini olish, qolaversa, foydalanishga yaroqli butasimon daraxt hamda o‘simliklarni ko‘paytirish davr talabi darajasiga aylantirish kerak. Buning oqibatida cho‘llanishni kamaytirish samaradorligi oshadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: «O‘zbekiston», 1997.
2. Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. –T. “O‘qituvchi”, 1998.
3. Alibekov L.A. Fenomen protsessi opustinivaniya v aridnix zonax// Mat. mejd. nauch. konf. «Problemi opustinivaniya v aridnix zonax» Samarkand. Aero-Sigma. 2000.
4. Babayev A.G. i dr. Prichini obrazovaniya podvijnix peskov// Zakrepleniye podvijnix peskov pustin’. Ashxabad: Ilim, 1982.
5. Babushkin L.N.,Kogay N.A. Fiziko-geograficheskoye rayonirovaniye Uzbekistana// Nauchn. tr. TashGU, vip. 231. Tashkent, 1964.
6. Rafikov A.A. Ustoychivost’ apidnix geosistem Uzbekistana k vozdeystviyu antropogennoy nagpuzki// Ppoblemi osvoyeniya pustin’. Ashxabad. 1992. №3.
7. Rafikov A.A. Otsenka prirodno-meliorativnix usloviy zemel’ YUjnogo Priaral’ya. Tashkent: Fan, 19
8. Jurakulov, S. Z. (2023). Nuclear energy. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(11), 514-518.
9. Oghly, J. S. Z. (2023). PHYSICO-CHEMICAL PROPERTIES OF POLYMER COMPOSITES. *American Journal of Applied Science and Technology*, 3(10), 25-33.
10. Oghly, J. S. Z. (2023). THE RELATIONSHIP OF PHYSICS AND ART IN ARISTOTLE’S SYSTEM. *International Journal of Pedagogics*, 3(11), 67-73.
11. Oghly, J. S. Z. (2023). A Japanese approach to in-service training and professional development of science and physics teachers in Japan. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(9), 167-173.
12. Oghly, J. S. Z. (2023). BASIC PHILOSOPHICAL AND METHODOLOGICAL IDEAS IN THE EVOLUTION OF PHYSICAL SCIENCES. *Gospodarka i Innowacje.*, 41, 233-241.
13. Oghly, J. S. Z. (2023). STRATEGIES FOR SUCCESSFUL LEARNING IN PHYSICS. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(9), 312-318.
14. Oghly, J. S. Z. (2023). New Computer-Assisted Approaches to Teaching Physics. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(10), 173-177.
15. Oghly, J. S. Z. (2023). A Current Perspective on the Relationship between Economics and Physics. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(10), 154-159.

16. Jurakulov, S. Z., & Turdiboyev, K. (2023). STUDYING PHYSICS USING A COMPUTER. *GOLDEN BRAIN*, 1(33), 148-151.
17. Jurakulov, S. Z., & Nurboyev, O. (2023). RELATIONSHIPS BETWEEN THE DIRECTIONS OF FINANCE AND PHYSICAL SCIENCE. *GOLDEN BRAIN*, 1(33), 168-172.
18. Jurakulov, S. Z. O., & Nurboyev, O. (2023). THE MAIN SIGNIFICANCE OF THE DEPARTMENTS OF PHYSICS IN THE DEVELOPMENT. *GOLDEN BRAIN*, 1(33), 162-167.
19. Jurakulov, S. Z. O., & Turdiboyev, H. (2023). RELATIONSHIPS OF PHYSICS WITH ART IN THE FIELD OF EDUCATION. *GOLDEN BRAIN*, 1(33), 144-147.
20. Jurakulov, S. Z. O., & Turdiboyev, H. (2023). ADVANCED STRATEGIES FOR LEARNING PHYSICS. *GOLDEN BRAIN*, 1(33), 152-156.
21. Jurakulov, S. Z. O., & Nurboyev, O. (2023). LEVEL AND POSITION IN THE EDUCATIONAL FIELD OF PHYSICS. *GOLDEN BRAIN*, 1(33), 157-161.
22. Jurakulov, S. (2023). PROPERTIES AND CHARACTERISTICS OF NUCLEAR ENERGY. *Инновационные исследования в науке*, 2(12), 35-39.
23. Jurakulov, S. (2023). ON THE RELATION OF METAPHYSICS TO PHYSICS. *Академические исследования в современной науке*, 2(27), 9-20.
24. Jurakulov, S. (2023). IMPACT OF THE MINING INDUSTRY ON PEOPLE AND THE ENVIRONMENT. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 2(21), 143-150.
25. Jurakulov, S. (2023). CHANGES IN LANGUAGE DUE TO NEW PHYSICS. *Models and methods in modern science*, 2(13), 77-87.
26. Jurakulov, S. (2023, December). RESEARCH THEORIES OF PHYSICS COURSES IN JAPAN. In *Международная конференция академических наук* (Vol. 2, No. 12, pp. 43-48).
27. Jurakulov, S. (2023). PHYSICAL-MECHANICAL PROPERTIES OF NAKMS AND CARBAPOLL BASED GELS. *Development and innovations in science*, 2(12), 65-70.
28. Jurakulov, S. Z., & Hamidov, E. (2023). YADRO ENERGIYASINING XOSSA VA XUSUSIYATLARI. *GOLDEN BRAIN*, 1(33), 182-186.
29. Jurakulov, S. Z., & Nurboyev, O. (2023). IN THE EDUCATIONAL FIELD OF PHYSICS LEVEL AND POSITION. *GOLDEN BRAIN*, 1(33), 157-161.
30. Jurakulov, S. Z., & Turdiboyev, X. (2023). FIZIKA FANINI O‘RGANISHNING YUQORI DARAJADAGI STRATEGIYALAR. *GOLDEN BRAIN*, 1(33), 152-156.
31. Jurakulov, S. Z., & Turdiboyev, X. (2023). TA’LIM SOHASIDA FIZIKANING SAN’AT BILAN ALOQALARI. *GOLDEN BRAIN*, 1(33), 144-147.

32. Jurakulov, S. Z., & Nurbojev, O. (2023). FIZIKA FANINING BO‘LIMLARINING RIVOJLANISHDAGIDAGI ASOSIY AHAMIYATI. *GOLDEN BRAIN*, 1(33), 162-167.
33. ugli Jurakulov, S. Z. (2023). FIZIKA TA’LIMI MUVAFFAQIYATLI OLIISH UCHUN STRATEGIYALAR. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(14), 46-48.
34. qizi Latipova, S. S. (2023). BETA FUNKSIYA XOSSALARI VA BU FUNKSIYA YORDAMIDA TURLI MASALALARNI YECHISH. *GOLDEN BRAIN*, 1(34), 66-76.
35. qizi Latipova, S. S. (2023). SOLVING THE INVERSE PROBLEM OF FINDING THE SOURCE FUNCTION IN FRACTIONAL ORDER EQUATIONS. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 10(12).
36. Latipova, S. S. (2023). SOLVING THE INVERSE PROBLEM OF FINDING THE SOURCE FUNCTION IN FRACTIONAL ORDER EQUATIONS. *Modern Scientific Research International Scientific Journal*, 1(10), 13-23.
37. qizi Latipova, S. S. (2023). HEAT PHYSICAL MEANING AND ORIGIN OF DIFFUSION EQUATIONS. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 10(12).
38. daughter Latipova, S. S. (2023). HEAT PHYSICAL MEANING AND ORIGIN OF DIFFUSION EQUATIONS. *World of Scientific news in Science*, 1(2), 163-176.
39. Shahnoza, L. (2023, March). KASR TARTIBLI TENGLAMALARDA MANBA VA BOSHLANG‘ICH FUNKSIYANI ANIQLASH BO‘YICHA TESKARI MASALALAR. In " *Conference on Universal Science Research 2023*" (Vol. 1, No. 3, pp. 8-10).
40. qizi Latipova, S. S. (2023). RIMAN-LUIVILL KASR TARTIBLI INTEGRALI VA HOSILASIGA OID AYRIM MASALALARNING ISHLANISHI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(12), 216-220.
41. qizi Latipova, S. S. (2023). MITTAG–LIFFLER FUNKSIYASI VA UNI HISOBLASH USULLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(9), 238-244.
42. qizi Latipova, S. S. (2023). KASR TARTIBLI HOSILA TUSHUNCHASI. *SCHOLAR*, 1(31), 263-269.
43. Sharipova, M. P. L. (2023). CAPUTA MA’NOSIDA KASR TARTIBLI HOSILALAR VA UNI HISOBLASH USULLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(9), 360-365.
44. Sharipova, M. P. (2023). MAXSUS SOHALARDA KARLEMAN MATRITSASI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(10), 137-141.

45. Madina Polatovna Sharipova. (2023). APPROXIMATION OF FUNCTIONS WITH COEFFICIENTS. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(9), 135–138.

46. Madina Polatovna Sharipova. (2023). Applications of the double integral to mechanical problems. *International journal of sciearchers*,2(2), 101-103.

47. Sharipova, M. P. L. (2023). FINDING THE MAXIMUM AND MINIMUM VALUE OF A FUNCTION ON A SEGMENT. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(9), 245-248.

48. Sharipova, M. P. (2023). FUNKSIYALARNI KOEFFITSIENTLAR ORQALI FUNKSIYALARNI YAKINLASHTIRISH HAQIDA MA'LUMOTLAR. *GOLDEN BRAIN*, 1(34), 102–110.

49. Sharipova, M. (2023, December). RELATIONSHIPS BETWEEN STRAIGHT LINES AND PLANES IN SPACE. In *Международная конференция академических наук* (Vol. 2, No. 12, pp. 60-66).

